

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Saidov Shavkat Jumaboyevich

MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI

(Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha)

**5220200 – Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) ta’lim yo‘nalishi
bakalavr II bosqich talabalari uchun**

qo‘llanma

TOSHKENT – 2010

Saidov Sh.J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha) 5220200 – Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) ta’lim yo’nalishi bakalavr II-bosqich talabalari uchun qo’llanma. –T.: TDSHI, 2010. –140 b.

Ushbu qo’llanma Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davridan, ya’ni mintaqada kishilik jamiyatini paydo bo’lishidan to Arab xalifaligigacha bo’lgan tarixini o’z ichiga oladi. Ma’lumki, Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy o’choqlaridan bo’lib, keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va ilmiy tadqiqot izlanishlari buni yana bir marta tasdiqladi. Yaponiya, Avstraliya, Fransiya va Rossiyalik arxeologlarning O’zbekiston olimlari bilan hamkorlikda o’tkazilgan ilmiy ekspeditsiyalari juda samarali bo’ldi. Mazkur hamkorlikning natijasi o’laroq olingan ilmiy-amaliy yangiliklar ham o’quv qo’llanmada o’z aksini topgan.

Qo’llanmada mintaqada ro’y bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ilmiy va qiyosiy tahlil asosida xronologik izchil bayon qilingan. Shu jihatdan ham “Tarix” yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun nihoyatda zarur hisoblanadi. Tarixni bilish esa mamlakatimizning ushbu mintaqaga xalqlari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalarini yanada rivojlantirish va samarasini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayni shu ma’noda Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Mo’g’uliston, Dashti Qipchoq, Janubiy Osiyo va O’rta Osiyo mintaqalarida joylashgan o’nlab davlatlar, xalqlar, elatlar tarixini biladigan zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash o’ta dolzarbdir.

Shunday qilib, mazkur o’quv qo’llanma Markaziy Osiyo xalqlari tarixining eng qadimgi davrlaridan to ilk o’rta asrlarigacha bo’lgan voqealarni qamrab olgan bo’lib, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” yo’nalishida ta’lim olayotgan ikkinchi bosqich talabalari uchun mo’ljallangan. Qo’llanmaga kiritilgan ma’lumotlar, voqealar taxlili, tarixiy jarayonlarni xronologik, izchil bayon qilinishi talabalarga, shuningdek, tariximiz bilan qiziquvchilarga ham foyda keltiradi degan umiddamiz.

Mas’ul muharrir: **M.M.Is’hoqov**, t.f.doktori

Taqrizchilar: **I.Jamolhoji**, t.f.n., MOXT kafedrası kat.o‘q.
N.Polvonov, t.f.n., UzMU dotsenti

Ushbu qo’llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O’quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnoma №2, 02.04.2010)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010

KIRISH

Markaziy Osiyo - eng qadim zamonlardan boshlab ko'plab xalqlarning taqdirini birlashtirgan, murakkab etnik va tarixiy jarayonlar kechgan tarixiy - geografik hudud hisoblanadi. Shuningdek, bu ulkan mintaqa jahon antropogen jarayonlari ro'y bergan, insoniyatning ilk ajdodlari shakllangan mamlakatlardan biridir. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan madaniyat o'chog'i sifatida dunyo ilm ahlining e'tiborini tortib kelgan. Bugungi kunda jahon siyosiy xaritasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berib, Markaziy Osiyoda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ularning har biri o'z taraqqiyot yo'lini tanlab, istiqbol sari intilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston ham demokratik jamiyat qurish jarayonini boshdan kechirmoqda. O'zbekiston uchun qo'shni va uzoq mamlakatlar bilan keng qamrovli aloqalarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlarning samarasini ta'minlash o'z navbatida kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liqdir. Ayni shu ma'noda Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Janubiy Osiyo va O'rta Osiyo mintaqalarida joylashgan o'nlab davlatlar, xalqlar, elatlar tarixini biladigan zamonaviy mutaxxisslarni tayyorlash o'ta dolzarbdir. Tarixni bilish esa mamlakatimizning ushbu mintaqa xalqlari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish va samarasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu qo'llanma Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davridan, ya'ni mintaqada kishilik jamiyatini paydo bo'lishidan to Arab xalifaligigacha bo'lgan tarixini qamrab olgan. Ma'lumki, Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy o'choqlaridan bo'lib, keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va ilmiy tadqiqot izlanishlari buni yana bir marta tasdiqladi. Yaponiya, Avstraliya, Fransiya va Rossiyalik arxeologlarning O'zbekiston olimlari bilan hamkorlikda o'tkazgan ilmiy ekspeditsiyalari juda samarali bo'ldi. Mazkur hamkorlikning natijasi o'laroq olingan ilmiy-amaliy yangiliklar ham o'quv qo'llanmalarda o'z aksini topgan.

Shunisi e'tiborliki, Markaziy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiya asoslari mezolit va neolit bosqichlariga borib taqaladi. Xuddi shu davrda dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'lgan. Eneolit davriga kelib sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi mintaqa taraqqiyotida keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga yo'l ochib berdi. Bronza davriga kelib esa shaharsozlik boshlandi. Ilk davlat uyushmalarining shakllanishiga sabab bo'lgan omillar, ya'ni yer haydab dehqonchilik qilish, metal eritish va undan foydalanish yuksak tarqiy qilgan jamiyatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan shu davrda mintaqada ilk yozuv elementlari yaratildi. Markaziy Osiyoning janubida, ya'ni Turkmaniston va O'zbekiston xududlarida mahalliy davlatchilik asos-

lari vujudga keldi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning boshiga kelib Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya kabi qudratli, yirik, markazlashgan davlatlar siyosiy maydonga chiqdi. "Avesto" yaratilganligining va Qarshi shaharining 2700, Samarqand shahrining 2750 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Ota-bobolarimiz Ahamoniy va yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uzoq yillar davomida shiddatli kurash olib bordi. Buning natijasi o'laroq mustaqil davlatlar: Qadimgi Xorazm, Choch, Parkana, Parfiya, Yunon-Baqtriya kabi davlatlar vujudga keldi, yuksaldi. Antik davrning buyuk davlatlari Qang', Kushon kabi saltanatlar nafaqat mintaqada balki, Sharq va G'arb mamlakatlari tarixida ham sezilarli iz qoldirdi. Jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan Buyuk Ipak yo'li aynan shu davrda shakllandi va rivojlandi.

Ilk o'rta asrlarda mintaqada xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo, jahon tarixining keskin burilishiga sabab bo'lgan xalqlarning buyuk ko'chishlari bilan bog'liqdir. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoning o'troq hududlariga ko'chmanchi turkiy xalqlarning ommaviy ko'chib kelishlari yuz berdi. Natijada, mintaqada xalqlarining etnosida turkiylashuv jarayoni kuchaydi. Bunday o'zgarishlar oqibatida tarix sahnasiga Xiyoniylar, Sosoniylar, Kidariylar, Eftalitlar va Turk xoqonligi kabi yangi buyuk davlatlar chiqib keldi.

Qo'llanmaning **maqsadi**: Markaziy Osiyoda eng qadim zamonlardan yashab kelgan xalqlar, ularning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, davlatlar, ularning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi siyosati haqida batafsil ma'lumot berishdir.

Qo'llanmaning **vazifalari**: Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davri va uning asosiy bosqichlari, Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ekanligi, Markaziy Osiyoda bronza davri va shaharsozlik, Markaziy Osiyo qadimiy davlatchiligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va rivojlanish jarayonlari, ilk davlat uyushmalarini shakllanishi, diniy dunyoqarash, zardushtiylik, Markaziy Osiyoga ahamoniylar va makedoniyalik Iskandarning istilochilik yurishlari, shuningdek, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Mo'g'uliston va Oltoy hududlarida yashagan xalqlar, bundan tashqari mintaqada shakllangan ilk davlatlarning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari haqida atroflicha ma'lumot berish va ularni to'laqonli yoritib berishdan iboratdir.

Shunday qilib, mazkur qo'llanma Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrlaridan to'lgan o'rta asrlarigacha bo'lgan tarixini qamrab olganligini ko'ramiz. Bunda kiritilgan ma'lumotlar, voqealar tahlili, tarixiy jarayonlarni xronologik, izchil bayon qilinishi "Tarix" yo'nalishida bilim olayotgan talabalarga, shuningdek, tariximiz bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga foyda keltiradi deb o'ylaymiz.

I - bo'lim: Markaziy Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi davrida

1.1. Markaziy Osiyoda tosh asri: paleolit. Markaziy Osiyo, Sharqiy va Janubiy Turkistonda paleolit davri yodgorliklari

***O'quv maqsadi:** Insoniyat tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi davrining o'rni, bu davrni jahon fanida o'rganilish darajasi, Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davri va uning asosiy bosqichlari, Markaziy Osiyo inson paydo bo'lgan eng qadimiy antropologik hudud ekanligini, paleolit davri odamlarining mashg'ulotlari, mehnat qurollari haqida batafsil ma'lumot, tushunchalar berish va ko'nikmalar hosil qilish.*

Kishilik tarixida insonning yer yuzida paydo bo'lgan davridan to ilk davlatlar va shaharlar paydo bo'lgungacha davri ibtidoiy jamoa tuzumi davri deyiladi. Bu davr eng uzoq vaqt davom etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi moddiy madaniyat (arxeologiya) yodgorliklari asosida o'rganiladi. Tadqiqotchilar o'sha davr odamlari yaratgan mehnat qurollari va ularga ishlov texnikasiga qarab, ibtidoiy jamoa tuzumini quyidagi davrlarga bo'lganlar: 1. Paleolit (qadimga tosh asri, eramizdan avvalgi 1mln.yillardan – eramizdan avvalgi 12 ming yilliklargacha); 2. Mezolit (o'rta tosh asri, eramizdan avvalgi 12-7chi ming yilliklar); 3. Neolit (yangi tosh asri, 7-5chi ming yilliklar); 4. Eneolit (mis tosh asri, 4-3chi ming yilliklar); 5. Bronza (3-1chi ming yilliklar).

Insoniyat yer yuzida qachon paydo bo'lganligi muammosi keskin bahslarga va tez-tez o'zgarib turuvchi taxminlarga sabab bo'lmoqda. Yaqin yillargacha Markaziy Osiyo hududida insoniyat 80-100 ming yillik tarixga ega deb hisoblanardi. Biroq, keyingi yillardagi tadqiqotlar Markaziy Osiyo hududining insoniyat ilk ajdodlari yashagan mintaqalar qatoriga kirishini ko'rsatmoqda. 1980 yillarda o'zbek olimlari Farg'ona vodiysidagi Selung'ur g'orida olib borgan izlanishlari natijasida insonlar bu yerda Ashel davrida yashaganlar degan fikrga keldilar.

Mutaxassislar fikricha, shuningdek, Ashel davri yodgorliklari jumlasiga Ko'lbuloq, Qorator 1, Loxutiy 1 va Unarcha yodgorliklari ham kiradi. Ashel davri bundan 1 mln. yil oldin boshlanib, miloddan avvalgi 200-100 ming yillargacha davom etgan. Bu davrning boshlarida Markaziy Osiyoda iqlim yozda issiq va quruq bo'lgan bo'lsa, qishda sovuq va yog'ingarchilik kam bo'lgan. Ashel davrining oxirlariga kelib esa, havo keskin sovigan, tog' zonalarini muzliklar qoplagan, pasttekisliklarda esa yomg'irlarda uzluksiz yog'gan. Bu davr odamlarining mehnat qurollari asosan toshdan (uchi o'tkir tosh) va hayvon suyaklaridan iborat bo'lgan. Ular asosan g'orlarda hayot kechirishgan va ilk bor shu davrda olovdan foydalanishni boshlaganlar. Bu kashfiyot odamlarga Ashel davrining so'nggida ayniqsa juda yordam bergan.

Markaziy Osiyoda paleolit davrining o'rta bosqichi miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. O'rta paleolitda neandertal odam

paydo bo'lgan. Markaziy Osiyoda o'rta paleolitga oid yodgorliklar ellikdan ortiq joyda topilgan. Fan olamida ayniqsa Teshiktosh, Obirahmat, Omonquton, Uchtut, Qorabura, Tossar, Georgiy do'ngligi kabi yodgorliklar juda mashhur. O'zbekiston hududida joydashgan Teshiktosh yodgorligi nafaqat Markaziy Osiyoda balki, jahonning shu davri yodgorliklari ichida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yodgorlikni o'rganish o'sha davr kishilari hayotida ovchilik muhim o'rin egallaganligini va ularda diniy tasavvurlar shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

Bundan 35-40 ming yil burun paleolit davrining yuqori bosqichi boshlanadi. Markaziy Osiyoda bu davr so'nggi paleolit miloddan avvalgi 13-10 ming yillarigacha davom etgan. Yuqori paleolitning eng muhim xususiyati – hozirgi tipdagi odam “xoma sapiens”(aqli, ongli odam)ning shakllanganligidir. Mutaxassislar fikricha, aynan shu davrda irqalar paydo bo'lgan. Markaziy Osiyoda yuqori paleolit davriga oid 30dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Inson ilk bora nayza, sanchqi (garpun) kabi ov qurollarini o'zlashtirgan. Ummun, bu davr mehnat qurollari asosan toshdan, daraxt va suyakdan yasalgan. Chopper – eng muhim mehnat quroli bo'lib, undan daraxtlarning shoxlarini kesish va hayvonlarni o'ldirishda foydalanilgan. Yuqori paleolit davrining birinchi noyob yodgorligi 1939 yilda geolog olim N.G.Xarlamov tomonidan Samarqand shahri hududidan o'tgan qadimgi Siyobcha soyi yoqasidan topilgan. Bu makonda uzoq yillar davomida Samarqand davlat universiteti dotsenti D.I.Lev va uning shogirdi, professor M.Juraqulovlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Tadqiqotlar natijasi o'laroq juda ko'p arxeologik ashyoviy dalillar, ya'ni hayvon suyaklari qoldiqlari, odam skeletiga doir materiallar topilgan. Manzilgohni o'rganish davomida chaylasimon kulba izlari va uning markazidan kul qatlami bilan o'choq qoldig'i qazib olingan. So'nggi paleolit davrida xo'jalik va madaniyat texnikasining alohida o'ziga xos xususiyatlari paydo bo'ldi. Sobiq ittifoq hududida so'nggi paleolitga oid xususiyatlariga qarab bir biridan farq qiluvchi uchta katta mintaqani ko'rish mumkin. Bular Rus tekisligi, Sibir hamda janubiy o'lkalar-Qrim, Kavkaz va Markaziy Osiyodir.

Janubiy hududlarda madaniyat shimolga qaraganda bir muncha farqliroq rivojlangan. Janubda tosh qurollarni ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu yerda ularni topish osonroq bo'lganligi uchun ko'proq foyda bergan. Chamasi, janubda kamon va o'q ilgariroq paydo bo'lgan, ovchilik asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lgan bo'lsa kerak. Bu yerda tabiatning tayyor mahsulotlarini o'zlashtirishdan ko'ra ularni ko'proq ishlab chiqarishni avzalloq ko'rishgan. Shuning uchun ham mehnat qurollari va toshga ishlov berishning turli usullarini o'zlashtirish shimoliy o'lkalarga nisbatan erta boshlangan bo'lishi mumkin. Shu asosda, madaniy taraqqiyotda Shimol va Janub o'rtasida tafovutning paydo bo'lishi texnika va xo'jalikning rivojlanishiga bevosita bog'liq deb xulosa chiqarish mumkin.

Biz o'rganayotgan Sharqiy Turkiston va Turkistonning Janubiy hududlarida paleolit davri yodgorliklari asosan, muzlik davrida ko'plab topilgan. Masalan: hozirgi Turkistonning janubida Qorabo'ri, Jarqo'ton, Qirg'iyin yodgorliklari, Qoshg'arda esa Tossar, Georgiy do'ngliklari topilgan. Qozog'iston hududida ilk paleolit davri taxminan bir million yil oldin paydo bo'lgan. Buni toshdan yasalgan ov qurollari ham ko'rsatib turibdi. Bu davrda yashagan odamlar olovni va jamoa bo'lib ov qilishni bilishgan. Davrga oid manzilgohlar asosan Janubiy Qozog'istonning Qoratau manzilgohidan topilgan. Bundan tashqari Bariqazgan (Bo'riqazigan), Tanirkazgan (Tandirqazigan), Kudaykol (Xudoy ko'l, Markaziy Qozog'istonning Qarag'anda viloyatining Obalisoy tumanida joylashgan) va boshqa manzilgohlar topilgan. Jezqazg'an viloyatida Semizbug'u manzilgohi alohida e'tiborga sazovordir. Bu manzilgohning maydoni 2500×300 metr bo'lib, 1611dan ortiq tosh qurollari topilgan. Tadqiqotchilar bu yerda pitikantrop va sinantrop-larning yashaganligini aniqlashdi. Mazkur mintaqada, shuningdek o'rta paleolit davriga oid manzilgohlar ham keng tarqalganligi aniqlandi. Masalan, Janubiy Qozog'iston viloyatining Aristand daryosi o'ng qirg'og'ida joylashgan Qorasuv manzilgohi, Qarag'anda viloyatining Sarisu daryosi buyida joylashgan Batpak manzilgohi, G'arbiy Qozog'istonning Mang'ishloq yarim orolidan topilgan manzilgohlar bunga misol bo'la oladi.

Umuman, Markaziy Osiyoda bu davrga oid 50 dan ortiq yodgorliklar topilib o'rganilgan. Bu yodgorliklarda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida o'sha davr odamlarining toshdan ishlangan mehnat qurollari, qo'l-chuqmor, hayvon terisini shilishda ishlatilgan "tosh pichoqlar" ko'plab topilgan. Olimlar mazkur moddiy manbalarni o'rganish asosida Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida neandertalga zamondosh ajdodlarimiz ovchilik bilan, eng birinchi navbatda yirik hayvonlarni ovlash bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. So'nggi paleolit davrida Markaziy Osiyoda dunyoda keng tarqalgan uch irqdan biri, mongoloidlarni shakllanganligini arxeologik topilmalar isbot qilib berdi.

Markaziy Osiyo ilk paleolit davriga oid madaniyatning elementlarini Hindistonning shimoliy hududida topilgan Soan manzilgohiga mansub mehnat qurollari bilan ayrim o'xshashligini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyo paleolitining muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, ilk paleolitdayoq tosh o'zaklaridan parrakalar ajratishda levellua texnik uslubi mavjud bo'lgan. Bu jarayon paleolit yodgorliklarida turli xilda kuzatishidan qat'iy nazar, mehnat qurollarini yaratishda qo'llanilgan taraqqiyot yo'lini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnik uslub, ayniqsa, o'rta paleolit davrida birmuncha rivoshlanganligini ko'ramiz. Markaziy Osiyo ilk paleolitga oid qo'l cho'qmorlari bilan bir qatorda qayroq kabi tosh qurollarining ishlatilganligi uning Hindistondagi Soan madaniyatiga yaqinligini ko'rsatadi. Ammo, bu madaniyatlarning o'zaro yaqinligi faqat

migratsiya jarayoni sifatida emas, balki tub, mahalliy negizda ham rivojlanganligini etirof qilish zarur. Hindistondagi Soan madaniyatini Markaziy Osiyo paleolit madaniyatiga taqqoslaganimizda qiziqarli xulosalarga ega bo‘lamiz. Eng avvalo mazkur yodgorliklarni katta maydonni egallaganligi, qo‘pol, yirik toshdan yasalgan mehnat qurollari va o‘sha davr hayvonot dunyosi qoldiqlaridagi o‘xshashliklarni kuzatish mumkin. Ikkala madaniyatning o‘zaro o‘xshashlikni belgilovchi yana bir omil "Osiyo tipi"dagi mehnat qurollarini yaratish an‘analarining mavjudligidir. Shu jihatdan Yevropa paleolit madaniyatidan farq qiladi. Bunga Hindiston va Markaziy Osiyoda paleolit davrida tabiiy sharoit, shuningdek, mehnat qurollarini yasash uchun tanlangan materiallarni o‘xshashligida deb qarash mumkin.

Hind arxeologlarining Markaziy Osiyo paleolit madaniyatiga qiziqishi katta. Buning muhim sabablaridan biri, Hindistonda o‘rta paleolit bir-muncha yaxshi tadqiq qilingan bo‘lsa-da, so‘nggi paleolit davri yodgorliklari hamon - topilmaganligidadir. Shu sababdan ham hind arxeologlari tomonidan Samarkand, Xo‘jamazgil, Kulbuloq, Shug‘non kabi so‘nggi paleolit makonlarini qunt bilan o‘rganish, katta mintaqada yashagan jamoalarning o‘zaro madaniy aloqalarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi izlanishlar bu masalalarga yangi mazmun kiritishi mumkin.

Markaziy Osiyo paleolitini o‘rganar ekanmiz, bizga qo‘shni bo‘lgan xorijiy sharq mamlakatlari yodgorliklarini taqqoslamasdan, tariximizning ilk jamoalari madaniyati va uning insoniyat moddiy-madaniyati tarixidagi o‘rni haqidagi fikr va xulosalarimiz to‘la bo‘lmaydi, albatta. Shu boisdan ham qo‘shni mintaqalarda olib borilayotgan tadqiqotlarni kuzatib borish ham muhimdir. Tojikistonda va uning Xovaling, Qorator tumani hamda Qizilqum sahrolaridan topilgan arxeologik manbalar ham jumlashdandir. Bundan tashqari Kavkaz, Oltoy va Uzoq Sharq hududlarida paleolit davri yodgorliklari qidirib o‘rganildi va yetarli manbalar to‘plandi.

Tayanch tushunchalar: Ibtidoiy jamoa tuzumi, yodgorlik, texnologiya, davrlashtirish, musiqa, "Osiyo tipi", topilma, ashel, material, moddiy meroslar, Soan manzilgohi, migratsiya, arxeologiya, levellua, diffuziya.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy davrlari va xususiyatlarini gapirib bering?*
2. *Markaziy Osiyoda paleolit davri yodgorliklari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?*
3. *Markaziy Osiyo va Hindiston paleolitini o‘xshashlik taraflari nimada?*
4. *Paleolit davri jamoalari turmushida o‘zgarishlar nima asosida sodir bo‘lgan deb o‘ylaysiz?*

1.2. Markaziy Osiyoda mezolit davri

***O'quv maqsadi:** Mezolit davri (o'rta tosh)ning o'ziga xos xususiyatlari, buyuk muzlikning chekinishi, hozirgi shakldagi flora va faunaning shakllanishi, o'q-yoyning kashf qilinishi, tosh qurollarining takomillashuvi, ibtidoiy rassomchilik, Markaziy Osiyoda Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida kichik daryo va soylarning ko'payishi, mezolit davrida odamlar mashg'ulotlari, yakka ovchilar rolining oshishi to'g'risida talabalarga atroflicha ma'lumot berish, davr haqida keng tushunchalar hosil qilish.*

Hozirgi Markaziy Osiyo hududida bundan 12-15 ming yil muqaddam ibtidoiy jamiyat tarixida yangi davr boshlandi. Insoniyat tarixining paleolitdan keyingi davri mezolit ("o'rta tosh") deb nomlanadi. So'nggi paleolitning oxirlarida muzliklar erib, Markaziy Osiyo tabiati va hayvonot dunyosi hozirgi ko'rinishda shakllana boshlagan. Mezolit Markaziy Osiyoda taxminan 13-10 ming yillar avval boshlanib, miloddan avvalgi 7-6 ming yilliklargacha davom etgan deb qabul qilingan. Mezolitda o'q-yoy kashf etiladi. Bu narsa endi nafaqat yirik hayvonlarni ovlash, balki mayda hayvonlarni ham ovlash imkoniyatini yaratadi. Bu davrda odamlar Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlarida hayot kechirishgan. Ularda diniy tasavvurlar keng tarqalgan. Shuningdek, ibtidoiy rassomchilik ham rivojlangan. Masalan, Qo'hitog' tog'ining Zarautsoy darasida ibtidoiy rassom tomonidan ustalik bilan chizilgan yovvoyi hayvonlar va ovchilarning ov manzarasi diqqatga sazovordir. Lekin bu davrda ham inson asosan tabiat ehsonlari hisobiga kun ko'rgan. Keyingi davrda (neolit)gina inson ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgan.

Oldin eslatib o'tilganidek mezolit davrida ibtidoiy urug' jamoalari o'q-yoyning kashf etilishi munosabati bilan butun e'tiborini ovga qaratdilar. Ov ularning asosiy yashash manbaiga aylandi. Nisbatan uzoq masofadan turib o'z o'ljasini nishonga olish imkoniyatiga ega bo'lgan ibtidoiy ovchilar endi ov hayvonining orqasidan ergashib, yangidan-yangi joylarni o'zlashtirib bordilar. Ov qilinadigan joylar mezolit davri jamoalarining o'z makonlarini tez-tez o'zgartirib turishga, ovchilikka qulay bo'lgan hududlarni o'zlashtirishga olib keldi. U davrida baliqchilik ham rivojlandi. Natijada urug' jamoalari yangi hududlarni keng miqyosda o'zlashtira boshladilar. Markaziy Osiyo hududi mezolit davrida aholi yashashi uchun juda qulay geografik hududga aylandi. Bu holat bevosita ulug' muzlik davrini tugashi natijasida tabiatning, ya'ni flora va faunaning keskin o'zgarishi bilan bog'liq edi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, kichik daryo va soylarning bo'ylari aholi joylashishi uchun juda qulay bo'lgan.

Markaziy Osiyoda mezolit davri bilan bog'liq bo'lgan o'nlab yodgorliklar topilgan. Markaziy Farg'ona hududida qadimshunos O'.Islomov va

uning hamkasblari 1970-1980 yillarda dala-qidiruv ishlarini olib borib, juda ko'p mezolit davri yodgorliklarini topishga muvaffaq bo'ldilar. Vodiya bo'ylab oqib o'tgan Obishir soyining quyoshga qaragan tomonida bir necha ungurlar bo'lib, ulardan Obishir-1 va Obishir-5 deb atalgan makonlarda mezolit davri jamoalarining izlari topilgan. Dala-qidiruv ishlari ayniqsa, markaziy Farg'onada samarali bo'lgan. Hozirgi kunda bu zaminda yuzdan ortiq mezolit davri yodgorliklari ochilgan. Ular asosan soy va ariqlarning qirg'oq yoqalarida joylashgan.

Mezolit davriga oid boshqa guruh yodgorliklar Toshkent shahri hududida, uning Sariqqamish mavzesida, qadimgi Bo'zsuv havzasida topib o'rganildi. Bo'zsuv soyining ikki irmog'i qo'shilgan joy, xalq orasida "Qo'shilish" deb nomlangan. Huddi ana shu qo'shilish do'ngligining jar kesmasida 1967 yili arxeolog va geologlar bir necha tosh qurollarini topdilar. Arxeolog O'.Islomov mazkur joyda qazishma ishlarini amalga oshirib, mezolit davriga oid jamoalar qarorgohi borligini aniqlagan.

O'zbekistonning Surxondaryo viloyati qadimda ham hozirgidek odamzod yashashi uchun qulay o'lka bo'lgan. Iqlimning subtropik xususiyati natijasida odamlar ovchilik xo'jaligi, ayniqsa, termachilikning yangi yo'nalishlarini rivojlantirish uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Aynan shunday tabiiy qulayliklar odamlarning diqqatini o'ziga tortgan. Keyingi yillarda bu viloyatning Ayritom, Kattaqo'rgon, Zaranchuq-tut, Dukanxona, Eski Termiz, Podaxona, Oqtosh kabi manzilgohlarida arxeologlar tomonidan topilgan mezolit davriga oid tosh qurollari fikrimizni isbotlaydi. Shuni alohida qayd etish kerakki, 1930 yillarning oxirlarida Qo'hitog'ning Machay soyi bo'yida joylashgan qoya ostidagi g'orda arxeolog G.V.Parfenov qazishmalar o'tkazib, Machay g'ori tosh davri odamlarining makoni ekanligini aniqlagan edi. Arxeolog O'.Islomov 1970-1971 yillarda Machayda qazishma ishlarini yangidan tikladi va mezolit davrining so'nggi bosqichlariga oid bo'lgan moddiy madaniyat qoldiqlarini aniqladi. Tadqiqotchilar bu yerda odamlar juda uzoq yashaganliklaridan guvohlik beruvchi madaniy qatlamlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. U yerda hayvon suyaklarining parchalari, turli xil tosh va suyakdan ishlangan qurollar, kul qatlami va odam skeletlari topilgan. Machayliklarning ov hayvonlari asosan tog' arxari va jayronlar bo'lgan. Topilgan mehnat qurollarining aksariyati ovchilik hayoti va hayvon terisini ishlash bilan bog'liq bo'lganligi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bular har xil shaklda tosh qirg'ichlar, pichoqlar, suyak bigiz va ignalar, terini pardozlash qurollari bo'lgan. Machayning ko'p sonli hayvon suyaklari ichida yirik hayvonlar, ya'ni xonakilashtirilgan sigir, ko'y, echkilarning ham suyaklari topilgan. Machay g'oridan topilgan manbalarning tahlili mazkur yodgor-

likni mezolit davri eng so'nggi bosqichi va ilk neolit davriga tegishli ekanligini ko'rsatmoqda. Xuddi shu davrda O'rta Sharqda neolit davri madaniyatlari gullamoqda edi. Ibtidoiy jamoa odamlari ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan tanish edilar, hatto bu davrda janubiy Turkmanistonda neolit davrining Joytun madaniyati mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Arxeologlarning fikricha, Joytunliklar Markaziy Osiyoda dastlabki dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan urug' jamoalari hisoblanishgan. Ehtimol, chorvachilikning erta poydo bo'lishi uchun tabiiy qulayliklarga ega bo'lgan Surxondaryo viloyati aynan Joytunliklar ta'sirida yovvoyi hayvonlarni ko'lga o'rgatgan bo'lishlari mumkin. Har qalay Machayda uy hayvonlarining paydo bo'lishi - bu so'nggi mezolit davri odamlarining xo'jalik sohasidagi buyuk inqilobiy o'zgarish edi.

O'zbekiston hududi o'rganilgan mezolit davri yodgorliklarining yoshi bir xil emas, albatta. Olimlar topilgan tosh qurollariga qarab ularni yosh jihatdan uch guruhga bo'lishgan. Eng qadimiysi Qo'shilish yodgorligi bo'lib, uning mutloq yil sanasi miloddan avvalgi 11-10 ming yilliklar bilan belgilangan. Ikkinchi guruh yodgorliklari fan olamiga Obishir madaniyati nomi bilan kiritildi. Ularning yoshi miloddan avvalgi 9-8 ming yilliklar bilan belgilanadi. Uchinchi guruh yodgorliklari Machay madaniyati deb yuritiladi. U miloddan avvalgi 7-6 ming yilliklarga tegishlidir.

Mezolit davri qurollari orasida o'q-yoy (kamon va paykonlar), tayoq uchiga o'tkir uchli nayzalar o'rnatilgan nayza qurollari insonga katta foyda bergan. O'q-yoydan foydalanish insoniyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ovchilikni insonlarning hayot manbaiga aylantirdi, ovdan keladigan o'lja va zahiralar ko'payib borishiga imkoniyat yaratdi. O'q-yoy odamning yolg'iz o'zi hayvonlarni ovlash va shu asosda jamoadan ajralib hayot kechirishiga yo'l ochib berdi. Odamlar o'simliklarning ildizlarini iste'mol qilishdan boshhoqlarni, mazali mevalarni iste'mol qilishga o'tganlar. Markaziy Farg'onadagi ko'llarning sohillarida yashagan ilk mezolit davriga mansub qabilalar ovchilik bilan birga baliqchilik bilan ham shug'ullanganliklari ma'lum.

Mezolit davri jamoalarida diniy tasavvurlar ma'lum bir shaklga, ya'ni hayotiy normalarga aylanib borganliklarini ko'rish mumkin. Ashyoviy dalillar mezolit davriga oid mozorlar, inson qo'li bilan chizilgan qoyatosh suratlari fikrimizni isbotlaydi. Masalan, Qayla g'ori yaqinida joylashgan ikkita mozor o'rganilgan. Aniqlanishicha, mozorda skeletlar chalqanchasiga yotgan bo'lib, oyoqlari biroz bukilgan. Ko'mish vaqtida jasad ustiga qizil rang sepilgan. Shunisi qiziqarlilik, ularning yonidan dengiz chig'anoqlaridan qilingan taqinchoqlar topgan. Inson bosh suyagi ustida esa mayda tosh munchoqlar tizilib turibdi. Ehtimol, o'likning bosh kiyimi

munchoqlar bilan bezatilgan bo'lsa kerak. O'rganilgan o'ndan ortiq mozor qoldiqlarida ham shu holatni kuzatish mumkin.

Mezolit davri jamoalari tasavvurida "narigi" dunyoga ishonishda olovga talpinish alohida ahamiyat kasb etgan. Qayla mozorida topilgan o'likka qizil rangini sepish odati bejiz bo'lmasa kerak.

Mezolit davrida ibtidoiy rassomlar tabiatning u yoki bu kunlariga bo'lgan munosabatlarini, dunyoqarashlarini - diniymi yoki dunyoviymi, bundan qati nazar, qoyalarga chizgan rangli suratlari orqali ifodalab berganlar. Surxondaryoning Zarautsoy darasi qoyalariga ishlangan suratlar bunga misol bo'la oladi. Suratlarning bir qismi qizil rang bilan ishlangan. Qoya suratlari orasida «yovvoyi hayvonlarni ov qilish» deb nomlangan manzara diqqatga sazovordir. Bu manzarada bir poda yirik shohli hayvonlar orqasidan ovchilarning o'z itlari bilan quvib ketayotgani tasvirlangan. Ba'zi bir ovchilar ustiga chaylasimon yopinchiq yopib olgan. Ular o'q-yoy bilan, palaxmon toshlari bilan qurollangan. Boshqa bir qoyada ikki guruh ovchilarning yovvoyi buqani o'rab olish manzarasi chizilgan. Olimlar bu manzarani mezolit davrining so'nggi bosqichi va ilk neolit davriga oid ekanligini isbotlaganlar. Zarautsoy qoya suratlari mezolit davri rassomlarining fikr doirasini, diniy tasavvurlarini, umuman, o'sha davr mafkurasi darajasini tasviriy san'atda qanchalar aks ettira olganliklari haqida fikr yuritishga asos bo'la oladi.

Xulosa qidib aytgandi, mezolit davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlari insonlar yashashi uchun tabiiy qulayliklarga ega bo'lganligini ko'rdik. Ulug' muzliklardan so'ng hosil bo'lgan katta va kichik ko'llar, ular atrofidagi qalin o'rmonlar va chakalakzorlar, tog' yon bag'rlarida o'sgan yovvoyi boshoqli o'simliklar, dasht zonalarini qoplagan maysazorlar, yovvoyi hayvonlarning gala-gala bo'lib yurishlari, baliqchilikning rivojlanishi bunga keng imkoniyat bergan.

Tayanch tushunchalar: Mezolit, Obishir, Qo'shilish, Zarautsoy, qoyatosh suratlar, yakka ovchilik, tasviriy san'at.

Savol va topshiriqlar:

1. *Mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlarini gapirib bering?*
2. *Markaziy Osiyoda mezolit davri yodgorliklari to'g'risida nimalarni bilasiz?*
3. *Mezolit davrining buyuk kashfiyoti va uning insonlar hayotida tutgan o'rni haqida gapirib bering.*

1.3. Markaziy Osiyoda neolit davri

O'quv maqsadi: Markaziy Osiyoda neolit, yangi tosh asrining boshlanishi, insoniyatning ovchilik va termachilikdan dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi, yashash sharoitlaridan farq qiluvchi uchta madaniy va tarixiy hududning shakllanishi, o'troq hayotga o'tish, kulolchilik, to'qimachilik, tasviriy san'atning rivojlanishi, diniy marosimlar haqida talabalarga ma'lumot berish, ko'nikmalalar hosil qilish, davr haqida talabalarga qiyosiy-tahliliy tushunchalarni singdirish.

Neolit yunonchada “neo” - yangi, “lit”- tosh, yani, “yangi tosh” davri degan ma'noni anglatadi. Markaziy Osiyo va Yevropada neolit davriga oid topilmalarning ko'pchiligi miloddan avvalgi 6-3 ming yilliklar bilan belgilanadi. Demak, tosh davrining bu bosqichi taxminan 3 minglar yil davom etgan. Neolit davrida dehqonchilik va chorvachilik yuzaga kelgan. Poleolit va mezolit davriga xos bo'lgan iste'mol xo'jaligi, ya'ni tabiatdagi tayyor mahsulotlarni o'zlashtirishga asoslangan xo'jalik o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Va buning natijasida insoniyat tarixida ilk bor ishlab chiqaruvchi xo'jalikka asos solingan. Bu voqea fan olamida “neolit inqilobi” atamasi bilan mashhur bo'lgan. Inson o'z ehtiyojlarini qondirishning yangi yo'li – yaratuvchilik, moddiy ne'matlarni o'z qo'li bilan ishlab chiqaruvchiga aylandi. Oqibatda yashash, turmush tarzida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, bu bosqich davomida ona urug'doshligi tizimi – matriarxat rivojlanadi. Yana shuni aytish kerakki, odamlar loydan idish yasash va uni pishirishni o'rganib oldilar. Bu vaqtda mezolit davrida kashf qilingan bolta keng qo'llanila boshlandi. Endi bolta xo'jalikda asosiy qurolga aylandi va odamlar uni silliqlash va teshish yo'li bilan doimiy rivojlantirib bordilar.

Markaziy Osiyo tarixida neolit davrining yuqori chegarasi mil. avv. VI, quyi chegarasi IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bunda Markaziy Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik, ovchilik, dehqonchilik va ayni vaqtda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Shu bilan birgalikda mezolit davridagiga nisbatan mehnat qurollari takomillashib borgan. Bu davrda jamiyat taraqqiyo-tining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan kashfiyotlar neolit davrida amalga oshirildi. Bu davrga kelib tosh qurollarni yasash takomillashdi, ya'ni tosh boltalarga toshdan unga sop o'rnatildi va pona bilan mustahkamlandi, o'roq, arra, chopqich kabi nozik mehnat qurollari yaratildi, sinchkori chayla va kulba, loydan turar joylar barpo etilib, ilk bora qayiqalar yasaldi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, neolitning eng buyuk kashfiyoti ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar endilikda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshladilar. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik asoslari Markaziy Osiyoning janubida, hozirgi Turkmaniston hududlarida shakllangan. Kopetdog' etaklarida Joytun madaniyati nomi bilan mashhur bo'lgan ilk dehqonchilik manzilgohi arxeologlar tomonidan topib o'rganilgan. O'zaro qarindosh urug'chilik munosabatlariga asoslangan jamoaviy tuzim, birgalikdagi mehnat va shu asosda shakllangan turmush tarzi Joytunliklarning o'ziga xos madaniyatini yuzaga keltirgan. Arxeologlar tuproqdan yasalgan hayvonlarning kichik haykalchalarni topib o'rganishgan. Tadqiqotlar olib borgan arxeologik olim V.M.Masson: "Bu topilgan buyumlar fetishizmning ilk ko'rinishidan biridir " deb ta'kidlaydi. Shunisi ahamiyatliki, topilgan buyumlarning mutloq tko'pchiligi mil. avvalgi 6 ming yillikka tegishli bo'lgan.

Joytun madaniyati Janubiy Turkmanistonda, Ashxabot shahridan 25 km shimoldagi Joytun manzilgohidan topilgan bo'lib, bu madaniyat qoldiqlari nafaqat Turkmaniston, balki butun Markaziy Osiyoda mashhurdir. Joytun qishlog'i bir necha uylardan tashkil topgan bo'lib, uylarning maydoni 12-14 kv. m.dan iborat. Uy devorlariga somon aralashtirilgan, uylar to'g'ri to'rtburchak bo'lib, bir xonali va har bir xonada alohida o'choq izlari topilgan. Uylar yonida esa omborxona, saroy va xo'jalik o'ralari ham bor. Tadqiqotchilar fikriga qaraganda Joytunda 30ga yaqin uy bo'lib, unda 130-150 kishi yashagan, 5-6 kishilik oila yashagan uylarda ona urug'i hukmron bo'lgan.

Uylardan ayollarning loy va toshdan yasalgan haykalchalari, shuningdek har xil taqinchoq va bezaklar topilgan. Joytun xarobalaridan bug'doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, qurol sifatida ishlatiladigan o'tkir uchli toshlar, teshgich parchalar, qirg'ichlar, kamon o'qlarining uchlari — naykonlar topilgan.

Joytun makonidan qo'lda ishlangan sopol idishlar namunalari ham topilgan bo'lib, ular Markaziy Osiyodagi dastlabki sopol namunalaridir. Joytun qishlog'i aholisi mil. avv. VI - V ming yilliklarda yashab asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Joytunda Markaziy Osiyodagi dastlabki dehqonchilik madaniyati rivojlanadi va bu makon hozircha mintaqadagi dastlabki dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi. Joytunliklar sun'iy ariq va kanallar qazib sug'orma dehqonchilikka asos solganlar. Umuuman olganda, Kopetdog' bilan Qoraqum oralig'idagi hududlardan ko'plab neolit davri makonlari ochilgan. Bu makonlardagi xo'jalik ishlab chiqarishi va madaniyati bir-biriga juda o'xshashligi sababli ularni fanda Joytun madaniyati (dastlabki topilgan joy nomi bilan) deb atash qabul qilingan.

Bu davrga kelib hozirgi Orol dengizi bo'ylarida istiqomat qiluvchi va turmush tarzi boshqa qabilalarnikiga o'xshamaydigan qabilalar kun kechirgan. Ular suvga yaqin bo'lganliklari uchun ovchilik va baliqchilik bilan shug'illanganlar. Keyinroq esa chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Bu qabilalar yaratgan o'ziga xos madaniyat - "Kaltaminor" madaniyati nomini olgan.

Umumun, bu davrda qurol yaroqlar yasash texnikasi ancha takomillashdi. Buni biz Kaltaminordan topilgan qurollardan ko'rishimiz mumkin. Ular qulayrok, o'tkirroq va yengilroq bo'lgan. Bu kabi qurollar asosan ohaktoshdan yasalgan. Ohaktosh sof holatda ozgina mo'rtroq bo'lgani uchun uni istagan shaklga solish mumkin bo'lgan. Ohaktoshlarni Sul-tonuvays tog'idan olish mumkin bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, bu tog' haqida o'sha davrdagi odamlari yetarli bilishlari ma'lum bo'lgan. Chunki bu tog'dan neolit davriga oid ustaxona va tosh yorish xonalarini topib o'rganilgan. Kaltaminor madaniyatining eng nodir va muhim yodgorligi Jonbos-4 manzilgohi bo'lib, u yerda maydoni 300 m. kv. bo'lgan chayla qoldig'i topilgan. Chaylada kattagina urug' jamoasi yashagan bo'lib, 100-120 ta kishi yashaganligi ma'lum bo'ldi. Kuygan qamish va xoda qoldiqlarining o'rganish asosida olimlar chayla ustunli, oval shaklida bo'lgan bo'lib, usti qamish bilan qoplangan degan xulosaga kelganlar. Chaylada bitta katta va 20 dan ortiq kichik o'choqlarning o'rni qayd etilgan. O'choqlar atrofida baliq (cho'rtan, nog'ara), hayvon (to'ngiz, jayron, Buxoro kiyigi va hokazo), qush suyaklari va tuxum po'choqlari hamda bir qancha mayda toshqurollar topilgan. Shuningdek, yumoloq sopol idishlar ham topilgan bo'lib, ularning sirtiga chizmalar chizilgan. Shunisi qiziqki, shunga o'xshash buyumlar Kaltaminor manzilgohidan ham topilgan. Bu holat manzilgohlar o'rtasida o'zaro aloqalar bo'lganligidan dalolat beradi.

Topilgan buyumlarning tahlili mazkur manzilgohlar miloddan avvalgi 7-3 ming yilliklarga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Mazkur manzilgoh hozirgi Qoraqolpog'iston Respublikasi To'rtko'l shahridan 18 km. shimoliy-sharqda joylashgan Kaltaminor ko'li sharafiga Kaltaminor madaniyati deb nomlangan. Arxeologlar Kaltaminor madaniyatini taraqqiyot dinamikasiga qarab 3 davrga ajratishadi:

1. Kaltaminorning ilk davri eramizdan oldingi 7-5 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Bu davrga oid yodgorliklar Zarafshonning quyi oqimi, Qizilqum sahrosi va janubiy-sharqiy Ustyurt hududidan topilgan.

2. Kaltaminor madaniyatining o'rta davri eramizdan oldingi 5-4 ming yillikka oid bo'lib, bu davrga oid yodgorliklar Qizilqum va unga yaqin hududlardan topilgan.

3. Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichi eramizdan oldingi

4-3 ming yilliklarga tegishli bo'lib, hozirgi Qozog'iston hududlaridan topilgan makonlar kiradi. Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makonidan ham topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol idish namunalari Jonbosqal'a sopollariga juda o'xshashdir.

Kaltaminor madaniyatiga xos bo'lgan yana bir manzilgoh Buxoro viloyatining Qorako'l markazidan 40 km. uzoqlikda joylashgan bo'lib, u Darvozaqir nomi bilan ataladi. Darvozaqir-1 makoni 3 ta madaniy qatlamdan iborat. Ustki qatlam to'zib ketgan bo'lsa ham, ammo boy madaniy qoldiqlarga ega. Bu yerda silliqlangan boltalar, qirg'ichlar, parmalar, o'roq randalar, teshgichlar va boshqa ashyolar topildi. Ikkinchi qatlamdagi madaniy qoldiqlar birinchi va uchinchi qatlamlardagilarga qaraganda kamroq uchraydi. Birinchi va ikkinchi katlamlarda chayla qoldiqlari uchramaydi. Uchinchi madaniy qatlam eng boy va eng qalin bo'lib, taqir yerda joylashgan. Bunda o'chok va chayla qoldiklari chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar, silliqlangan boltalar, to'lkinsimon naqshlar bilan bezatilgan sopol buyumlar, hayvonlarning suyaklari bor. Shunisi qiziqki, Kaltaminorliklarning sopol buyumlarida ham shunday naqshlar bor. Bu katlamlar rangining har xilligi bilan bir-biridan farq qiladi va shuningdek ularni qalin qum qatlami bir-biridan ajratib turadi. Darvozaqir-1 makonida 81 m (7x11) li to'g'riburchak shaklidagi chayla koldigi topildi. Chayla sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan. Uyning o'rtasida ustunlar uchun ikkita chuqurcha kovlangan. Chaylaning chor burchagida ham huddi shunday chuqurchalar borligi aniqlangan. Chaylaning devorlaridan ikki qator qilib kovlangan chuqurchalar (tashqi va ichki tomonida) qolgan bo'lib, bu chuqurchalarga devor sinchlari o'rnatilgan so'ng tomi yopilgan. Demak, chayla to'rt devori sinch devorli kapa shaklida bo'lib, tomi qamish bilan yopilgan. Chayla ichiga sharq tomondan kirilgan. Bu narsa diniy urflarga oid bo'lsa kerak. O'choqlar chayladan tashqarida joylashgan. Chaylalani o'rganish oila-urug' munosabatlari ishlab chiqarish hamda turmush darajasiga taaluqli ba'zi bir ma'lumotlar berish mumkin. Bu makon aholisi sonini Jonbos-4 aholisi bilan solishtirsak, katga farqni ko'rishimiz mumkin. Jonbos-4 da S.P.Tolstovning fikricha, 100-125 kishi yashagan bo'lib, Darvozaqir - 1da esa bor yo'g'i 30-35 kishini tashkil qilgan. Bu hol bunday chaylalani ona urug'iga qarashli bir necha juft oilalar yashagan deyishga asos bo'la oladi.

Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong'isho'r, Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar va sopol buyumlar hamda boshqa ashyolarni o'rganish, tahlil etish, Yaqin Sharq, Qozog'iston, Ural va boshqa joylardan topilgan neolit davri ashyolari bilan qiyoslash natijasida tadqiqotchilar yuqorida eslatilgan makonlar Kaltaminor madaniyatiga mansub bo'lib, mil. avv. IV-III ming yilliklarga oid degan xulosaga keldilar. Bu makonlarda yashagan neolit

davri odamlari termachilik va jayron, yovvoyi cho'chqa, bug'u va boshqa hayvonlar hamda baliq ovlab kun kechirishgan.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoning sharqiy hududlaridan, Hisor va Pomir tog'laridan neolit davriga mansub ko'plab yodgorliklar aniqlandi va o'rganildi. Asosan tog'oldi va tog'liklarga xos bo'lgan Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar 200 dan ziyod bo'lib, Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon, Darai Sho'r, Gaziylontepa qabilar shular jumlasidandir. Bu o'ziga xos madaniyat fanda Hisor madaniyati degan nom oldi. Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar asosan mil. avv. V-III ming yilliklarga oiddir. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, kisman termachilik bilan shug'ullanganlar. Hisor makonlaridan topilgan turli-tuman buyumlar tahlili ushbu jarayonlardan dalolat beradi. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Markaziy Farg'ona hududlaridan neolit davriga oid ko'plab makonlar topilgan. Bu manzilgohlar fanga Markaziy Osiyoning to'rtinchi neolit davri madaniyati deb kiritilgan.

Demak, Markaziy Osiyoning barcha hududlarida, shimolda Ustyurt, Markaziy va Janubiy Qozog'iston, Qizilqum va Qorakum, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysidan topilgan ko'plab neolit davri makonlarining ochilishi odamlar bu davrga kelib Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlariga yoyilib yashaganliklarini ko'rsatadi.

Tayanch tushunchalar: Neolit, neolit inqilobi, matriarxat, Sulton-uveys tog'i, Jonbos, Kaltaminor, Darvozaqir, Joytun, Hisor, kulolchilik.

Savol va topshiriqlar:

1. Neolit davri haqida nimalarni bilasiz ?
2. Neolit davri mezolit davridan nimasi bilan farqlanadi ?
3. Neolit davri aholisi nima bilan shug'ullanganlar?
4. Neolit davrida qanday ibtidoiy din shakllari mavjud bo'lgan?



1.4. Markaziy Osiyoda eneolit davri

O'quv maqsadi: Markaziy Osiyoda eneolit va bronza davri yodgorliklari, ilk shaharsozlik, Markaziy Osiyoda eneolit davriga o'tishning boshlanishi, eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlari, eneolit davri yodgorliklari xususida tushunchalar berish va ko'nikmalar hosil qilish.

Miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarga kelib Markaziy Osiyo sharoitida bir necha yuz ming yillar davom etgan kishilik tarixining tosh davri tugadi. Uning o'rnini eneolit egalladi. Ibtidoiy jamoalar mehnat qurollarini yasashda dastlab misdan foydalanishdi. Shuning uchun ham bu davr eneolit mis-tosh davri deb ataladi. Eneolit yer sharining barcha mintaqalarida bir vaqtda boshlanmay, balki har bir hududning tabiiy-ekologik imkoniyatlariga mos ravishda turli davrlarda boshlangan. Masalan, Osiyo va Afrikaning qadimgi dehqonchilik mintaqalarida ibtidoiy jamoalar metall bilan avvalroq, boshqa mintaqalarda esa ancha keyinroq tanishishgan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, mis eritib olish san'ati – metallurgiya mil. avv. VIII-VII va VII-VI ming yilliklar atrofida Yaqin Sharqda vujudga kelgan. Mis Mesopatamiyaning tog'li hududlarida mil. avv. IV minginchi yilliklardan ishlatila boshlanganligi fanda ma'lum.

Insonlar tomonidan metall qazib olish va uni o'zlashtirishni kashf qilinishi kishilik tarixidagi buyuk voqealardandir. Metall jahonning deyarli barcha qit'alarida mavjud. Insoniyat tarixida odam avvalam bor qaysi metall bilan dastlab tanish bo'lgan ekanligi masalasi olimlar orasida munozara bo'lib kelindi. Ularning ayrimlari. avval mis kashf qilingan desalar, boshqalar esa qalay ekanligi haqida fikr bildirishadilar. Aslida, mis ruda tarkibida hamda alohida sof holda uchrashi mumkin. Qalay esa tabiatda ruda tarkibida uchraydi. Bularning qaysi biri dastlab kashf qilinganligi masalasi hozircha jumboq. Sof mis ochiq tabiatda uchraydi va undan qadimda bolg'alash yo'li bilan buyum yasash mumkin edi. To'g'ri, ayrim holatlarda mis boshqa ruda va metall tarkibida yashirin ravishda ham uchrashi mumkin. Mis bo'laklari sof holda uchratilsa-da, ammo uni mis rudasidan ajratib olish ancha murakkab edi. Qadimgi davrlarda kishilar dastlab mis eritmasidan foydalangan bo'lsa kerak degan taxminlar ham xaqiqatga yaqinroq ko'rinadi. Kishilar ko'p holatlarda gulxan - o'choq atroflaridagi ayrim toshlarning yumshoq holatga aylanganliklarini, toshni toshga urganda uning sinmasdan pachoqlanganligini kuzatgan, albatta. Xullas, kishilar ayrim tosh (misli tosh) jinslarining issiq harorat tufayli yumshashi yoki erishini payqab olishganlar. Mis rudasi qattiq jism bo'lib, undan qurilish materiali hamda o'choqlar qurish sifatida ham foydalanganlar. Demak, mis rudasi oddiy o'choq haroratida yumshashi, erishi kabi holatlar kuzatilgan.

Markaziy Osiyoda metall miloddan avvalgi IV ming yillikdan ma'lum. O'ltanining shimolida esa bu vaqtda neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati jamoalari gullamoqda edi. arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Kaltaminor madaniyatini yaratgan ajdodlarimiz metall bilan birinchi bor miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlarida tanishganlar.

Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termalab ovqat topishdan yovvoyi o'simliklarni ekish va o'tkazish yo'li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo'jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi rivojlanishi ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishiga va shu asosda ayirboshlashni vujudga keltirishiga asosiy omil bo'ldi. Markaziy Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liqdir:

1. Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda omoch (xaydama) dehqonchiligining ustunlik qilishi;

2. Toshidan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;

3. Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan ko'p xonali va xashamatli uylarning qurila boshlashi;

4. Kulolchilikda muhim texnika yutug'i - xumdonlarning ishlatilishi;

5. O'troq xo'jalikning rivojlanishi, yirik aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi (qishloqlarning) jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g'ishtning paydo bo'lishi;

6. Hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumiga (matriarxatga) xos bo'lgan turli haykalchalarining yasala boshlashi;

7. Rangdor, har xil tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davrida Markaziy Osiyo aholisining madaniyati yuksaladi. Lekin, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi. Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o'tgach, madaniy, xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Avvalgidek Turkmanistonning janubi-g'arbidagi qulay geografik sharoitda yangi xo'jalik turlari, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlanadi. Quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar bilan madaniy o'simliklar o'stirishga o'tmagan edilar. Markaziy Osiyoning sharqiy qismidagi tog'li hududlar aholisi xo'jaligida ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida Markaziy Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida notekisliklar saqlanib qolgan.

Dasht va tog' hududlaridan topilgan moddiy topilmalarni o'rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo'shimcha xo'jaliklar - ovchilik va baliqchilik

asosiy manba bo'lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga dasht odamlari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlandi deyish mumkin. Lekin, neolit davri an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko'llar atrofida yashagan.

Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar Janubiy Turkmanistondagi Anov va Nomozgohtepa manzilgohlari hisoblanadi. Bu yerdagi uy-joylar xom g'ishtdan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar tosh qurollariga nisbatan kamchilikni tashkil etgan. Shuningdek, topilgan guldor sopol buyumlar kulolchilikning ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Sirti qoraga bo'yalgan, geometrik chiziqlar, hayvon (qush) rasmlari bilan bezatilgan bu topilmalar mil. avv. IV ming yillikka oiddir.

O'zbekiston hududlarida eneolit davri yodgorliklari hozircha yaxshi o'rganilmagan. Mil. avv. IV–III ming yillik boshlarida Amudaryo va Zarafshon daryolarining quyi oqimlarida Kaltaminor madaniyati tosh qurollari, sopol idishlari va uy-joylari keng tarqalgan. Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqida joylashgan dashtlarda va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo'jaliklari rivojlanganligini ko'ramiz. Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari va Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari ham eneolit davriga oiddir. Bu yodgorliklardan Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichiga oid topilmalarga o'xshash sopol idishlar bo'laklari va chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar, munchoqlar topilgan. Eneolit davriga kelib, insonlar mezolit davrida kashf etilgan ro'zg'or buyumlarini, qurollarni, uylarni qurish uslublarini yanada takomillashtirdilar. Insonlar dehqonchilik, chorvachilik, zargarlik bilan mashg'ul bo'lishgan. Mazkur manzilgohlarning "metallurglari" metallni dastlab yer yuziga chiqib yotgan, keyinroq yer osti konlaridan qazib olingan rudalardan foydalanishni bilishgan.

Arxeologik topilmalar orasida nafaqat mis, balki qalay, qo'rg'oshin hatto oltindan yasalgan buyular ham uchraydi. Demak, mis eneolit davrida mavjud bo'lgan yagona metall emas. Mis, qalay va qo'rg'oshinning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo'jaligida ro'y bergan buyuk madaniy xo'jalik ixtiroi edi.

Markaziy Osiyo hududlarida eneolit davriga oid ko'plab manzilgohlar aniqlanganligini ta'kidlab o'tgan edik. Hozirgi Turkmaniston hududlarida miloddan avvalgi V ming yillikning oxiridan to III ming yillikning o'rtalarigacha qadimgi dehqon jamoalarining Nomozgoh (Nomozgox I, II, III) madaniyati shakllangan. Zarafshon daryosining yuqori havzasida joylashgan va fanda "Sarazm madaniyati" nomi bilan mashhur bo'lgan manzilgohda ham aynan shu dehqonchilik an'anasiga mos keladigan xo'jalik ekanligi tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyo arxeologiya fani tarixida eneolit, bronza va ilk temir davri manzilgohlarini birinchi bor mashhur olim G.Shmidt tadqiq etishga kirishdi va Janubiy Turkmanistonning Anov (Anov I – IV) manzilgohini davrlashtirishni taklif etdi. Ana shu davrlashtirish asosida tadqiqotchilar mazkur manzilgohda 50 yil davomida ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. G.Shmidtning mazkur uslubi Nomozgohtepa manzilgohini umumiy bo'lgan, ammo bir biridan farq qiluvchi 6ta izchil madaniy - xronologik bosqichlarga bo'linishiga asos bo'ldi. Natijada manzilgoh Nomozgoh I–VI deb yuritila boshlandi. Nomozgohtepa manzilgohining barcha bosqichlarida turarjoy qurilishida xom g'ishtdan foydalanishgan va rangli naqsh berilgan. Kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishi, mis va toshdan mehnat va ishlab chiqarish qurollari yasash, sug'orma dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xo'jalikning mavjudligi mazkur madaniyatga xos xususiyatlardir.

Mazkur yodgorliklar asosan baland tepalarda joylashgan bo'lib, ular dehqon jamoalarining ko'p asrlik faoliyatidan guvohlik beradi. Bu tepaliklar Nomozgoh I davridan boshlab tog' daryolarining o'rta oqimida yuzaga kelgan. Nomozgoh II davridan boshlab esa eneolit qishloqlarida bir vaqtning o'zida bir xonali turar joylardan ko'p xonali turar joylarga o'ta boshlagan. Qishloqlar atrofida mudofaa devorlari paydo bo'lgan. Bu devorlar ko'p burchakli bo'lib, har burchagida minoralar qad rostlab turgan.

Nomozgoh III davrida (eneolitning so'nggi bosqichi) turar joylar, asosan ko'p xonali xonadonlardan iborat bo'lib, oshxonalar o'choq, yotoqxonalar esa sandallar bilan ta'minlangan. Hujralarida oziq-ovqatlar saqlangan. Har bir turar joy majmuasi o'zaro devor bilan ajratilgan bo'lib, ular tor yo'laklar va keng ko'chalar bo'ylab qurilgan. Turar joy majmualari o'rtasida hovlilar ham bo'lgan. Ko'p xonali uylar odatda yirik mahallalarni tashkil etgan, mahallalarni esa ko'chalar ajratib turgan. Xonadonlarning markaziy qismidagi xonalarning birida dumaloq shaklda mehrob kurilgan bo'lib, u muqaddas olov uchun mo'ljallangan.

Xo'jalik turlarining rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik ham sertarmoq sohaga aylana borgan. Zero, hunarmandlar - to'qimachilik, temirchilik, degrizlik, misgarlik, zargarlik, kulolchilik, tosh yo'nish, suyakka ishlov berish, imorat solish va hokazo ishlar bilan band bo'lishgan.


Eneolit davri yodgorliklari Zarafshon vodiysida ham topilgan. Bu 90 gektar maydonni egallaydigan Sarazm manzilgohidir. Bu yerdagi xonadonlar guvala va xom g'ishtdan ishlangan bo'lib, bir va ko'p xonali qilib qurilgan. Ularda ham o'choq va mehrobli xonalar bo'lgan. Aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu yerda kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik ham rivoj topgan. Sarazm madaniyati xronologik jihatidan miloddan avvalgi V-III ming yilliklarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat qurollarini yaratishda kishilar uzoq vaqt davomida sifatli, zarur tosh jismlaridan, ko‘p holatlarda esa suyak va yog‘ochlardan foydalanganlar. Keyinchalik bir necha ming yillik turmush tajribalariga tayanib dastlabki metallni va undan foydalanishni kashf qildilar. Dastlab kishilar misni, keyinchalik esa qalay bilan mis eritmasi tarkibida jezni (bronza) kashf qilishdilar. Bu kashfiyot davrlari tarixan eneolit (mis-tosh) va bronza asrlari nomi bilan fanga kiritildi. Odamlar mis va jezdan turli ro‘zg‘or buyumlari, xususan, igna, juvoldiz, har xil ro‘zg‘or buyumlari, shuningdek, o‘z davriga xos xilma-xil bezaklar ishlab chiqishni o‘rgandilar. Metallning eng muhim afzalligi, avvalambor, ish unumdorligini oshirishda bo‘lsa, so‘ngra undan bolg‘alash yo‘li bilan xohlagan shaklda buyumlar yasash, sinib qolgudek bo‘lsa, uni qaytadan qizdirish orqali yamash kabi xususiyatlardadir. So‘ngra metallni turli qoliplarga qo‘yish yo‘li bilan qurollar va bezaklar yasash imkoniyati vujudga keldi. Bu esa kishilik taraqqiyotini yanada jadal rivoshlanishini, “varvarlik” holatidan chiqib “sivilizatsiya”lashuviga yo‘l ochib berdi.

Tayanch tushunchalar: Eneolit, Sarazm, Lavlakon, Beshbuloq, Anov, Nomozgohtepa, metallurgiya, xumdon, sug‘orma dehqonchilik, ko‘p xonali uylar, misgarlik, degrezlik, kulba, xilxona, terrakota.

Savol va topshiriqlar:

1. *Eneolit davrida yashagan qabilalar mashg‘ulotlari haqida gapirib bering.*
2. *Insonlar metalldan qanday foydalanishgan?*
3. *Eneolit davri madaniyati deganda nimani tushunasiz?*



1.5. Markaziy Osiyoda bronza davri va ilk shaharsozlik

O'quv maqsadi: Markaziy Osiyoda bronza davrining boshlanishi, shahar tipidagi aholi punktlarini tashkil topishini ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, dehqonchilikning keng yoyilishi, dastlabki mehnat taqsimoti, ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi, urug' jamoasidan qo'shni jamoasiga o'tishning boshlanishi to'g'risida talabalarga atroflicha ma'lumot berish, sivilizatsiya jarayonlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish.

Markaziy Osiyoda bronza asri o'ziga xos alohida bir davrni tashkil qilib, aholining deyarli bir yarim ming yillik turmush tarzini o'zida ifoda etadi (miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalaridan to I ming yillikning boshlariga qadar). Bronza asri tosh asriga nisbatan juda qisqa davrni o'z ichiga oladi. Birinchi marta bronza mil. avv. III minginchi yillikda Old Osiyo va Hindistonda kashf etilgan. Arxeolog olimlarimizning Markaziy Osiyo hududida olib borgan ilmiy ishlari shuni ko'rsatdiki, bronza davrida ovchilik va termachilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda o'zining dastlabki rolini asta-sekin yo'qotib borgan. Aholining asosiy yashash manbai dehqonchilik va chorvachilik bo'lib qoldi va bu esa metallga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Qadimgi "metallurglar" ma'lum davrdan so'ng qalayni misga qorishtirib bronza (jez) olishni kashf etganlar. Bronza egiluvchan metall bo'lsada, ammo misga nisbatan ancha mustahkam metall. Bronzadan keskir, ya'ni o'tkir tig' beradigan qurollar yasash mumkin bo'lgan. Aynan bronzaning shu xususiyatlari qadimgi "metallurglar" diqqatini jalb etgan. Natijada bronza ibtidoiy xo'jaliklarning hamma sohalariga kirib kela boshlagan. Insonlar hayotida tub ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar, rivojlantirishlar sodir bo'lgan. Bronza davriga xos ana shunday rivojlanishning belgilaridan biri sifatida - agrar xo'jalik va hunarmandchilik sohasidagi yangiliklarni ko'rsatish mumkin. Sug'orma dehqonchilik o'troq aholining uzviy turmush tarziga aylandi. An'anaviy dehqonchilik hududlarida bronza davri ikki bosqichni tashkil etadi.

Markaziy Osiyoning janubi-g'arbidagi ilk dehqonchilik jamoalari tarixining birinchi bosqichi - Nomozgoh VI va V bosqichlariga to'g'ri kelsa, ikkinchi bosqichi Nomozgoh IV bosqichiga mos tushadi. Ilk bronza davri Nomozgohning ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi. Rivojlangan bronza davri esa Nomozgoh III bosqichiga to'g'ri keladi. Bu davr sopol buyumlari odatda hech bir naqshsiz, kulolchilik dastgohida ishlangan. Kulolchilik charxi esa sopol ishlab chiqarishda Nomozgoh IV bosqichining so'nggi fazasida qo'llana boshlangan. Umuman, bu davr uchun muhtasham ibodatxona va saroy tipidagi monumental inshootlar qurilishi xarakterlidir.

O'zbekiston hududida ham bronza davriga oid juda ko'plab manzilgohlar aniqlangan. Ayniqsa, qadimiy So'g'diyona mintaqasida ilk shahar madaniyatining ildizlarini o'zida aks ettirgan yodgorliklar arxeologlar tomonidan

keng o'rganilgan. Shuni qayd qilish kerakki, qadimgi So'g'diyona haqida gap ketganda ko'z o'ngimizda vatanimizning to'rt viloyati -Samarqand, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo gavdalanadi. So'g'diyonaning o'ziga xos tarixiy madaniy o'lka sifatida tarkib topishi, rivojlanishi va gullashida Zarafshon daryosining ahamiyati beqiyosdir. Zarafshon daryosi tufayli So'g'dlik bobodehqonlar bronza davridayoq o'troq manzilgohlari, ya'ni qishloqlarga asos solishgan. Mazkur qishloqlarning qoldiqlari endilikda Zamonbobo va Sarazm madaniyatlari nomi bilan fanga kiritilgan.

Yaqin kunlargacha So'g'dning bosh shaharlari bo'lgan Samarqand va Buxoroning XXV asrlik tarixining ildizlari qaysi davrga borib taqalishini bilmas edik. Shuning uchun ham chet ellik ayrim tarixchilar o'rtasida Samarqand va Buxoroga shahar madaniyati Eron ahamoniylari yoki yunonistonlik ellinlar tomonidan keltirilgan degan tasavvur paydo bo'ldi. Zamonbobo va Sarazm yodgorliklarining topilishi ana shu g'ayri ilmiy fikrlarga nuqta qo'ydi va So'g'dning shahar madaniyati aynan shu o'lkaning eneolit va bronza davri yodgorliklari - Sarazm va Zamonbobo madaniyatlari asosida kelib chiqqanligini isbotladi.

Zamonbobo Zarafshonning quyi oqimi havzasida, uning qurib borayotgan o'zanlaridan birining yoqasida hosil bo'lgan ko'lning nomidir. 1950 yilda akademik Ya.G'.G'ulomov ana shu ko'lning shimoliy sohilida qadimgi qabristonga duch kelgan. Shuningdek, u ko'l yoqasida, cho'l shamoli uchirib ketgan taqirlikda, usti ochilib qolgan bir necha qabrlarni uchratadi. Eneolit va ilk bronza davriga oid bo'lgan bu yodgorliklarda avval Ya.G'.G'ulomov, so'ngra A.Asqarov qazishmalar olib bordi. Zamonboboda o'tkazilgan qazishmalar davrida 45 ta qadimgi mozor qoldiqlari topib o'rganildi. Qabrlar hozirgidek lahad shaklida bo'lib, skeletlar o'ng va chap yoni bilan huddi ona qornida yotgan chaqaloq singari g'ujanak bo'lib yotganligi aniqlandi.

So'g'diyonada ilk dehqonchilik madaniyatining boshqa bir buyuk yodgorligi qadimgi Sarazm qishlog'i hisoblanadi. Hozirgi Sarazm qishlog'i Samarqandning Tojikiston bilan chegaradosh tumanida joylashgan. Sarazmda qadimdan o'zbeklari yashab kelgan. Shu qishloqning Avazali uchastkasida istiqomat qiluvchi Ashurali Toyloqov 1976 yilning kuzida o'z tomorqasi va qo'shnilari hovlisidan topilgan sopol siniqlari, bronza bolta va pichoqlaridan iborat ashyoviy dalillar bilan Panjikent muzeyiga murojaat qilgan. Bu yodgorlikda 1977 yildan buyon panjikentlik arxeolog Abdullo Isaqov arxeologik qazishmalar olib bormoqda.

Kulbalar va xilxonalarni qazish vaqtida arxeologlar sirtiga rangli bezak solingan sopol parchalari, mis oyna, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar bronza, lazurit va serdalikdan yasalgan munchoqlar topganlar. Sarazmning birinchi bosqichga oid materiallar ko'p jihatdan Janubiy Turkmanistonda topilgan va eneolit davriga oid yodgor-

liklarga aynan o'xshab ketadi. Sarazmning ikkinchi boskichidan boshlab uy-joy qurulishida alohida xonalar o'rtasida doira va to'rtburchak shaklida ishlangan muqaddas otashkadalar (altarlar)ning paydo bo'lishi qadimgi sarazmliklarning olovga sig'inishidan darak beradi. Keyinchalik bu yerda ibodatxonalar qurila boshlagan.

Bronza davrida dehqonchilik vohalarida alohida-alohida aholining joylashish tuzumi shakllandi. Aynan shu narsa shahar tipidagi aholi punktlarining shakllanishiga shart-sharoitlarni yaratdi. Shahar tipidagi aholi punktlari yuzaga kelish omillarini bilish ham muhim ahamiyatga egadir.

Birinchi omil - aholi zichligi va konsentratsiyalashuviga olib kelgan oziq-ovqat yetishtirish usulidir. Dehqonchilik vohalarida aholi zichligi ovchilik va termachilik davriga karaganda deyarli 100 barobar zichroq bo'lgan. Shu sababli dehqonchilik jamiyatlarining ilk bosqichlaridagiga nisbatan yirik aholi markazlari paydo bo'ladi. Masalan, Turkmaniston miloddan avvalgi 4-3ming yillardayoq aholisi 2000 yoki undan ortiq dehqonchilik qishloqlari mavjud bo'lgan.

Ikkinchi omil - hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ayrim aholi punktlari asosan maxsus ishlab chikarish, ya'ni hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan aholi to'plana boshladi. Hunarmandchilikning ajralishi jarayoni bilan shaharlarning paydo bo'lishi jarayoni bir vaqtda borgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlabki shahar tipidagi aholi punktlarida aholi hunarmandchilikdan ko'ra ko'proq dehqonchilik bilan shug'ulanganlar. Shaharlarning asta sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida tobora muhim mavqe' uynay boshlagan. Hunarmandchilikning yangi sohalar paydo bo'la boshlagan. Umuman shahar va hunarmandchilik bir birlarining yuksalishiga sharoit yaratgan.

Uchinchi omil - jamiyatlardagi ijtimoiy tabaqalanish va shakllanib borgan boshqaruv organlaridir.

To'rtinchi omil - o'zaro aloqalarning rivojlanishidir.

Beshinchi omil - esa diniy tushunchadir. Sababi turli ilohlarga atab qurilgan ibodatxonalar hamma aholi punktlari uchun markaz bo'lgan shaharlarda qad ko'targan.

Miloddan avvalgi IV – III ming yilliklarda janubiy Turkmanistonda birinchi loydan ishlangan g'ildiraklar paydo bo'lgan. Transportning rivojlanishi shaharlarga qishloq xo'jaligi tumanining markazi, qo'shimcha mahsulot to'planadigan va taqsimlanadigan markaz vazifasini o'tash imkonini ham yaratdi.

Shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi sivilizatsiyaning tarkibiy qismidir. Ma'lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyati rivojining ma'lum davrida paydo bo'ladi. Sivilizatsiyaning yuzaga kelishida va rivojlanishida shahar yetakchi rol o'ynaydi. Sababi, shaharlar sivilizatsiya paydo bo'lishi

va rivojlanishini ta'minlagan barcha jarayonlar kechgan markaz rolini bajargan. Shu sababli sivilizatsiya iqtisodiy, madaniy asoslarining va ilk tabaqaviy jamiyatlarning tashkil topishi shahar tipidagi aholi punktlarining tashkil topishi va rivojlanish bilan birga bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayon fanda «shahar inqilobi» deb ataladi.

Hunarmandchilikning ajralish jarayoni bilan shaharlarning paydo bo'lishi jarayoni bir vaqtda borgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlab shahar tipidagi aholi punktlarida aholi hunarmandchilikdan ko'ra ko'proq dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Shaharlarning asta-sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida tobora muhim mavke' o'ynay boshlagan. Hunarmandchilikning yangi sohalari paydo bo'lgan. Umuman, shahar va hunarmandchilik bir-birlarining yuksalishiga sharoit yaratgan. Markaziy Osiyoda qadimgi shahar tipidagi aholi punktlarida hunarmandchilikning metallurgiya va kulolchilik kabi tarmoqlari rivojlangan.

Bronza davriga oid manzilgohlar hozirgi Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlaridan ham topilib o'rganilgan. Amudaryo etaklaridagi Tozabog'yob kanali yaqinidan topilgan Tozabog'yob madaniyati, Amirobod kanali etaklaridan topilib o'rganilgan Amirobod madaniyati shular jumlasiga kiradi. Bu manzilgohda yashagan odamlar o'troq holda urug' jamoa bo'lib yashaganligi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi aniqlandi.

Mamlakatimizning shimolidagi cho'l va dasht joylarida chorvador urug' jamoalari va qabilalar yashagan. Ularda chorvachilik xo'jalikning asosiy tarmog'i bo'lgan. Otlqlar-cho'ponlar qoramol, ko'y, echkilardan iborat podalarini uzoq joydagi yavlovlarga haydab borganlar.

Bronza davri oxirlarida chorvador qabilalarning o'z podalarini haydab o'troq dehqon jamoalari yashaydigan vohalarga tinch yoki zo'rlik bilan kirib borganligi ham kuzatiladi. Natijada etnik jarayonlar kuchayib shimol va janub qabillarining dastlabki aralashuvi yuz berib, hozirgi zamon o'zbek va tojiklarining dastlabki etnik qatlami shakllana boshlagan.

Tayanch tushunchalar: Bronza, patriarxat, omoch dehqonchiligi, mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, urbanizatsiya, sivilizatsiya, shahar tipidagi aholi punktlari, shaharsozlik.

Savol va topshiriqlar:

1. *Bronza davridagi insonlarni turmushi haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Bronza davriga kelib insonlar qanday kashfiyotlarni amalga oshirishdi?*
3. *Shaharlar vujudga kelishining ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini tushuntirib bering.*
4. *“Shahar inqilobi” atamasi qanday ma'noni bildiradi?*

1.6. Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududlarida bronza davri

***O'quv maqsadi:** O'rganilayotgan hududlarda, ya'ni Markaziy Osiyoning tog' va tog' oldi hududlarida bronza davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik jarayonlar, moddiy va ma'naviy hayot haqida to'liq ma'lumot berish va bu jarayonlarni Markaziy Osiyoning janubiy hududlari bilan qiyosiy o'rganish.*

Oldingi mavzuda ta'kidlab o'tganimizdek, Markaziy Osiyoda bronza davri miloddan avvalgi 3 ming yillikdan to I mingyillikkacha davom etgan. Umuman olganda, Markaziy Osiyo hududida bronza miloddan avvalgi 3 ming yillik oxiri va 2 ming yillik boshlaridan ishlatila boshlangan. Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi bo'lgan Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududlarida bronza davrida taraqqiyot qay darajada bo'lganligini ko'rib chiqish mavzumizning asosiy vazifasidir.

Bronza davrida Oltoy hududi bronza davrini o'rganishda olimlar asosan ikki qismga bo'lishni taklif qilishgan: Birinchisi, Tog'li-Oltoy hududi bo'lib, unga asosan Ob daryosining janubi-sharqiy irmoqlari atrofidagi hududlar kiradi. Ikkinchisi, Oltoy vodiysi bo'lib, bunga Oltoy vodiysi, Shimoli-sharqiy Qozog'iston kiradi. Tog'li Oltoy hududida "Afanasev madaniyati" keng tarqalgan. Afanasev madaniyatning o'ziga xos jihati bu hududlarda bronzaga qaraganda tosh buyumlari keng tarqalgan. Oltoy vodiysida esa ko'proq "Andronova madaniyati" ta'siri sezilib turadi. Bu yerlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha bronzadan yasalgan buyumlar ko'plab topilgan. Shu bilan birgalikda ko'pdan ko'p qabrlar ham uchraydi.

Sharqiy Turkistonda bronza davrini o'rganish bo'yicha olimlar keng ko'lamli izlanishlar olib borganlar. Natijada mintaqaning madaniyat va xo'jalik shakllarini chuqur o'rganishdi. 1947 yili mazkur hududda arxeologik tadqiqotlar olib borgan olim A.N.Berneshtam shunday yozgan edi: "Bu hududagi qadimgi madaniyat o'zining keramik buyumlarga boyligi bilan alohida xarakterga ega. Sharqiy Turkiston chegaralari shimolda Oltoy hududi va Irtish daryosi, janub va sharqda Xitoy hududi, G'arbda Ili daryosining sharqiy irmoqlarigacha cho'zilgan. Sharqiy Turkistonda bronza davrida "Andronova madaniyati" keng tarqalgan. Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillikning boshlariga oid manzilgohlardan topilgan keramik buyumlar Qozog'iston va Farg'ona vodiysigacha bo'lgan hududlarda Andronova madaniyati rivojlanganligini ko'rsatadi". Bundan tashqari Markaziy Osiyoning sharqiy qismlari, shimoliy Pomir, Markaziy Tyan-Shan hududlarida ham mazkur madaniyat izlarining mavjud bo'lganligini ko'ramiz. Mo'g'ilistonda

olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududda “Karasuk madaniyati” tipi mavjud bo‘lganligi aniqlandi. Karasuk madaniyati Markaziy Osiyoda sak qabilalaridan oldingi davrda milloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalarida shakllangan madaniyat shakli hisoblangan. Bu madaniyag Markaziy Osiyoning Sharqiy Turkiston, Tuva, Baykalgacha bo‘lgan yerlarda va yuqori, quyi Mo‘g‘iliston hududlarida keng tarqalgan. Janubiy Sibir, Qozog‘iston va Markaziy Osiyoda ilmiy izlanishlar olib borgan olim M.P.Gryaznov fikricha, Karasuk madaniyati Andronova madaniyatidan oldin Janubiy Sibir hududlaridan kirib kelgan. S.V.Kiselyov birinchi bo‘lib Mo‘g‘iliston muzeyidagi bronza qurollarini turlarga bo‘lgan va Shimoliy Xitoy hududidan topilgan bronza buyumlarini o‘rgangan. Sibir hududida vujudga kelgan Karasuk madaniyatini Mo‘g‘ilistonning janubiy-sharqiy hududi bilan aloqadorligini aniqlagan.

Sharqiy Turkiston hududidan bronza davriga oid juda ko‘p manzilgohlar topilgan bo‘lib, ular asosan, uch guruhga bo‘linadi:

1. Mikrolit qurollar topilgan manzilgohlar: Nishan, Urumchi, Aksu, Turfan., Muney va boshqalar.

2. Keramik buyumlar topilgan manzilgohlar: Kucha Ikin, Titay, Barkul, Hami va boshqalar.

3. Bronza davriga oid qurollar topilgan manzilgohlar: Shufu, Tarip daryosining o‘rta oqimdagi yerlar.

Yettisuv hududida asosan Andronova madaniyati keng tarqalgan. Yettisuv hududi sharqda Sharqiy Turkiston, janubda Chu daryosi etaklar, g‘arbda Qozog‘iston cho‘llari, shimolda Irtish daryosi bilan chegaralanadi. Bu hududdan asosan qabrlar topilgan. Qabrlarni o‘rganish chog‘ida olimlar Andronova madaniyatiga xos bo‘lgan elementlarga guvoh bo‘lishgan. Tadqiqotlar katta mintaqada yashagan turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro mustahkam aloqalar bo‘lganligini isbotlaydi. Yettisuvdan topilgan ko‘za siniqlari o‘zining yasaliş usullari bilan farq qiladi. Bu hududdan topilgan ko‘zalar ikki quloqli ko‘rinishga ega. Mehnat qurollari esa Oltoy hududlaridan topilgan mehnat qurollaridan keskin farq qiladi. Bu hududdan topilgan ketmonchalarning uchlari keng ko‘rinishga ega bo‘lgan xolda, Oltoy hududidan topilgan ketmonchalarning uchlari uchqur ko‘rinishga ega. Chu daryosi bo‘yida 20 ga yaqin qabrlar topilgan bo‘lib, murdalar kuydirilgan xolda dafn qilinganini kuzatishimiz mumkin. Mozor atrofida turli taqinchoq va hayvon suyaklari topilgan.

Bronza davrida migratsiya to‘lqini Markaziy Osiyoning tog‘li hududlari, Yenisey daryosining shimoliy-g‘arbiy qismi va Mo‘g‘ilistonning g‘arbiy hududlarida yashagan aholilarning o‘zaro etnik aloqadorligini ko‘rsatadi.

Mo'g'iliston hududida bronza davriga oid manzilgohlarga kam uchraydi. 1971 yil Uburxangay viloyatining janubida Tevsh-ull tog'ida toshga o'yib ishlangan ko'plab rasmlarni topishga muvaffaq bo'lishdi. Bundan tashqari miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi va I ming yillikning oxiriga oid qabrlar ham topilgan bo'lib, ular Karasuk madaniyati davriga to'g'ri keladi. Qabrlarni o'rganish vaqtida 500 ga yaqin marjonlar, 200 ta yarim oy shaklidagi bronza buyumlari topilgan.

Arxeolog Ye.V.Kiselyov Mo'g'ilistondan Karasuk madaniyatiga xos bo'lgan topilgan pichoqlarni klassifikatsiya qilib chiqqan va ularni ikki guruhga bo'lgan:

Birinchi guruhga kiruvchi pichoqlarning uchlari qo'ziqorin ko'rinishida bo'lib, asosan Mo'g'ilistonning janubi va Shimoliy Xitoydan topilgan. Ikkinchi guruhga kiruvchi pichoqlar o'zining kattaligi bilan ajralib turadi. Ularning uzunligi 15-16 va 20-25 santimetrgacha yetadi. Bundan tashqari xanjarlar ham topilgan bo'lib, ular asosan Shimoliy Xitoy va G'arbiy Mo'g'ilistondan topilgan.

Oltoy hududidagi ham bronza davriga oid ko'plab manzilgohlar topilgan. 1985 yil bahorida Oltoy hududida Kureyka ko'prigi qurulishi paytida bronza davriga oid manzilgoh topilgan. Bu manzilgoh Kureyka-3 deb nomlangan. U yerdan so'nggi bronza davriga oid ko'za siniqlari, bronzadan yasalgan nayza uchlari va ilk bronza davriga oid katta bo'lmagan tosh qurollari qoldirlari topilgan. Ko'za siniqlari asosan 3 ga bo'lingan: Birinchi tipga oid ko'za siniqlari o'zining kattaligi va bezaklarining qo'polliigi bilan ajralib turadi. Ikkinchi tipga oid ko'za siniqlari birinchi tipga qaraganda kichikroq va bezaklari nafisroq ko'rinishga ega. Uchinchi tipga oid ko'za siniqlari ancha mukammalroq bezaklari ham nafis ishlangan. Shuningdek, topilgan nayza uchlariga e'tibor beradigan bo'lsak, uzunligi - 25.2 sm, eni - 5,5 sm ni tashkil yetgan. Nayza uchlari yaxshi saqlangan. Bundan tashqari Tog'li Oltoy hududidan 1980 yili bronza davriga oid qabr topilgan. Qabr Baljtiob daryosining chap qirg'og'ida topilgan bo'lib, 80 metr kvadrat maydonni egallaydi. Qabr yonidan ko'za siniqlari va hayvon suyaklari topilgan. Bu yerdan topilgan ko'za siniqlari qizil yoki qizg'ish ranga bo'yalganini ko'ramiz.

Manzilgohlarni o'rganish maqsadida bir qancha ekspeditsiyalar uyushtirildi. F.Bergaman boshchiligidagi ekspeditsiya Hami tumanidan 85 km janubiy sharqda 100 metrlik maydondan keramik buyumlarni topdi. Keramik buyumlarning qalinligi 3-13 millimetрни tashkil etgan bo'lib, qizil va qizil-sarg'ish ranglarga ega. Bezaklariga to'xtaladigan bo'lsak, ingichka va qizil chiziqlar chizilgan. Keyin esa shved olimlari tomonidan ikkinchi ekspeditsiya uyushtirildi. Shved olimlari Turfandan 33 km. sharqda Sengim

Aguzey manzilgohini o'rganishdi. Bu yerdan ham asosan keramik buyumlar topilgan bo'lib, ular ham qizil rangga ega edi. Bundan tashqari oddiy keramik buyumlar ham mavjud bo'lib, bular faqat qora chiziqlardan iborat edi. Bu keramik buyumlar miloddan avvalgi birinchi ming yilning birinchi yarmiga oid ekanligi aniqlandi.

Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududida bronza davrida aholi qanday turmush kechirgan, nima bilan mashg'ul bo'lganligi barchada qiziqish uyg'otsa ajab emas.

Mo'g'iliston hududida aholi mashg'uloti faqat ovchilik bo'lmasdan, chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Manzilgohlardan topilgan yovvoyi va xonaki hayvonlarning suyaklari fikrimizga yaqqol dalili bo'la oladi. Aholi asosan go'sht, sut va baliq mahsulotlarini iste'mol qilishgan. Qiziqarli jihati shundaki, mazkur hududda yashagan qabilalar oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlash sirlarini yaxshi bilishgan. Aholining diniy e'tiqodi asosan tatimistik qarashlarga asoslangan.

Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududida asosan aholi chorvachilik bilan shug'ullangan. Shuningdek, hunarmandchilik asosiy xo'jalik turi sifatida keng tarqalgan. Qabrlardan topilgan ko'plab ko'za siniqlari fikrimizni tasdiqlaydi.

Oltoy hududidan topilgan mehnat va ov qurolari yaxshi saqlanib qolgan. Tog'li Oltoydan topilgan ketmonchaga o'xshash mehnat qurollari aholining dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari qabilalar chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik bilan ham shug'ullangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududlarida bronza davri o'ziga xos rivojlanish bosqichi bo'lgan.

Tayanch tushunchalar: Bronza davri, Oltoy Kureyka 3, ko'za siniqlari, nayza uchlari, tog'li - Oltoy, Baliktiyul, Andronova madaniyati, Yettisuv, Karasuk madaniyati, Mo'g'iliston, Sharqiy Turkiston.

Savol va topshiriqlar:

1. *Bronza davrining o'ziga xos xususiyatlarini gapirib bering?*
2. *Bronza davriga oid Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududlaridagi manzilgohlar haqida ma'lumot bering?*
3. *Aholining turmush tarzi va mashg'ulotlari qanday bo'lgan?*

II - bo'lim: Markaziy Osiyo qadimgi davrda (eramizdan avvalgi I-mingyillik, milodiy IV asrlar)

2.1. Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari: Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya

***O'quv maqsadi:** Ilk davlat uyushmalarini shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, "Katta Xorazm" masalasi, qadimgi Xorazm davlati, qadimgi Baqtriyada shaharlar va shahar madaniyati, So'g'diyona, Sug'diyananing hududlari, aholisi, etnik tarkibi, din va madaniyat, qadimgi Marg'iyona va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, Murg'ob vohasi, aholisi, hududi haqida batafsil ma'lumot berish, mavzuda keltirilgan tarixiy, madaniy o'lkalar, davlatlar, xalqlar to'g'risida atroflicha ma'lumot berish.*

Miloddan avvalgi I ming yillikda Markaziy Osiyo hududlarida temirning ishlatilishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada ishlab chiqarishning yuksalishi, mehnat unumdorligining oshishi, ortiqcha mahsulotning ko'payishiga, aholi o'rtasidagi mulkiy tabaqalanishning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo hududlarida qabila va xalqlarning ijtimoiy-siyosiy birlashmasi sifatida qadimgi davlat uyushmalarining shakllanishiga asos bo'ldi. Baqtriya, Marg'iyona va Katta Xorazm Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari sifatida e'tirof etiladi. Yirik davlat uyushmalarining tashkil topishida ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, tashqi sub'ektiv omillar ham muayyan rol o'ynaganligini ko'ramiz.

Zardushtiylarning diniy kitobi bo'lgan "Avesto"da Markaziy Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida Ahamoniylar imperiyasi tashkil topgan vaqtga qadar qandaydir davlat tizimi bo'lganligi haqida dastlabki ma'lumotlar uchraydi. Ular harbiy-demokratiya tipidagi qabilalar ittifoqidan o'sib chiqqan dastlabki davlatlar edi.

Yunon mualliflari (Gerodot, Gekatey)ning xabariga ko'ra, bu zaminda qabilalar konfederatsiyasi asosida tarkib topgan dastlabki davlatlar mavjud bo'lgan. «Katta Xorazm» va «Baqtriya podsholigi» harbiy demokratik prinsiplar asosida tarkib topgan. Afsuski, yozma manbalarda ular haqida uzun-yuluq va juda qisqa ma'lumotlar uchraydi. Ularning ba'zilar esa afsonaviy xarakterda, zardushtiylik dinining bosh islohotchisi Zaratushtra nomi bilan bog'liq xolda eslatiladi.

«Avesto» berilgan ma'lumotlarni mashhur xorazmshunos olim S.P.Tolstov, Yevropa olimlaridan V.Xenning hamda I.Gershovichlar arxeologik izlanishlar va tarixiy-geografik ma'lumotlarni solishtirib, «Katta Xorazm» davlati haqidagi o'z qarashlarini bayon etganlar. Masalan,

S.P.Tolstov fikricha, «Avesto»da Zaratushtraning vatani Aranem Vayjo mamlakati bo'ylab oqib o'tgan Daitya daryosi – hozirgi Amudaryodir. Natijada qadimgi Xorazm Amudaryo xavzasida joylashgan viloyat ekan, Zaratushtra o'z ta'limotini shu zamindan chiqib boshqa viloyatlarga tarqatgan, degan xulosaga keladi. Biroq I.I.Xlopin «Katta Xorazm»ning yirik siyosiy birlashma sifatida ahamoniylardan oldingi davrda mavjud bo'lganligi va Oksning Tajan-Xerirud daryosi bilan bir ekanligi haqidagi fikrni asossiz deb hisoblanishni shubha ostiga olgan. Oksni Atrek daryosiga to'g'ri keladi deb hisoblagan. Uning fikricha, «Ahamoniylardan oldingi davrda Markaziy Osiyo hududida xalqlarning xorazmiylar boshchiligida hech qanday ilk davlat birlashmalari yo'q edi». Shu bilan bir qatorda u ahamoniylardan oldingi davrda Markaziy Osiyoning janubida «bir nechta uncha katta bo'lmagan markazlar», shu jumladan, Baqtriya mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Ammo «Katta Xorazm» Markaziy Osiyoning bapoyon kengliklarini, ya'ni Oroidan Tajan (Xerirud) daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan, Markaziy Osiyodagi ilk davlatlardan biri, siyosiy birlashma bo'lganligiga hech qanday shudha bo'lishi mumkin emas.

Masalan, «Avesto»da «Katta Xorazm»ga tegishli viloyatlar sanab o'tiladi. Bunga ko'ra, Markaziy Osiyoning deyarli katta qismi «Katta Xorazm» tarkibiga kirganligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur ma'lumotni yunon mualliflari tomonidan ham tasdiqlanadi. Gerodot «Katta Xorazm» davlatining ekin maydonlarini sug'orish uchun Oks daryosiga to'g'on qurilganini bayon qilib o'tgan.

Olimlar Oksni Tejen daryosi bilan solishtirib, Hirot va Marv viloyatlari «Katta Xorazm» davlati tarkibida bo'lgan, degan g'oyani olg'a suradilar. Demak, yunon tarixchisi Gerodotning ma'lumotiga ko'ra, miloddan avvalgi XIII-XII asrlarda Oks-Tejen vohasi hozirgi Turkmaniston - qadimgi xorazmliklarga qaragan.

Manbalardan birida yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarga o'xshash fikrlar uchraydi. Markaziy Osiyoda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat uyushmalari shakllana boshlagan. Aynan shu davlat uyushmalari "Avesto"da «daxiyusasti» deb nomlanadi.

Gerodot «Osiyoda shunday tekislik bo'lib, u har tomondan tepalik bilan tutashgan, tepalikda esa beshta dara mavjud. Qachonlardir bu yerlar xorasmiylarga tegishli bo'lgan va ayni xorasmiylarning girkamlarining, parfiyaliklarning, saranglarning va tamanlar yerlarining chegaralarida yotardi. Tekislikning tepalik bilan tutashgan yeridan katta Akes daryosi oqib o'tardi. Dastlab daryo besh tarmoqqa bo'lingan va u shu yerda

yashovchi "xalq"larning yerlarini ko'kartirardi» degan.

Gerodotning Osiyo haqidagi bunday ta'rifini Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasini o'rgangan tarixchi olim, geograf V.V Bartold inkor etgan va bu malumotni tahlil qilishdan voz kechgan (Bartold.V.V., 1965a, str.25-26. 100-101.).

Aksariyat tadqiqotchilar bu ma'lumotga ijobiy yondashadilar. Gerodot aytib o'tgan Oks daryosini barcha tadqiqotchilar Tejen bilan tenglashtiradilar. Bu haqida Gerodotdan ham avvalroq yozib qoldirgan yunon muallifi Gekatey (er.avv. taxminan 500y.) xorazmiylarni qisman tekislikda, qisman tog'liklarda, parfiyaliklardan sharqda yashagan deydi. Bu zamonaviy Xorazm emas, balki Marvning bir rayoni bo'lganligi aniq.

I.Markvart yuqoridagi aytib o'tilgan «Avesto»dagi Aranem-Vayjoni «Eron (oriy) yalangligi» degan ma'noni anglatib, «Katta Xorazm» bilan aynan o'xshash degan nazariyani olg'a suradi. Uning aytishicha, «Katta Xorazm» Datya daryosi(Amudaryo) bo'yida joylagan va u yerda qish 10 oyga cho'ziladi, ya'ni qish kattiq keladi degan edi. Biroq «Katta Xorazm» davlatining qachon inqirozga yuz tutganligi haqida biror fikr bildirish qiyin. Ammo shunisi aniqki, «Katta Xorazm»ga tegishli qator Janubiy viloyatlar Midiya davlati davridayok undan ajralib ketgan va keyinchalik Ahamoniylar davlati tomonidan bosib olingan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib «Katta Xorazm»ning shimoliy qismida, Amudaryosining quyi xavzasidagi hududlarda Qadimgi Xorazm davlati tashkil topgan.

Markaziy Osiyo hududida Ahamoniylarga qadar tashkil topgan ikkinchi davlat bu Baqtriya podsholidir. Bu davlat haqidagi dastlabki ma'lumotlar yunonistonlik Ktesiyda uchraydi. Boshqa bir yunon solnomachisi Diodor esa, Ktesiy hikoyalariga asoslangan holda Ossuriya podsxosi Ninning Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari haqida xabar beradi. Ktesiyning hikoyalarida tarixiy haqiqat bor. Uning ma'lumotlari miloddan avvalgi XIII–VI asrlarga oid bo'lib, ularda Baqtriyaning qudrati, shon-shuhrati, ming minglab shahar va qishloqlari, serunum yerlari va ko'p sonli chorvalari haqida hikoya qilinadi.

Keyingi yillarda qadimgi Baqtriya hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari yunon mualliflarining «Qadimgi Baqtriya podsholigi» haqidagi hikoyalari zaminida tarixiy haqiqat borligiga ishora qiladi. Bunga misol qilib Janubiy Baqriyada Oltin-1 va Oltin-10 hamda Baqtra shahri vayronalarini, Shimoliy Baqtriyada esa Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashkan-tepa, Bandixon-2 kabi yodgorliklarni ko'rsatish mumkin. Ularning har birida mahalliy hokimliklarning o'rdasi bo'lgan. Qadimgi Baktriya podsholigi esa ana shu tuman va viloyatlarni birlashtiruvchi harbiy-demokratik tipdagi konfederatsiya edi.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda bir butun yirik madaniyat markazi sifatida shakllangan yurtlardan biri Baqtriyadir. Uning hududini O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, Janubiy- G'arbiy Tojikiston yerlari, Shimoliy Afg'oniston tashkil etadi. Bu yurt o'z vaqtida Eron ahamoniylar davlatiga tobe sifatida katta jarima to'lardi.

Shunday davlat uyushmalaridan yana biri Qadimgi Baqtriya saltanati bo'lgan. «Avesto»da Baqtriya «go'zal, tog'lari yuksak ko'tarilgan» deb tasvirlanadi. Baqtriya haqida eng qadimgi ma'lumotlar ahamoniylar bitiklarida, xususan, dunyoga mashhur Naqshi Rostam maqbarasi va Baxistun qoyasida uchraydi.

Persepolda saroyidagi ganchkor rasmlarda baqtriyaliklar o'n beshinchi qatorda idish ko'targan holda va ikki o'rkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlangan. Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Ahamoniylar imperiyasining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. U haqidagi xilma xil malumotlar qadimgi yunon tarixchilari – Gerodot, Ktesiy, Strabon, Diodor, Arrian, Kursor Ruf, Gekatey, Skilak va boshqalarning asarlarida mavjuddir. Mualliflarning ta'kidlashicha, mazkur mamlakatning qadimiy bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan. Masalan, Ktesiy Ossuriya podsxosi Nining Baqtriyaga qilgan yurishi, Baqtriya podsxosi Oksart va uning xazinasi haqida xabar beradi. Ktesiy tomonidan tasvirlangan xalqlar orasida baqtriyaliklar birinchilardan bo'lib tilga olingan. Baqtriyaning o'zini esa u sharqqa joylashtiradi, g'arb tomonidan Baqtriya «tekisligiga» boradigan yo'lni «tog'lar» to'sib turishi, ulardan faqat «dovonlar» orqali o'tib borilishi haqida yozib qoldirgan. Baqtriya Tanaisdan Xind daryosigacha cho'zilgan. Tanais uni Yevropadan ajratib turadi. Bundan tashqari «Baqtriya» nomi Esxilning miloddan avvalgi 472 yilda sahnaga qo'yilgan «Forslar» tragediyasida, shuningdek Gekatey, Skilak asarlarida ham uchraydi.

Tadqiqotlarning chuqur tahlili qadimgi Baqtriya saltanatning hududlari Baqtriya o'lkasi hududlaridan katta ekanligini ko'rsatadi. Uning tarkibiga Marg'iyona va So'g'd ham kirgan degan fikrni tasdiqlaydi. Shunisi e'tiborliki, Baqtriya tabiiy boyliklari mamlakatning tashqarisiga, hatto Old Osiyogacha ma'lum bo'lgan. Ayniqsa, Badaxshon la'li barcha Sharq hukmdorlari orasida yuksak qadrlangan.

Shunday qilib, arxeologik va yozma manbalarning tahlili miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida, Ahamoniylarning bosqinchiliklaridan ancha oldin qudratli harbiy-siyosiy uyushmalar, ilk davlatlar bo'lganligini ko'rsatadi. Mintaqadagi o'troq va ko'chmanchi xalqlarni birlashtirgan mazkur siyosiy uyushmalar ichki taraqqiyot natijasida va shuningdek g'arbdan eramizdan 9-7 asrlarda mavjud bo'lgan qudratli Ossuriya va Midiya

davlatlarining bosqiniga qarshi ittifoq sifatida tashkil topgan degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda va xalqaro jamoatchilikda “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi Qarshi shahri tashkil topganligining 2700 yilligi, Samarqand shahrining 2700 yilligi keng nishonlanganligi hududimizda sivilizatsiya asoslari bundan uch ming yillar oldin shakllanganligini aniq isbotlaydi.

Tayanch tushunchalar: Temir asri, ilk davlat uyushmasi, “Katta Xorazm”, qadimgi Baqtriya, Aranem Vayjo, Oks, Vavilon (Bobil), “daxiyusasti”.

Savol va topshiriqlar:

1. «Katta Xorazm» davlati to'g'risida qadimgi mualliflar qanday fikrlar yozib qoldirganlar?
2. Qadimgi Baqtriya va «Katta Xorazm» yerlari hozirgi paytda qaysi hududlarga to'g'ri keladi?
3. Nima sababdan antik olimlar Ktesiyning Baqtriya haqidagi fikrlariga qo'shilmaganlar?
4. Qadimgi Baqtriya hududidan qanday yodgorliklar topilgan?



2.2. Zardushtiylik : “Avesto”

***O'quv maqsadi:** Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning dinda aks etishi, yakka hudolikka ishonishning paydo bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yoritib berish va “Avesto” Zardushtiylikning muqaddas kitobi, eramizdan oldingi bir minginchi yillikning birinchi yarmidagi ijtimoiy jarayonlarning “Avesto”da aks etishi., zardushtiylikning asosiy qoidalar, ya'ni fikrlar sofli, so'zning sobitligi, amallarning insoniyli haqida talabalarga ma'lumot berish, tushunchalar hosil qilish.*

Urug'chilik jamoasi o'z taraqqiyotida asosan ikki bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich urug' ijtimoiy ishlab chiqarishga asoslangan. Bu davrda mulk tub ma'noda jamoaniki edi. Ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo'tabar zotlar - oqsoqollar (nmanishilar) qo'lida bo'lib, ular jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni oqsoqollar kengashi (anjumani) orqali hal qilganlar. Oksoqollar kengashi qo'lida diniy va dunyoviy hokimyat birlashgan, ya'ni ular jamoaning kundalik faoliyatidagi xo'jalik masalalarini hal etganlar. Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o'zida oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshlik, piru ustoz va murabbiy bo'lgan. Qabila-qishloq oqsoqoli esa oliy kengashning boshlig'i sifatida butun qishloq ahlining ana shunday boshlig'i hisoblangan. Mo'tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a'zolari uchun qonun edi.

"Avesto"da bayon etilishicha, eramizdan oldingi II mingyillik o'rtalarida yashagan turkiylar, forsiylar, hindular, saklar, debriklar, oslar, toxarlar, daxlar, massagetlar, baqtriyaliklar, parkanaliklar, chochliklar va boshqa qavmlarning aksariyat ko'pchiligi chorvador ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlashgan.

«Avesto» Markaziy Osiyoning tarixan ajralmas qismi bo'lgan Turon zamin hududlarida shakllangan eng qadimiy din - zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy iloxiy tasavvurlari, koinot va Yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z aksini topgan. Davlatni qavm yani muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan shoh boshqargan. "Kavi"ning davlatni boshqarish huquqining belgilanishida "farr" ("Avesto" tilida "xvarno") prinsipiga qonuniy asos sifatida amal qilingan. "Avesto"da "Xvarno" shoh hokimiyati ramzini bildirib, shohlik ulug'vorligi bilan bog'lanib ketadi. U "Kavi"ga iloxiy farog'atni va xukmronlik uchun qonuniy huquqni ta'minlaydi. «Avesto»la aks etgan asosiy qonun qoidalar, diniy e'tiqodning yetakchi tushunchalari tarixiy shaxs Zaratushtra nomi bilan bog'liq. U bundan taxminan 2700 yillar avval yashagan. O'sha kadar ibtidoiy ajdodlarimiz turli-tuman qabilaviy diniy tasavvurlarga amal qilib yashaganlar.

Zaratushtra ham ana shunday mahalliy qabilaviy dinlarning rohiblaridan biri bo'lgan. Lekin Zardusht yashagan zamon ibtidoiy munosabatlar o'rnini sinfiy jamiyat, qadimiy davlatchilik asoslari egallayotgan davr edi. Bu davrning shakllanishi uchun kuchli g'oyaviy mafkura zarur bo'lib, mahalliy qabilaviy dinlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichiga to'sqinlik qiluvchi kuchga aylangan edi. Bu murakkab zamonda o'lkaning turli qabilalarining birlashtirish, bu orqali ularni ilk davlatchilik g'oyasi atrofiga uyushtirish zaruriyati tug'ildi. Ana shunday zaruriyati tushungan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht chiqdi. U ko'p xudolik tasavvuriga, tabiat hodisalariga sig'iniishga qarshi chiqib, yakka xudolikni targ'ib qildi. U ezgulik xudosi Axuramazda bilan odamlar o'rtasidagi vakil sifatida maydoniga chiqdi. Zaratushtra eroncha so'z bo'lib "ushtra" – tuya, "zarat" - sariq, ya'ni keksa tuyachi – tuyachilar avlodi degan ma'nolarni bildiradi. Zardushtning boshqalan farqi shundaki, u o'ta iste'dodli shoir, ilohiyot bilimdoni, faylasuf olim edi. Yagona xudoga ishonishga jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oladi, deb hisoblar edi u. Shu yo'lda Zardusht Navro'z kunlaridan birida kohinlar boshchiligida muqaddasi ichimlik bo'lgan jamoa tayyorlashga kirishadi.

Axuramazdaning rasmiy tus olishiga qadar uning Zardusht orqali vahiy qilgan ilohiy xabarlar Eron va Turon zamin xalqi orasida asrlar davomida namoz, turli diniy marosimlar, duo-yu takbirlar, madhu alqovlar va surayu oyatlar sifatida yig'ila boshlagan edi. Ko'p miqdordagi duo-yu takbirlar, sura-yu oyatlar, madhu alkovlar tartibga solinib, Zardushtning o'limidan keyingi muayyan muqaddas kitobga to'plangan. Natijada Axuramazda dini yanada qadr va ravnaq topib, Zardushtga nozil bo'lgan barcha matnlar yig'ilgan. Paydo bo'lgan kitobga «Avesto» deb nom berilgan. Bu so'zining ma'nosi «o'rnatgan, kat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» demakdir.

«Avesto» kitobi. Zardusht orqali vaxiy qilingan Axuramazda dini haqidagi xabarlar qadimgi davrdan boshlab to o'rta asrlargacha sezilgan ko'plab tarixiy, ilmiy, adabiy manbalarda uchrab keladi. Masalan, qator qadimgi yunon mualliflari Zoroastr, Zaratushtra ko'rinishlarida Zardusht nomini qayd etishgan. Uning diniy ta'limoti haqida ayrim xabarlarni qoldirishgan. «Avesto» haqidagi eng muhim manba IX asrga oid o'rta fors tilida yartilgan «Denkard - din amallari» nomli qomusiy asardir. Unda «Avesto»ning 21 kitobi mukammal holida ta'riflab berilgan. Savobli ishlar yo'riqnosi, diniy marosimlar, rasmlar qoidasi, mazda dini (zardushtiylik) ta'limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi va buning haq ekanligi, oxirat kuni, oxiratdagi hisob-kitob haqida, falakkiyot, ilmi nujum haqida ma'lumotlar; ijtimoiy-xuquqiy qonun-qoidalar, Gushtasining Axuramazda dini qabul qilish tarixi; Gopat shox, Avliyo cho'pon; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutmoq va taraqqiyotning haq yo'li haqida, jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; harbiy ishlarning Axuramazda dini haqligiga xizmat qilish haqida; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duoyu-takbirlar, qaytariqlar va amallar tafsilotlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Yevropa olimlaridan dastlab 1755 yili yosh fransuz sharqshunosi A.Dyuperron Parij kutubxonasiga borib qolgan «Avesto» matni parchalari bilan tanishadi. Unda bu sirli kitobning o'zini topish va uni mukammal o'rganish ishtiyoqi tug'iladi. A.Dyuperron Hindistonning istilo qilgan qo'shinlar bilan birgalikda zardushtiy forslar sohasiga yetib oladi. O'z dini va muqaddasi kitobini begonalardan qattiq asragan forslar A.Dyuperronni dastlab noxush va ishonchsizlik bilan qabul qiladilar. Yosh olim forslar ichida olti yil yashaydi.

Ularning urf-odatlarini, gujarotiy tilini, diniy rasm-rusmlarni o'rganib, kohinlar orasida ishonch qozonadi. «Avesto»ning yozuvini o'rganadi. Matnlarning mazmuniga tushuna boshlaydi. A. Dyuperron «Avesto»ning bir necha qo'lyozma nusxalarini sotib olishga erishadi. 1761 yili u mashaqqatli sayohatidan qaytib Angliya keladi. Keltirgan «Avesto» kitobining qismlarini Angliya kutubxonasidagi qo'lyozma parchalar bilan qiyoslab, dastlabki ilmiy xulosalarni chiqaradi. 1762 yili A.Dyuperron o'z vataniga qaytib, Fransiya milliy kutubxonasiga «Avesto»ning asl matnlarini fors tilidagi tafsir (sharh)lar bo'lmish «3and» parchalarini, «Avesto»ning gujarotiy, hindi va fors tillariga qilingan tarjimalaridan iborat parchalarini topshiradi. Uni esa «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qilishga kirishadi. A.Dyuperronning ulkan matonati, ilmiy jasorati natijasi bo'lmish uch jildlik tarjima 1771 nashr etiladi.

Zardusht ta'limotida olov, yer, tuproq, suv va havo muqaddas hisoblanadi. Ularni iflos qilish katta gunoh deb qaralgan.

O'sha davrlarda tabiiy va ijtimoiy hayotning alohida sohalarini boshqarib turuvchi tangrilar mavjud deb hisoblangan. Masalan: Parendi – sokinlik, ijtimoiy barqarorlik, farovonlik ma'budi; Vayu – shamol va bo'ronlar, to'fonlar, o'lim tangrisi; Mozon devlari – qadimgi yashtlarda uzoq shimoldagi tog'lar ortida, abadiy muzliklarda turib har biri tabiat va ijtimoiy hayotning alohida sohalarini boshqarib turuvchi qudratli, kahri qattiq va bahaybat mahluq, Vatan – Zardushtgacha bo'lgan davrlarda yomg'irli bulutlarni haydab olib keluvchi shamol tangrisi; Bushyasta – kishilarda dangasalik, yalqovlikni kuchaytiruvchi va ularni o'z homiyligiga olgan dev qiyofasidagi iblis. U o'zining uzun qo'llari bilan odamlarni to'shakda tutib turuvchi va to'shakdan turishga xalaqit beruvchi qudrat sifatida tasavvur qilinadi; Marshavan dev kishilarning xotirasini yo'q qilishga esdan chiqarishga undaydigan iblis qiyofalik dev va hokazo. «Avesto»da tabiat va halollik hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazda nozillarining to'g'riligiga imon keltirishga doir duolar bor. Unda imonli bo'lish, buning uchun doimo toza, pok yurish, yovuzlikni qoralayotgan paytda tananing toza bo'lishi, shayton-iblisarga qarshi harakatlar qilish, gunoh qilmaslik, Axuramazdadan kechirim so'rashga doir duolar keltirilgan.

«Avesto»da olam qarama-karshiliklardan iborat. Yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, adolatli qonunlar va qonunsizliklar

o'rtasidagi kurash unda o'z ifodasini topgan. Zardushtning diniy ta'limotida ezgulikni qaror toptirish ruhi (Axuramazda) bilan yovuzlik ruhi (Axriman) o'rtasidagi kurash ta'riflanadi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltirishda odamlarni imonli bo'lishiga undayveradi, Axriman esa unga qarshi odamlarni yomon ishga boshlaydi.

Zardushtiylik dinida imon uch tayanchga asoslanadi: 1) fikrlar sofliigi, 2) so'zning sobitligi, 3) amallarning insoniyligi.

Ahuramazda tarafdori bo'lgan, yaxshilik, ezgulik urug'ini sochuvchi tangri (xudo)lardan biri, shubhasiz, Roman nomi bilan ataluvchi tangri bo'lgan. Roman - ko'pxudolik davrida tinchlik va osoyishtalikning, ijtimoiy barqarorlikning, chorva mollarining homiysi bo'lgan tangri deb hisoblangan. Shunday qilib, «Avesto» dunyodagi eng qadimgi din bo'lgan zardushtiylik ta'limotini asoslab bergan kitobdir. Lekin bu kitob faqat diniy emas, balki keng ma'noda tarixiy, falsafiy, adabiy manba sifatida ham g'oyat va tafakkur taraqqiyotining qomusiy yig'indisidir. "Avesto"ning eng qadimiy qismi bo'lgan "Yasht"larda bu tangrilar, ma'bud va ma'budalar ham mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajrala boshlangan. Kishilarga dahshat urug'ini sohib yuraklariga g'ulg'ula soladigan qaxri qattiq Axriman boshliq yovuz kuchlarga va odamlarga ezgulik tarqatuvchi, yaxshilik tilovchi, yordam beruvchi Axuramazda boshchiligidagi tangrilar guruhiga ajrata boshlangan. Keyinchalik Zardusht ta'limotida Ahuramazda Oliy tangri sifatida e'tirof etilib, qolganlari farishtalarga aylantirilgan. "Mangu yashashga molik bu muqaddas ruhlar" Axuramazda bilan birgalikda barcha mavjudlikning turli sohalarini o'zida mujassam etadilar va insonlar hayoti uchun eng zarur bo'lgan narsalar – olov, yer, osmon, suv, chorva va nabodot (o'simliklar) dunyosiga homiylik qiladilar. Bu ruhlar ("Avesto" bitiklarida ularni "Amesha Spenta" deb aytiladi) jami oltita bo'lib: 1) Voxu Manu - ezgu fikr; 2) Asha Vaxishta – eng oliy haqiqat; 3) Spenta Armantiya – muqaddas e'tiqod, diyonatga sodiqlik; 4) Xishatra-Varya – hukmronlik xohishi; 5) Harvatag - yaxlitlik; 6) Amereta' mangulik, ular muqaddas ruh Spenta Manyu yordamida vujudga keltiriladi.

Tayanch tushunchalar: Zand, Denkart, Mitra, Yasht, Zaroastr, Axriman, Vata

Savol va topshiriqlar:

1. *Ilk temir asrida diniy tasavvurlar va tushunchalar to'g'risida nimalarni bilasiz?*
2. *Zardushtiylik dinining kelib chiqishi va asoslarini gapirib bering?*
3. *“Avesto” to'g'risida nimalarni bilasiz?*
4. *Zardushtiylik dinining vatani to'g'risida nimalarni bilasiz?*
5. *Zardusht kim bo'lgan?*

2.3. Qadimgi Eron Ahamoniylar davlatining tashkil topishi va uning jahonga hukmronlik g'oyasi

O'quv maqsadi: Qadimgi Elam davlati, eramizdan avvalgi I ming yilliklarning boshida Eron davlati, aholisi, hududi, mashg'ulotlari, davlat tuzumi, Ahamoniylar davlati va saltanatini tashkil topishi, Ahamoniylarning jahonga hukmronlik siyosati, Kir II ning G'arb va Sharq mamlakatlari bosqinchilik yurishlari, Ahamoniylar saltanati dunyoning turli mintaqasida yashayotgan elat va xalqlarning birlashtirgan birinchi jahon imperiyasi ekanligi haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish, mavzuda ko'rsatilgan tarixiy davr haqida umumiy tushunchalar hosil qilish.

Miloddan avvalgi VI asrda tashkil topgan Ahamoniylar davlati deyarli 2 asr yashadi. Bu mamlakat jahon tarixida o'nlab fors podsholiklari va Misrni to shimoliy-g'arbiy Hindistonga qadar bo'lgan davlat va xalqlarni birlashtirgan yirik davlat edi. U dunyoning yirik bir mintaqasida tarqoq holda yashayotgan xalq va elatlarni siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan birlashtirgan 1-yirik jahon imperiyasi hamdir. Ahamoniylar davlati tarixi amalda Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi edi.

Uning poytaxti Peropol shahri bo'lib, forslarga qadar bu o'lkada elamitlar istiqomat qiladilar. Forslarning bu joyda bo'lishi avval juda tinch, elamit hukmdorlari roziligi bilan osoyishta o'tdi. Keyinroq esa bu o'lka forslar tomonidan elamitlardan zo'rlik bilan tortib olindi. Bu voqealar yozma manbalarning xabar berishicha, miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlarida sodir bo'lgan.

Forslar kelib chiqishi jihatidan elamitlar bilan hech qanday etnik aloqaga ega emas. Forslar, avvalo, Janubiy Eronda joylashgan. So'ngra butun Eronni egallashgan. «Avesto»da ular «azad» nomi bilan yuritilgan. Tarixiy an'analarga ko'ra, azadlar ariylarni tashkil etgan. Ariylar egallagan yurt keyinroq Eron nomini olgan. Juda qadim zamonlarda Eronning forslar egallagan janubiy hududi shumerlar tomonidan Nim (baland) deb yuritilgan, akkadlar esa uni «Elamtu» deb ataganlar. Elamtu xalqlari orasida «Tog'li mamlakat» nomini anglatgan. Elamitlar esa o'z yurtlarini «Xotamtu» deb ataganlar. Umuman olganda forslarni qadimgi tarixiy manbalarida juda kam berilgan bo'lib, 1- marta ular miloddan avvalgi IX asrga oid ossur yozuvlarida tilga olinadi. Bu davrda fors ko'chmanchilarining shimoldan janub tomon ko'chishi ko'zga tashlanadi. Ular Suza shahridan shimoliy - sharqdagi Anshan viloyatidan o'zoq bo'lmagan Parsumash shahriga kelib joylashadi. (Bu nom shaharga forslar bostirib kirib, uni o'zlariniki qilganlaridan keyin berilgan.) Rivoyatlarga ko'ra shu yurtga kachonlardir ko'chib kelib hukmronlikni qo'lga kiritgan forslarning nufuzli oila a'zolaridan biri Ahamon

miloddan avvalgi VIII asrning oxiri va VII asrning boshlarida o'z sulolasiga asos solgan. Bundan ko'rinib turibdiki, forslar allaqachon fors qabilalararo ittifoq tuzishgan. Tarixchi olim Fray o'zining «Nasledie Irana» kitobida fors qabilalari ittifoqini VII asrda aynan Ahamonning o'g'li Chishpish tuzganini ta'kidlaydi. Fransuz arxeologining ta'kidlashicha, ularning boshqaruv markazi Shishtradan 40 km o'zoqlikda bo'lgan Baxtiyor tog'lari territoriyasida bo'lgan. Chishpish, uning o'g'li Kir nabirasi Kambiz va evarasi Kir II lar o'z vaqtida Anshanning hukmdorlari bo'lgan. Bobil shohi Ashshurbanipalning miloddan avvalgi 639 yilga oid xujjatlarida ham Kirning nomi uchraydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Bobil va Parsumash o'rtasida ko'plab qizg'in savdo aloqalari olib borilgan. Ashshurbanipal o'z xujjatlarida Kirni Parsumash qiroli sifatida e'tirof etgan. Anshan shahrining xuddi shu davrga oid hujjatlarida esa aynan Kir I Anshanning qiroli sifatida e'tirof etilgan. Demak Kir I o'sha vaqtning o'zida 2 ta shaharning hukmdori bo'lgan. Bunda o'z-o'zidan bu ikki shahar Kir I ning hukmdorlik davrida birlashtirilgan degan xulosa kelib chiqadi. Lekin ossur manbaalarida asosan bu fikr noto'g'ri, chunki bu manbada Elam shohi Ummanmenanu va uning ittifoqdoshlari haqida yozib qoldirilgan. Bu ittifoqdoshlar 6 ta bo'lib, ular birma-bir sanab o'tiladi va shunda Parsumash va Anshan alohida-alohida tilga olinib o'tilgan.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida, Bobil shohi Ashshurbanipal va Parsuaga (Parsumash) qiroli Kir o'rtasida yozilgan qo'lyozma topib o'rganildi. Bu ko'lyozmaga asosan Kir II va uning ota-bobolari forslar bo'lib, ular Anshan va Persiya hukmdorlari bo'lishgan. Lekin buyuk tarixchi olim Gerodotning yuqoridagi to'rt qirol haqidagi bergan ma'lumotlarida ularni qirollar emas, balki ko'zga ko'ringan xonadon a'zolari, aslzodalari deya ta'kidlaydi. Bunga dalil qilib, Gerodotning Midiya haqidagi yozma manbalarini ko'rsatish mumkin. Unda Gerodot Kir II ning otasi Kambizni tilga olib, uni qirol emas, balki yuqorida aytib o'tilganidek nasl-nasabli aslzoda, ko'zga ko'ringan shaxs sifatida tilga oladi.

Ahamoniylar birinchi bo'lib Midiyani (550) so'ng Lidiyani (546) bosib olganlar. Lidiyadan keyin ular Kichik Osiyodagi yunonlarga qarashli bo'lgan davlatlarni ham o'z tasarruflari ostiga olishadi. Miloddan avvalgi 545 va 539 yillar orasida Kir boshchiligida forslar Marg'iyona, Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, shuningdek Ariya va uning atrofidagi davlatlarni birin-ketin bosib oldi. Gerodotning xabar berishicha, Kichik Osiyoga Kirning o'zi yurish qilmagan, balki uning ishonchli qo'mondanlaridan biri Garpog yurish qilgan.

Kirning o'zi esa Osiyoning yuqori qismida joylashgan xalqlarni bo'ysindirgan. Ahamoniylarning bu barcha davlatlarini bo'ysindirishini olib qaraydigan bo'lsak, ular bu davlatlarni juda chiroyli, oqilona va aniq

o‘ylangan taktika orqali bosib olishgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Misol uchun shuncha bosib olingan davlatlardan fakat bittasini olib ko‘ramiz. Bu davlat forslar tomonidan 550 yilda zabt etilgan Midiyadir.

Kir Midiyani bosib olganidan keyin uning davlat boshqaruvini, madaniyati iqtisodini, siyosati va davlat boshqaruvini o‘zgartirmaydi. Midiyani bosib olgunga qadar qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldiradi va shunday deydi: «Vazirning farzandi vazir, qozining bolasi qozi, dehqonning bolasi dehqon bo‘ladi », deydi.

Qarang, Kirning birgina shu gapidan qancha narsani anglash mumkin. Kir bosib olgan davlatini to‘liq tasarrufiga olish uchun uning milliy bayramlarini xalq bilan birga nishonlaydi. Dinini qabul qiladi, hattoki davlat ramzlarini ham qanday bo‘lsa shunday qabul qiladi. Eng muhimi, ya‘ni Kir zabt etgan davlatni Ahamoniylar davlati deb emas, balki o‘zini «shohlar shohi» va «Midiya Qirol» deb ataydi. Shuning uchun ham Ahamoniylar bosib olgan yerlarda deyarli xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lmagan. Zardushtiylik dini ham ilk bor Midiyada shoh Astiag davriga kelib rivojlana boshladi. Kir II davrida davlat dini darajasiga ko‘tariladi - Kir II Zardushtiylik dinini davlat dini darajasiga ko‘tarishining bir necha sabablari bor edi:

Birinchidan, Zardushtiylik dini din sifatida ommani, ya‘ni turli joyda yashovchi va turlicha hayot tarziga ega xalqlarni bir din atrofida birlashtirishi kerak edi.

Ikkinchidan, turli tabaqa vakillarini va turli kasb egalarini bir joyda jamlash edi.


Uchinchidan, bu shunday bir siyosat ediki, Kir II va undan oldingi fors hukmdorlari bu siyosatni qo‘llashgan, ya‘ni ular yuqorida aytilganidek, bosib olgan mamlakatlaripig hamma narsalarini qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilgan, shu jumladan dinini ham. Ular bosib olgan xalqlarga nisbatan huddi hurmat ko‘rsatgandek bo‘lib. hatto ularning dinini rivojlantirish uchun homiylik ham qilishgan. Va bu narsa ko‘p hollarda o‘z samarasini ko‘rsatgan. Ahamoniylar va shaxsan Kir II jahonga hukmronlik g‘oyasini shunday ta‘riflaydi: "Bu dunyodagi eng to‘g‘ri din Zardushtiylik dinidir. Bu dunyodagi yaratuvchi oliy hukmdor Ahuramazdadir. U, ya‘ni Ahuramazda menga yerdagi hukmronlikni berdi deydi". Shundan so‘ng, Ahamoniylar imperiyasining dunyoga hukmronlik g‘oyasini ilgari suradi va ishlarda uning o‘zi boshchilik qiladi. Bu narsani biz Ahamoniylar davriga oid tanga pullar va ramzlaridan bilib olishimiz mumkin. Ahamoniylar davriga oid ilk tanga va belgilarda" qanotli, osmonga parvoz kilayotgan Ahuramazdani ko‘rishimiz mumkin". Kir II davrida zarb etilgan tangalar va davlat ramzlarida o‘zgarishlar kuzatiladi. Unda Ahuramazda timsolida Kir II paydo bo‘ladi, ya‘ni tanasi, kanoti Ahuramazdaniki bo‘lsa, uning yuzi Kirniki bo‘lgan.

Shunday qilib, Ahamoniylar jahonga hukmronlik g'oyasi asosida o'z yurishlarini so'nggi nuqtasi bo'lmish janub tomon qaratishadi. Va kisha fursat ichida ular Vavilon, ya'ni Bobilni va Misrni qo'lga kiritishadi. Natijada sharqda – Hindiston, g'arbda Egey dengizi, shimolda - hozirgi Armaniston va janubda - Efiopiya yerlarigacha bo'lgan hududda insoniyat tarixida birinchi imperiya « Ahamoniylar imperiyasi » ga asos solganlar.

Tayanch tushunchalar: Ahamon, Kir, Kambiz, Kir II, Parsumash, Anshan, Suza, Midiya, Lidiya, Marg'iyona, Xorazm, So'g'diyona, Ariya, Bobil, Garpog, Ashshurbanipal.

Savol va topshiriqlar:

1. Ahamoniylar qanday g'oya asosida dunyoga hukmronlik qilish rejasini tuzganlar?
2. Nima uchun Kichik Osiyoga Kirning o'zi emas balki ishonchli qo'mon-doni Garpog yurish qilgan?
3. Nega o'zga xalqlar Ahamoniylar tarixini o'rganishda ularni aynan Ahamoniylar deb emas, balki Midiyaliklar deb o'rganishgan?



2.4. Ahamoniylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo

***O'quv maqsadi:** Ahmoniylarning Markaziy Osiyoga dastlabki bosqinchilik yurishlari, ularga qarshi xalq ozodlik kurashlari, Ahmoniylar saltanati davrida Markaziy Osiyoda davlatchilik, boshqaruv, iqtisodiyot, savdo yozuv, din va madaniyat haqida talabalarga ma'lumot berish, tushunchalar hosil qilish va tasavvur berish.*

Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalarida Midiya davlati o'rnida Ahamoniylar davlati tuzildi. Ilk davrlarda Midiya davlatiga vassal qaramlikda bo'lgan Ahamoniylar davlatiga fors qabilasidan bo'lgan Kir II asos soladi. Kir II ko'plab urushlar olib boradi. Gerodotning yozishicha, Kir II Midiyani bosib olgandan so'ng, uning yo'lida Vavilon, Baqtriyaga qarshi esa lashkarboshilaridan birini yuboradi. Shunga qaraganda, Kir II Markaziy Osiyo xalqlarining kuch-qudrati va harbiy tayyorgarligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lgan. Kir II ning Markaziy Osiyoga yurishi haqidagi ayrim ma'lumotlar grek tarixchisi Ktesiyda berilgan. Uning yozishicha, Kir «baqtriyaliklar bilan urushgan va urushda hech qanday tomon ustunlikka erishmagan». Faqatgina baqtriyaliklar Ahamoniylar davlatining ichki siyosiy ahvoli mustahkamlanganligini (Midiya hukmdori Astiagning Kir oldida taslim bo'lishi) bilganlaridan so'nggina, Kirga «ixtiyoriy» bo'ysunganlar.

Doro I (er.av. 530-522 yy.) tomonidan o'yib yozilgan «Bexustun» yozuvlari Ahamoniylar davri tarixini o'rganishdagi muhim manba hisoblanadi. Unda Doro I hukmronligi arafasida Ahamoniylar tarkibida bo'lgan o'lkalar haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. «Bexustun» yozuvlarining birinchi katorida Doro I gacha, ya'ni Kir II tomonidan bosib olingan o'lkalar – Parfiya, Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona va saklar o'lkasini qandaydir qismini bosib olganligi yoziladi. Baqtriya Ahamoniylar davlati yo'q bo'lib ketgunigacha uning tarkibida bo'lgan. U Ahamoniylarning Sharqdagi muhim markazlaridai biri hisoblangan.

Miloddan avvalgi 530 yili Kir II ikkinchi marotaba Markaziy Osiyo ustiga yurish qiladi. Bu yurishdan asosiy ko'zlangan maqsad, Kir II Misrga yurish qilishidan oldin Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi qabilalarni tor-mor qilish edi. Chunki agar to'g'ri Misrga yurish qilganida, ko'chmanchi qabilalar bu qulay vaziyatdan foydalanib, uning saltanatini talab ketishlari mumkin edi. Bu yurish haqidagi ma'lumotlar bir qator antik davr tarixchilarida saqlanib qolgan bo'lsada, lekin ulardagi voqealar turlicha bayon qilinadi. Ularning ayrimlarida Kir II Araks daryosidan o'tib, To'maris boshchiligidagi massagetlar bilan urushgan deb yoziladi. Uchinchi bir manbalarda esa Kir derbiklar bilan va nihoyat, ayrimlarida dayolar bilan jang qilgan deyiladi. Bu

yurish va uning natijalari haqidagi hikoyalar Gerodotda, Trog, Yustinda va boshka mualliflarda berilgan. Lekin Kir P yurishining aniq yunalishi masalasi hozircha o'z yechimini topgani yo'q.

Ba'zi olimlar Araks daryosini Sirdaryo, Amudaryo yoki O'zboy daryolari bilan bog'lashadi. Miloddan avvalgi 530 yil iyun oyi oxiri - avgust oyi boshlarida Kirning Markaziy Osiyo ko'chmanchilari tomonidan tor-mor etilishi Markaziy Osiyo xalqlari tarixidan eng qadimgi, aniq belgilangan sana hisoblanadi. Bu aniq vaqt Vavilon hujjatlaridan kelib chiqadi.

Ma'lumki, ular ichida Kir II nomidan chiqarilgan oxirgi hujjat miloddan avvalgi 530 yil 12 avgust bilan belgilangan bo'lsa, Kir II vafotidan so'ng o'sish o'rniga kelgan Kambiz nomidan berilgan hujjat miloddan avvalgi 522 yil 31 avgust bilan belgilanadi. Demak, Kir II ko'chmanchilar tomonidan avgust oyining boshlarida o'ldirilgan. Ahamoniylar bosqichni mahalliy davlatchilik shakllanish jarayonini to'xtatib qo'ygan bo'lsada, Markaziy Osiyoning bu yirik imperiya tarkibiga qo'shilishi bu yerdagi xalqlar ijtimoiy rivojlanishini tezlashtiradi. Bu hol Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati, urf-odatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mahalliy boylar (aslzodalar) Ahamoniylar davlati hukmdorlari bilan tezda til topishib, ularning yordamida jamiyatdagi o'z mavqeini kuchaytiradilar. Mehnatkash xalq esa bu davrda ikki tomonlama – ham mahalliy boylar, ham Ahamoniylar bosqichilari zulmi ostida qoladi.

Natijada miloddan avvalgi VI asrning 20 - yillarida Marg'iyona va Parfiya qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Ayniqsa, Marg'iyona qo'zg'oloni keng tarqaladi. Bu haqida Bexustun yozuvlarida Doro I tomonidan shunday yoziladi: «...Marg'iyona mamlakati ko'zg'olon ko'tardi. Frada ismli bir kishini ular boshliq etdilar. Shundan keyin men Baqtriya satrapi, mening qulim Dadarshish ismli forsni yuborib, unga shunday dedim: «Bor, meni tan olmayotgan qo'shinni tormor qil». Shundan keyin Dadarshish jo'nab ketdi va marg'yonaliklar bilan jang qildi. Axura-Mazda inoyati ila mening ko'shinim ko'zg'olon ko'targan qo'shinni yengdi. Mamlakat meniki bo'ldi». Bexustun yozuvidagi bu haqidagi sana miloddan avvalgi 522 yilning 10 dekabriga to'g'ri keladi va Kir II ning ko'chmanchilar tomonidan tor-mor etilgan vaqti bilan birga Markaziy Osiyo tarixidagi eng qadimgi, aniq belgilangan sanalar hisoblanadi. Ahamoniylar davlati satrapliklarga bo'lingan. Ularni satraplar boshqargan. Doro I davrila 20 ta satraplik bo'lgan. Markaziy Osiyo to'rtta satraplikka bo'lingan. Gerodotning yozishicha, Kaspiy dengizi qirg'oqlari bo'ylab hayot kechirgan ko'chmanchi qabilalar XI satraplik tarkibiga kirganlar va Ahamoniylarga yiliga 200 vavilon kumush talanti (talant — 30 kg ga yaqin kumush) mikdorida xiroj to'laganlar. Xorazm, Sug'diyona va Parfiya XVI satraplik tarkibiga kirib, 300 talant to'laganlar.

Baqtriya XII satraplikni tashkil etib, 360 talant to‘lagan, saklar XV satraplikning tarkibiga kirib, 250 talant to‘laganlar.

Ahamoniylar davlati harbiy aristokratik davlat bo‘lib, hukmron forslar va midiyaliklardan chiqqan boylarga tegishli bo‘lgan.

Markaziy Osiyo mahalliy ma‘muriyatining hokimiyati ham katta bo‘lgan. Asta-sekinlik bilan ular orasida separatizm kuchayib borgan. Qarshilik ko‘rsatishning markazi Baqtriya bo‘lgan. Bu satraplikning Ahamoniylar podsholigi tarkibidagi ahamiyagi shunchalik ediki, Baqtriya noibligiga albatta Ahamoniylar xonadoniga mansub shahzodalardan tayinlarnardi. Aynan shu satraplik tez-tez markazga qarshilik harakati olib borgan. Miloddan avvalgi IV asrdagi Ahamoniylar davlati kuchsizlanish jarayoni bu harakatni yanada kuchaytirdi. Miloddan avvalgi IV asrning 2-yarmidan Xorazm mustakilligini tiklaydi. Kuchsizlanib qolgan Ahamoniylar davlati miloddan avvalgi IV asrda Makedoniyalik Aleksandr qo‘shinlari tomondan bosib olingan.

Ahamoniylar davlati 200 yil hukm surdi va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu davrda yirik ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, yagona pul tizimi, soliq tizimi, ma‘muriy bo‘linish tizimi, yagona umumdavlat yozuvi – oromiy yozuvi paydo bo‘ladi. Shuningdek, davlat pochasi tashkil topadi. Qadimgi karvon yullari qayta tiklanib, yangilari ko‘riladi. Amaldagi turli xalqlarning qonunlari bilan birga yagona yangi davlat qonunlari ishlab chiqiladi. Ahamoniylar davrida xalqaro savdoga qulay imkoniyatlar yaratiladi. Yagona davlat tarkibidagi turli xalqlar ilmiy bilimlari, san‘ati va diniy tushunchalari bir-birlarini to‘ldirib, boyitib, barcha xalqlarning boyligiga aylanadi. Ahamoniylar davrida Markaziy Osiyoliklar ilk bor zarb qilingan tanga pul bilan, oromiy yozuvi bilan tanishishdi, bunga Markaziy Osiyo hududlarida Ahamoniylar davrida amalda bo‘lgan tilla va boshqa tangalarning topilganligini dalil sifatida ko‘rsatish mumkin. Markaziy Osiyo xalqlari yagona davlat tarkibidagi qadimgi Elam, Vavilon, Misr sivilizatsiyasi bilan tanishadi. Ahamoniylar davlati madaniy hayotida Markaziy Osiyo xalqlari: baqtriyaliklar, xorazmiylar, sug‘diylar, parfiyaliklar, marg‘iyonaliklar va saklar ham muhim o‘rin egallaganlar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ahamoniylar sulolasi xukmronligi davridagi Markaziy Osiyo sharqiy eroniy xalqlarning ijtimoiy - iqtisodiy turmush tarzi g‘arbiy eronliklardan tubdan farq qilgan.

Markaziy Osiyoda ham kuldorlik tuzumlari rivojlangan bo‘lsada, bu yerda u xo‘jalikning asosiy omili bo‘lib qolmadi. Bu yerda qabilaviy urug‘ jamoalarni yetakchi rol o‘ynagan. Ahamoniylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi Markaziy Osiyoning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga ikki xil ta‘sir ko‘rsatdi. Bir tomondan bu yerda quldorlik tizimi rivojlanishini

tezlashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning xonavayron bo'lishiga olib keldi. Mamlakatdan juda ko'p boyliklar o'lpon tarzida olib chiqib ketilar, usta hunarmandlar esa Ahamoniy podshohlar saroylarini qurish uchun poytaxtga jo'natilar edi.

Afrosiyob shahar qoldiqlarini o'rganish davomida arxeologik materiallar, hamda antik davr tarixchilari qaydnomalaridan So'g'dning o'sha davrdagi hayotini umumiy tarzda tasvirlash imkonini beradi. So'g'dning bu davrdagi ijtimoiy - iqtisodiy hayotida dehqonchilik asosiy rol o'ynagan. Bu vaqtga kelib So'g'dda dehqonchilik sun'iy sug'orish usuliga o'tib bo'lgan edi. Ahamoniylar hukmronligining so'nggi davrida So'g'dda dehqonchilikning rivojlanganligi haqida tarixiy qo'lyozmachalarda ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Jumladan, yunon tarixchisi Strabon, Politimed, ya'ni Zarafshon daryosi haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Mahalliy yerlarni sug'orgach, daryo sahro tomon oqib, o'sha yerda qumlarga singib ketadi ". Demak, Zarafshon daryosi so'g'diylar qazigan ko'plab kanallarga qo'shib, so'ngra cho'l tomonga oqib ketgan ekan.

Aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qishloq manzilgohlari bilan bir qatorda shaharlar ham bo'lgan. Ulardan eng yirigi esa Marokand shahri bo'lgan. Shahar ichidan Siyob daryosi oqib o'tgan. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qadimgi Samarqand shahri (yoki uning markazi) Afrosiyob shahar - kal'asi o'rnida bo'lgan.

Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotlari mil. avv. VI-V asrlarda Xorazmda yirik aholisi manzilgohlari mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda. Ulardan biri Ko'zaliqir shahri hisoblanib, u uchburchak shaklida bo'lib, 1 km masofagacha cho'zilgan. Shahar - kal'aning tashqi perimetrlari yo'laksimon bo'lib, eni 2,5 metrdan 4 metrgacha bo'lgan. O'rganilayotgan davr Xorazm yodgorliklariga, shuningdek, Dingilja va Qal'aliqir aholi manzilgohlarini kiritish mumkin.

Marg'iyo'na o'zining serhosil dalalari bilan mashhur bo'lgan. Strabonning qayd etishicha, Marg'iyo'kada juda ajoyib uzum navi yetishtirilgan. Vu yerda Ahamoniylar sulolasi hukmronligidan avvalroq yirik aholi turar - joylari qadimiy ko'targan. Ularning eng yirigi Gayurqal'a o'rnidagi qadimgi Marv shahar kal'asi bo'lgan.

Shimoliy Parfiya (Marv) da Yelkantepa shahar - qal'asi asosiy turar - joylaridan biri bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar shu davrda Marv vohasida yirik sug'orish kanallari mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqsa. Arxeologlar tomonidan bu yerdan ko'plab buyumlar topib o'rganilgan.

Baqtriya ham aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Kvint Kursiy Ruf Baqtriya uzumzorlari va boshqa jihatlari haqida to'xtalsa, yunonlik yana bir tarixchi Pliniy esa Baqtriya g'allasini tilga oladi.

Baqtriya dehqonchilik lalmikor va sun'iy sug'orish asosida tashkil etilgan bo'lgan. Mil. avv. I ming yillik o'rtalariga taalluqli ekanligi ma'lum

bo'ldi. Arxeolog M.M.Dyakonovning Qal'ai Mir shahar - kal'asida olib bor-
gan tadqiqot ishlari natijasida Shimoliy Baqtriya madaniyatiga doir noyob
materiallar topildi. Shahar qal'aning tashqi devori boshqalariga qaraganda
qalinroq edi. Bu yerdan ham huddi Samarqand va Marvdagi kabi turli idishlar
topildi. Jumladan, ular sirasiga bronzadan yasalgan o'q - yoy uchlari (mil.
avv. VII - VI asrlarga taalluqli) va temir buyumlar (pichok, igna)ni kiritish
mumkin. Bu yerning aholisi kulolchilik, tikuvchilik, temirchilik, bronzaga
ishlov berish, hamda qishloq xo'jaligi - sug'orma dehqonchilik va chorva-
chilik bilan shug'ullanishgan. Mil. avv. V - IV asrlarga tegishli yana bir
yodgorlik Qo'rg'ontepa yaqinidagi Bo'ldoytepa yodgorligi bo'lib, u
T.I.Zeymal tomonidan Vaxsh vodiysida topib o'rganilgan.

Baqtriyada badiiy hunarmandchilik juda rivojlangan edi. Buni "Amu-
daryo hazinasi" nomi ostiga kirgan yirik san'at namunalari to'plamidan ham
bilish mumkin. "Amudaryo hazinasi" jami 180 ta oltin va kumushdan ishlan-
gan buyum va ko'plab tilla va kumush tangalardan iborat bo'lgan. Bu buyum-
larning barchasini 1877 yilda Qabodiyonda Buxoro savdogari mahalliy
aholidan sotib olishgan. So'ngra ular bu narsalarni Hindistonga olib ketish-
gan. Keyinchalik "Amudaryo hazinasi" nomi ostidagi bu qimmatbaho
buyumlar olimlar qo'lga kelib tushgan. Ingliz tarixchisi A. Kenningem:
"...bu boy Baqtriyalik xonadoniga tegishli xususiy xazina" degan.

Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniylar armiyasidagi o'rni ham
katta edi. Yunon - Eron urushi Marafon jangida ham fors piyodalaridan sak
chavandozlari ajralib turgan va afinaliklar qo'shinining markaziy chizig'ini
chekinishga majbur qilgan.

Shunday qilib, Ahamoniylar davrida ko'pchilik Markaziy Osiyo
xalqlarining jahon sivilizatsiyasining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidagi
o'rni juda katta bo'lgan. Ajdodlarimiz shu davrlardanoq chet el bosqin-
chilariga qarshi mardona kurash olib borishgan. Shu bilan birgalikda o'z-
larining madaniy xususiyatlariini saqlab qolishga muvaffaq bo'lishdi.

Tayanch tushunchalar: Sak va massagetlar, xalq ozodlik kurashlari,
Ahamoniylar, Doro I, Kir II, To'maris, Bexustun yozuvlari, oromiy
yozuvi, xorazm yozuvi, satraplik, talant.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ahamoniylarning Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlari haqida qanday manbalarda ma'lumotlar uchraydi?*
2. *Kir II ning Markaziy Osiyoni bosib olishidan asosiy maqsadi nima edi?*
3. *Sak va massagetlarning Ahamoniylarga qarshi kurashi haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Ahamoniylar Markaziy Osiyoning qaysi hududlarini bosib olmadi?*
5. *Ahamoniylar davrida Markaziy Osiyoda davlatchilik, madaniyat, din qanday bo'lgan?*

2.5. Iskandar saltanatining tashkil topishi, boshqaruvi va parchalanishi

***O'quv maqsadi:** Makedoniya davlatining tashkil topishi, Iskandarning taxtga chiqishi, harbiy yurishlari, saltanati, undagi boshqaruv tizimi va parchalanishini sabablari haqida talabalarda tarixiy tasavvurlarni hosil qilish, tushunchalar berish va qiyosiy tahlilga o'rgatish.*

Iskandar (mil. avv. 356-323 yillar) qadimgi dunyoning yirik lashkarboshi va davlat arboblardan biri. U makedoniyadan chiqqanligi uchun tarixda Makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makendonskiy) nomi bilan mashhur.

Iskandar o'z zamonasining tengi yo'q lashkarboshlaridan edi. U siyosatda o'ta ehtiyotkor, ayyor va xushyor davlat arbobi edi. U yirik lashkarboshi sifatida antik davr harbiy sanatining rivojlanishi tarixida katta iz qoldirdi. Jahongir yangi tipdagi otliq qo'shin tuzdi, unda jangovar intizom, tartib qoidalarni ishlab chiqdi. Jang qilish usullarini yaratdi. U tezlikni, qat'iylikni jangdagi g'alabani ta'minlaydigan omillardan deb tushunadi.

Iskandar 356 yilda Makedoniyani poytaxti bo'lmish Pelleda dunyoga keldi (iyunning oxiri-iyul). Uning otasi Filipp II qadimgi Makedoniyaning podsxosi Karonni avlodi bo'lib, o'zini kelib chiqishini Zevsning o'g'li Gerakl bilan ham bog'laydi. Onasi Olimpiada esa Epir shohining qizi bo'lib, o'zini kelib chiqishini afsonaviy Ahilla bilan bog'laydi. Hamma shohlar singari Iskandarning ham dunyoga kelishi olimlar tomonidan afsonalarga kelib to'xtaladi. Uning sharqqa yurishlari haqida Arrian o'z asarlarida yozgan bo'ls, Plutarx va Diador o'z e'tiborlarini ko'proq uning bolaligiga qaratishadi.

XIX-XX asr olimlarining ko'pchiligi Aleksandr haqida nafaqat adabiyotlardagi ma'lumotlarni, balki o'zlarining ko'shimcha tarzidagi ma'lumotlarini ham yozib qoldirishgan. Avstriyalik tarixchi F. Shakermeyr uning o'spirinlik davrini o'rganib, Iskandar o'sha paytdanoq Osiyoni zabt etish haqida o'ylaganini yozadi.

Plutarxning yozishicha, Iskandar tug'ilganida dunyoning 7-mo'jizasi bo'lmish Artemidaga o't ketgan ekan. Exromning bu holga tushishi Osiyoning bo'lajak hukmdori tug'ilganidan dalolat berardi. Iskandarga xos fe'l-atvor yoshligidanoq namoyon bo'ladi: otashin qalbli, o'ta sezgir, nafratda ham muhabbatda ham chegara bilmovchi, ko'ngilchan, qattiqqo'l, irodasi kuchli shaxs. Yosh Aleksandrda xos bu xususiyatlar buyuk lashkarboshi, jahongir shoh qiyofasida yanada keskin tus oldi. Shu bilan birga uning dunyodagi eng asov ot bo'lmish Bunefasni bo'ysundirishi ham taxsinga loyiqdir.

Iskandarning onasi Olimpiada o'ta shuhratparast, hammaga o'z amrini o'tkazishni yaxshi ko'rgan, qattiqqo'l ayol edi. U o'z raqiblarini, hatto hali tug'ilmagan, lekin taxtga merosxo'r bo'lishi mumkin bo'lganlarning hammasini sovuqqonlik bilan yo'q qilib tashlaydi. Iskandarning tarbiyasini Olimpiada o'z qarindoshi Leonidga topshiradi, o'z navbatida Lisimax ismli grekni yollaydi. Leonid Aleksandrni katiqko'llik bilan, qiyinchiliklarga bardosh beruvchi etib tarbiyalaydi. Filipp o'g'li tarbiyasiga jiddiy e'tibor berib, shahzoda 13 yoshida ekanida buyuk olim, faylasuf Aristotelni taklif etadi. Olim shahzodani olib Pelledan uzoq bo'lmagan Mieze shahriga yo'l olishadi. U yerga Iskandar bilan birga makedonlarning aslzoda oilalaridan bo'lgan uning do'stlari: Gorpala, Ptlamiya, Erigiya va boshkalar ham borishadi. Iskandar Mieziyoda 3 yil yashaydi. Olim Iskandarga falsafa, adabiyot, san'at, tibbiyot fanlari va geografiyadan bilim beradi. Hamma fanlarni qiziqib o'rgangan, iste'dod egasi bo'lgan Iskandar, ayniqsa, geografiyaga qiziqadi. Uzoq-uzoq noma'lum o'lkalar, xalqlar uni hayolga cho'mdiradi. Iskandarning jahongir bo'lib yetishishida Arastuning xizmati katta bo'ldi, u taraflarda hali greklarga ma'lum bo'lmagan yerlar, xalqlar, tabiat haqida qiziqish uyg'otdi. Lekin faylasuf jahon imperiyasi, G'arb va Sharq xalqlarini birlashtirish g'oyasidan uzoq, aksincha, greklardan o'zga xalqlarni "var-var" deb bilar va bu g'oyani shahzodaga singdirishga ham urinar edi.

340 yillardan boshlab Filip o'g'lini davlat ishlariga jalb etadi. Hatto kichikroq bir harbiy to'qnashuvni hal etishni ham topshiradi. Bu jangda Iskandar birinchi g'alabani qo'lga kiritadi.

Filipp Bolqon yarim oroli davlatlari o'ziga qaratish bilan kifoyalanmay, Gresiyaga ham ko'z olaytiradi. U Grek shahar davlatlari o'rtasidagi kelishmovchilikdan foydalanib, 338 yil Xeroneyada yuz bergai jangda greklarni mag'lubiyatga uchratadi. Lekin greklar ustidan g'alaba qozonish Elladaga hukmron bo'lish degan gap emas, bunga Filipgina emas, hatto buyuk Aleksandr ham jur'at etolmaydi. Makedoniya g'alabasi natijasi "Korinf ittifoqi" tuzish bilan cheklaniladi. "Ittifoq" a'zolari muntazam ravishda kelib chiqqan masalalarni birgalikda hal etar, polislar o'rtasida urushlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymas edi. Shunisi qiziqki, g'olib Filipp Ittifoqda hal etuvchi ovozga ega emas, faqat o'z maslahatini berishi mumkin edi xolos. Har holda qanday bo'lmasin, Makedoniya shohi Grek davlatlari gegemoni darajasiga ko'tarildi, greklar yarim badaviy shimoliy qo'shnisi bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar. O'z navbatida Makedoniya Ellada shahar-davlatlari darajasiga ko'tarilgandek bo'ldi. Filipp bu erishilgan zafarlar bilan qanoatlanmay, Eronni zabt etishni rejalashtiradi. Lekin niyatiga yetolmay, eradan avvalgi 336 yili saroy bazmi vaqtida o'ldiriladi. Filipp vafot etganida Iskandar 19 yoshda edi. Filipp tomondan Iskandar rasmiy ravishda taxt merosxo'ri deb e'lon qilingan

bo'lsada, Makedoniyada vorislar tomonidan taxtga o'tirish bir qonun holiga kelmagan, qaysi farzand kuchli bo'lsa. o'sha podshoh bo'lar va uni lashkarlar yig'ini qo'llab-quvvatlashi shart edi. Bu marosimda marhum shoxga yaqin bo'lgan davlat arbobi Antipatr katta rol o'ynaydi. Taxtu tojga ega bo'lgan 19 yoshli Iskandar o'z raqiblari va taxtga da'vo kilishi mumkin bo'lgan erkak zotini quritadi va mutlaq hokim bo'lib qoladi.

Shoh vafotidan so'ng Makedoniyaga qaram etilgan xalqlar mustaqil bo'lish istagida Iskandarga qarshi kurashadilar. Yosh shoh tezlikda, tadbir-korlik bilan jangda g'olib chiqadi, lashkarboshilik mahoratini ko'rsatadi va otasi yaratgan yirik davlatni yanada mustahkamlaydi. Ammo Gresiya polislari Iskandarni tan olishdan bosh tortadilar. Gresiyaga rahbarlikni yo'qotishni hech istamagan Iskandar yashin tezligida, hech kutilmaganda Fessaliya, Fivaga yurish qiladi. Endi Afina qolgan edi. Bu buyuk shaharga elchi yuborib uni ham o'ziga qaratadi. Spartadan boshqa hamma grek-shahar davlatlari Iskandarni gegemon deb tan olishga majbur bo'ladilar.

Iskandarning maqsadi faqat otasi yaratgan davlat va Makedoniyaning Bolqon yarim orolida tutgan o'rnini mustahkamlash bilan cheklanish emas, balki Eronni zabt etish va hattoki afsonaviy Sharq mamlakatlari, Hindistonni o'ziga qaratish va jahon hokimi bo'lish edi. O'z xatti-harakatlarini oqlash va orqani mustahkamlash maksadida Iskandar Eronga qarshi urushni greklar uchun o'ch olish va Ioniyaning eroniy-lardan ozod etish deb e'lon qiladi. Bu taktik harakat natijasida grek polislari ittifoqi Eronga qarshi urushni olqishlaydilar va Iskandarni bu yurishning rahbari etib tayinlashta rozilik beradilar.

Osiyo yurishiga tayyorlanar ekan, Aleksandr saroy ahllari, do'stlari, olim-faylasuflar, geograf, tarixchi, shoir, hattotlar, shifokorlar, mulozimlar, harbiy texnika mutaxassislari va lashkarboshilarni o'zi bilan birga olib ketishga tayyorlaydi. Harbiy kuch sifatida Makedoniya va Bolkon yarim orolidagi qaram xalqlar lashkari, grek shaharlari ko'ngillilari, Afinaning kuchli harbiy flotini tayyorlaydi. Ammo Aleksandr hozirlagan harbiy kuch, ayniqsa, lashkarlar soni Eronnikidan bir necha barobar kam edi. Lekin yaxshi yo'lga ko'yilgan intizom, o'sha davr uchun ilg'or bo'lgan harbiy texnika, Aleksandr qo'llagan harbiy taktika Eron lashkarlari ustidan g'alaba qozonishda asosiy omil bo'ldi.

Eron bir qancha satrapliklar (viloyatlar)ga bo'lingan patriarxal tizimga asoslangan, Markaziy Osiyodan Misrgacha bo'lgan hududni birlashtirgan yirik imperiya edi. Lekin har bir satrap o'zini shoh deb bilar va shahanshohning ularga ishonchi kam edi. Shuning uchun harbiy kuch lashkarlar asosan greklardan yollangandi. Harbiy texnika esa umuman yo'k, lashkarlar aroba, otda va piyoda jang qilar edilar.

Kichik Osiyodagi g'arbiy sohillarni Aleksandr juda osonlik bilan qo'lga kiritdi. U hamma vaqt dushman hech kutmagan joy va vaqtda yashin tezligida hujum qilar va uni hayratda qoldirib, g'alaba qozonar edi.

Kichik Osiyodagi Geranikda xuddi shunday bo'ldi. Yo'ldan charchab kelgan lashkarlar shoh rahbarligida to'g'ridan-to'g'ri hujum boshladilar va g'alaba qozondilar. Ana shu birinchi jangning o'zi Aleksandrning beqiyos lashkarboshilik salohiyati, makedoniyaliklarning jang qilish usuli eronliklardan ustun ekanligini ko'rsatdi. Eradan avvalgi 334-333 yillarda Aleksandr Kichik Osiyoni g'arbiy sohili, yunon orollarini eronliklardan ozod qildi.

Ishg'ol etilgan orol, viloyat va shaharlarda Aleksandr hokimlar (sagraplar)ni qoldirsa ham, davlat tizimi jahonda birinchi marotaba markazlashgan davlat apparatiga aylangan edi. Aleksandr otasi Filippning greklarga nisbatan do'stona siyosatini davom ettirish bilan Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining xayrixohligiga erishdi. Umuman, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy masalalarda otasi boshlagan siyosatni yanada rivojlantirdi. Shuning uchun ko'pchilik tarixchilar "Aleksandr Filipp ekkan hosilni yig'di", deyдилar.

Endilikda Aleksandr butun Kichik Osiyoni zabt etishga kirishadi. Eradan avvalgi 333 yili Issda bo'lib o'tgan jangda shohlarning o'zlari lashkarlariga boshchilik qildilar. Aleksandr lashkarlarining oldingi qismida turib jangga rahbarlik kilsa, Eron shohi Doro II otliq lashkarlar qurshovida qo'shin ortida turib buyruq beradi. Jangda Aleksandr lashkarlarni yorib o'tib, Doroga yaqinlashganida, eronshox jangga rahbarlik qilish o'rniga, vaximaga tushib qochadi. Buni ko'rgan lashkarboshilar ham chekinadilar. Ikki soat davom etgan dahshatli jangda makedoniyaliklar g'olib chiqib, boy o'ljani qo'lga kiritadilar.

333-332 yillarda lashkarboshi Parmenion Damashqni jangsiz egalaydi. Ana shu vaqtda Doro sulh tuzish, tinch va birodarlikda yashashni taklif etib, elchilar yuboradi. Aleksandr esa taklifni rad etib, mutlaq taslim bo'lishni talab qiladi. Aleksandr Markaziy Eronni emas, unga qaram mamlakatlar Finikiya, eroniylarning O'rta dengizdagi tayanchi, eng mustahkam istexkomli shahar Tirni 332 yil yozida ishg'ol qiladi. Bu g'alaba Aleksandr obro'yini yanada ko'taradi. Endilikda Doro yana sulhni taklif etib, Yefrat daryosining g'arbidagi hamma hududni olishni, qizini berish, o'g'li O'xni shaxsiy garov sifatida qoldirish va Damashqda asir etib olingan onasi, oilasi, qarami uchun o'n ming talant (oltin pul o'lchovi) berishni taklif etadi. Olamshumul maqsadni mo'ljallagan Aleksandr bu taklifni ham rad etadi.

Endi Aleksandr Tirdan Sinay yarim orolini bosib o'tib janubga, Misr tomonga yo'l oladi va osongina jangsiz bu qadimiy mamlakatni egallaydi.

Aleksandr Misr ma'budlariga nazr-niyozlar berib, ularni tan oladi, natijada kohinlar Uni bosh xudo Amonning o'g'li, Misr fir'avni sifatida tan oladilar va yosh shoh jahonni zabt etish qudratiga ega va uni amalga oshiradi, deb e'lon qiladilar. Misrliklar e'tiqodiga ko'ra, mamlakatni idora etuvchi hokim Amon avlodidan bo'lishi shart. O'shandagina u mamlakatni idora etish huquqiga ega bo'lar edi. Aleksandr Amonning o'g'li ekanligi haqidagi mif o'z navbatida yana afsonalar tug'diradi: Aleksandr Filippning emas, balki vaqtincha quvg'in bo'lib Makedoniyaga borib qolgan Nektanebning o'g'li, u ajdar (ba'zi o'rinda ilon) qiyofasiga kirib, Olimpiada bilan uchrashadi, natijada Aleksandr dunyoga keladi.

Amonni qo'chqor qiyofasida, ikki shoxli etib tasvirlar edilar, demak, Amonning o'g'li deb e'lon qilgan Aleksandr ham shoxlik bo'lishi kerak edi. Aleksandrning ana shunday tasvirlari Misr, Bobillarda ko'p tarqalgan edi. Amon-Aleksandr, Aleksandr Zulqarnayn (ikki shoxli) degan tushuncha Misr orqali arab mamlakatlariga ham yetib keladi va Qur'onga ham kirgan, islom orqali esa sharq mamlakatlariga tarqaladi.

324 yili Afina xalq majlisi dekreti bilan Aleksandr Gresiyada ham xudo sifatida tan olingan edi (bunga bir oz bo'lsa-da, asos bor, chunki Makedoniya shohlari Heraklni o'zlarining ajdodi deb, Heraklni esa Zevsning o'g'li deb hisoblaganlar). Shuning uchun Aleksandr haqida gap borar ekan "Zevs – Amonning o'g'li" deb aytilgan.

331 yili Aleksandr Doro bilan asosiy jangga o'tlanadi. Issda bo'lib o'tgan jangdan so'ng ikki yil vaqt o'tgan bo'lib, Doro bu to'qnashuvga yaxshigina tayyorgarlik ko'radi. Haqiqatan eronshoh Aleksandrnikidan bir necha bor ortiq bo'lgan suvoriy lashkarlar, arobalar, 15 filga ega edi. Shunga qaramay, makedoniyaliklarga xos bo'lgan yaxshi intizom, tezkorlik, oqilona rahbarlik tufayli 331 yili Nineviya vayronalariga yaqin bo'lgan Gavgameldagi jangda yana Aleksandr g'alabani qo'lga kiritadi. Doro ketidan lashkarlar betartib holda qochadilar. Antik mualliflari (Plutarx) bergan xabarlariga ko'ra faqat baqtriyalik va sug'diyonalik suvoriylar tartib bilan chekinadilar xolos. Aleksandr g'alaba bilan cheklanmay, Droni quvib, yo'l yo'lakay Bobilni jangsiz qo'lga kiritadi. Bobil satrapi, kohinlar, shahar aholisi muzaffar shohni tantanali ravishla qarshi oladilar. Doro Midiyaga qochadi. Aleksandrni endi "Osiyo shohi" deb e'lon kiladilar. 323 yili Aleksandr Bobilni poytaxt deb e'lon qiladi va hamrohlari, saroy ahllari, lashkarlari, harami, malikalari bilan shu yerda joylashadi. Jahonning yarmini zabt etgan Makedoniya shohi, ajoyib lashkarboshining shuhrati G'arb va Sharq xalqlariga keng tarqaladi, turli davlatlar, xalq va elatlar uning oldiga elchilar yuboradilar va shohlar shohiga o'z xayrixohliklarini izhor qiladilar. Tinch, osoyishta hayotga o'rganmagan Aleksandr Italiya yurishiga o'tlanayotgan paytda og'ir kasalga chalinib, 323 yilning 13 iyunida o'ttiz uch yoshga to'lmay, Bobilda vafot etadi.

Aleksandr taxtga o'tirganida erkak qarindoshlarining hammasini yo'q qilgan, o'zidan ham zurriyot qoldirmagan. Shoh vafotidan to'rt oy o'tgach, Roksana o'g'il ko'radi va otini Aleksandr qo'yadilar. Lekin taxt uchun kurashda yosh shahzoda ham yoshiga yetmay halok bo'ladi.


Tarixiy sharoitga binoan Aleksandr o'z nste'dodi va qurol kuchi bilan yaratgan favqulodda birlashtirilgan katta imperiya davlati yashashi mumkin bo'lmaganidek, avvalgi holatga qaytishi ham g'ayritabiiy bo'lar edi.

Aleksandr vafotidan so'ng hokimiyat shohning eng yaqin lashkar boshlari qo'liga o'tadi. Ular diadoxlar, ya'ni vorislar yoki epigonlar — vorislar vorisi, deb ataldilar. Shohdan keyinroq imperiyaga hokimlik qilish uchun diadoxlar o'zaro kurash boshlaydilar, lekin birortasi ham yengib chiqa olmaydi. Uning usiga Aleksandr vafoti haqidagi xabarni eshitgan xalqlar ozodlik uchun qo'zg'olon boshlaydilar. Antik mualliflarining ma'lumotiga ko'ra Murg'ob vodiysida barpo etilgan shahar - Marg'iyona Aleksandriyasini varvarlar vayron qiladilar (Pliniy, IV, 16). 301 yili Frigiyaning Ips deb atalgan joyida qonli janglar natijasida Aleksandr imperiyasi uch mustaqil davlatga taqsimlanadi: Makedoniya, Misr, Suriya va Sharqiy Makedoniya Antiox avlodlariga; Misr- Ptolemey avlodlariga, Suriyadan to Hindistongacha Salavka tegdi (Appian. "Siriyskie dela", 55). Natijada Yevropa, Yaqin va Markaziy Osiyoda o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy talablarni oldinga surgan ellinistik davlatlar tashkil topdi, jahon tarixida ellinizm deb atalgan davr, ikki kit'a madaniyatining o'zaro ta'sir davri boshlandi.

Tayanch tushunchalar: Makedoniya, Filipp II, Aristotel, Doro III, Granik, Iss, Gavgamel, falangga, Bobil, Baqtriya, Iskandar saltanati.

Savol va topshiriqlar:

1. *Makedoniyalik Iskandar saltanatining tashkil topishi haqida gapirib bering.*
2. *Iskandar hokimiyat tepasiga qay tarzda keldi?*
3. *Makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Iskandar saltanati nega parchalanib ketdi?*



2.6. Iskandarning Markaziy Osiyoga yurishlari

***O'quv maqsadi:** Iskandarga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarning ozodlik kurashi, so'g'd xalqining Spitamen boshchiligida bosqinchilarga qarshi olib borgan ozodlik kurashi, Iskandarning Markaziy Osiyoni bo'y-sundirishi va uning oqibatlari haqida talabalarga tushuncha berish, tarixiy davr haqida tasavvur hosil qilish va muayyan ko'nikmalar shakllanishiga erishish.*

Iskandar Ahamoniylar saltanatining markaziy hududlarini egallab, zafarli yurishini Sharqqa qarab davom ettiradi. Olingi mavzuda aytib o'tganimizdek, Doro III yaqin qarindoshi Bess tomonidan o'ldiriladi. Baqtriyaning sobiq satrapi Bess ahamoniylar xonodoniga qarindoshligidan foydalanib o'zini shoh deb e'lon qiladi va Artakserks nomini qabul qiladi. Ammo Iskandarning shiddatli hujumlariga qarshi jiddiy qarshilik ko'rsata olmaydi. Bu vaqtda Bess-Artakserks So'g'diyona ichkarisiga qarab ketadi, ammo yangi podshoni xoinligini bilgan Spitamen, Arimaz, Avstan va Datafern kabi so'g'diy sarkardalar unga qarshi bosh ko'taradilar. Iskandar bundan xabardor bo'lib, sxoshilinch ravishda lashkarboshi Ptolemeyni Nautakaga yuboradi. Arrianning aytishicha, Oksdan Nautakagacha o'n kunlik yo'l bo'lgan, ammo bu masofani Ptolomey qo'shinlari to'rt kun ichida bosib o'tganlar. Soqchilar o'zlari qo'riqlab turgan Bessni maxsus joyga qoldirib, Spitamen tarafdorlari bilan birga makedoniyaliklar uchun noma'lum bo'lgan tomonga qarab ketadilar.

Yo'lboshchilar va jangchilarsiz qoldirilgan Nautaka hamda Marokanda shaharlarini Iskandar osonlik bilan qo'lga kiritadi. Faqat Maroqanda atrofida joylashgan bosqinchilarga qarshilik ko'rsatgan so'g'diylar uy-qo'rg'onlari podsho buyrug'iga binoan vayron qilinadi. Iskandar jangda o'ta berahm edi. U Naukatdan chiqib Samarqandga yo'l olar ekan, yo'lda bir zamonlar Eron-Yunoniston urushlari davrida ko'chirib keltirilgan milletlik branxit qabilasining avlodlariga duch keladi. Tarixchilardan Arrian va Kvint Kursiy Ruflarning xabar berishiga qaraganda, Iskandar va uning qo'shinlari o'z vatandoshi sifatida hursandchilik bilan kutib olishga chiqqan begunoh branxidlarni qirib tashlaydi va ularning shahar va qishloqlarining kulini ko'kka sovuradi. Yunonlar so'ngra Samarqandni egallaydi. Iskandar u yerda kichik bir otryad qoldirib, o'zi Sirdaryo tomon sxoshiladi. Iskandar Samarqandni egallagan paytda shahar, deyarli barcha adabiyotlarda yozilgan singari Marokanda deb atalmas edi. Bu nom Samarqandga Yunoniston tarixchilari berganlar.

Iskandar Maroqanda shahrida o'z harbiylarining bir qismini qoldirib, Iskandar Markaziy Osiyoga yurishlarida birinchi bor Ustrushonada-

Samarqand bilan Xo‘jand oralig‘ida tog‘liklar qarshiligiga uchraydi. Biroq Iskandar tog‘liklar bilan bo‘lgan jangda o‘ta shavqatsizlik qildi. Arrianning yozishicha, u 30 ming mahalliy aholidan 22 mingini qirib tashlaydi.

Spitaman rahbarligida makedoniyalik bosqinchilarga qarshi xalq harakati boshlanib keldi. Bunga qadar Iskandarning rejalari boshqacha edi. Uning rejalari chippakka chiqdi.

Sirdaryo etagidan uzoq bo‘lmagan nihoyada Kiropolis shahri qamal qilinadi. Shu davrda Yaksartning shimoliy qirg‘og‘ida saklar to‘planib, makedonlarga hujum qilmoqchi bo‘ladilar. Iskandar hozirgi Bekobod va Xo‘jand oralig‘ida Sirdaryodan kechib o‘tadi va qattiq jangdan so‘ng saklar qochishga majbur bo‘ladilar. Shu davrda kutilmaganda So‘g‘diyondan xavotirli xabar keladi - Spitaman boshchiligida makedoniyaliklarga qarshi qo‘zg‘alon boshlanadi va Marokandadagi Iskandarning harbiy qismlari qamal kilinadi.

Qo‘zg‘alonchilarni tor-mor qilish uchun Iskandar Farxun va Karan boshchiligidagi piyoda hamda otliq askarlarni Maroqandaga sxoshilinch jo‘natadi. Politimet-Zarafshon bo‘yidagi jangda Spitamen yunonlar ustidan talaba qozonadi, ikki mingdan ortiq makedoniyaliklar halok bo‘ladilar. Iskandar uchun bu juda ham katga mag‘lubiyat bo‘lib, Spitamanga qarshi jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi.

Iskandar asosiy kuchlari bilan Maroqandaga yetib keladi, ammo Spitaman Quyi Qashqadaryo va keyinchalik Buxoro tomonga chekinadi. G‘azablangan Iskandar Maroqanda va hozirgi Buxoro shaharlari oralig‘idagi 120 ming tinch aholini qirib tashlaydi.

Saklarning qarishigini qaytarib turish maqsadida Sirdaryo sohilida 17 kun ichida mustahkam mudofaa devori bilan o‘ralgan qal‘a qurdiradi. Qal‘aga "Aleksandriya Esxata", ya‘ni "Olisdagi Aleksandriya" deb nom qo‘ydi va unga yunon ko‘shinlarini, kasallarni, yaradorlarni, bolalar va keksalarni joylashtiradi.

Iskandar Samarqandda 3 ming lashkardan iborat ko‘shinni qoldirib, o‘zi Zariaspga qishlash uchun jo‘nab ketdi. Shunday qilib, milliy ozodlik kurashining birinchi bosqichi yakunlandi. Bularning barchasi miloddan avvalgi 329 yilning bahoridan to kuzigacha davom etadi. Qo‘zg‘olonchilarning asosini tub aholining o‘troq qismi tashkil qildi. Ko‘chmanchi saklar esa ularning keng ko‘lamda qo‘llab-quvvatladilar.

Ko‘zg‘olonning ikkinchi bosqichi miloddan avvalgi 328 yilning qish faslida boshlanadi. Huddi shu vaqtda Iskandar Zariaspdagi Baqtriya eparx-larining quriltoyini o‘tkazayotgan edi. Quriltoyda Bessni sud qilishdi. Bosib olingan viloyatlarni qanday qilib boshqarish masalasi ham ko‘rildi. Iskandar g‘arbdan ko‘shin chaqirdi va Nearx boshchiligida yordamchi

kuchlar yetib keldi. Quriltoyga Yevropa skiflaridan Iskandar bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadiga katta sovg'a-salomlar bilan elchilar kelishdi. Ular Iskandarga skif malikasini xotinlikka taklif qilishdi. Katta sovg'a-salomlar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatish uchun qadimgi Xorazmdan 1500 otliq askarlar bilan elchilar ham kelishdi. Xorazm podsxosi Farasman elchilar orqali Iskandar rozi bo'lsa, unga Qora dengiz bo'yi skiflariga qarshi harbiy yurishlarida amaliy harbiy yordamga tayyor ekanligini izhor etadi.

Iskandar quriltoyda mamlakatni boshqarishda satrapliklar tizimini qoldirishni ma'qul topdi. Ammo satraplarning pul zabt etish va o'z ixtiyorlarida yollanma qo'shin saqlashga haqqi yo'q edi.

Miloddan avvalgi 328 yilning bahorida Iskandar jangovor so'g'dliklarni batamom tislim etish uchun So'g'd yurtiga yana qo'shin tortdi. Shuning uchun miloddan avvalgi 328 yil So'g'd xalqining Iskandarga qarshi faol kurashi tarixida Iskandar uchun keskin burilish yili bo'ldi. Endi Iskandar avvalgidek mahalliy aholiga qahr-g'azabini o'ylanibroq sochadigan bo'ldi. U endi mahalliy aholiga yaqinlashish, ular bilan til topish yo'lini qidirdi. Shu maqsadda mahalliy aslzodalarni shoh saroyiga yaqinlashtirdi, o'zi boshqalarga o'rnak sifatida tub aholi urf-odatlarini, xulq-atvorini o'zlashtirishga kirishdi. Biroq uning bu harakati yunonlar orasida noroziliklarga olib keldi. Ammo Iskandar o'z yo'lidan qaytmadi. Kim unga ochiq norozilik qarshiligini ko'rsatsa, boshini tanasidan judo etdi. Shu yo'lda uning eng yaqin do'sti, mohir lashkarboshi Klit va saroy tarixchilaridan Kallisfonlar qurbon bo'ldilar.

Miloddan avvalgi 327 yilning qishini Iskandar Nautakda o'tkazdi. Bahorda esa So'g'd kal'asini qo'lga kiritishga otlandi. Bu qal'ada baqtriyalik Oksiartning oilasi-xotini, bolalari va go'zal qizi Roksana yashar edi. Yunon tarixchilarining yozishicha, Baqtriya va So'g'diyonadagi tog'lar orasida 4 ta juda mustahkam qal'alar joylashgan. Ular So'g'd, Sizimeta, Arimaza va Xorien deb atalgan. Ammo bu ma'lumotlar mavjud qadimgi qal'alar bilan solishtirilganda ularning faqat ikkitasini aniqlash mumkin bo'lgan.

Iskandar o'zining qonxo'r otryadlarini tog'larda joylashgan ana shu qal'alarni egallash uchun yubordi. Makedoniyalik Iskandarping ana shu yurishi So'g'd xalqi milliy ozodlik kurashining uchinchi boskichini tashkil etdi.

Iskandar Roksana tufayli uning otasi Oksiartiing gunohlaridan o'tib, unga yaxshi munosabatda bo'ldi va uni Baqtriya satrapi etib tayinladi. Shundan so'ng Iskandar Oksiart yordamida Xorien qoya qal'asini egallash rejasini tuzdi. Bu qal'ada Iskandarga muxolifatda bo'lgan ko'pgina mahalliy hokimlar, ularning oilalari joylashgan edi. Ular orasida eparx Xorien ham bo'lib qal'ani yunonlar uning nomi bilan atashgan. Xorien

Iskandar elchisi Oksiartdan barcha gapni eshitgach, darhol qarshiliksiz taslim bo'lib qoldi. Shunday qilib, miloddan avvalgi 327 yilning yozida Iskandar Markaziy Osiyoni o'ziga to'liq bo'ysundirib oldi. U mahalliy aslzodalardan Oropiya ismli kishini So'g'd podsxosi qilib tayinlab, tez kunda Hindikush orqali Hindistonga yurish boshlab yubordi. Diodarning xabariga ko'ra, qo'zg'alonning birinchi bosqichida "Iskandar ko'zg'olon ko'targan so'g'diylarni yengib, 120 ming aholini qirib yubordi", uning ikkinchi bosqichida "u baqtriyaliklarga jazo berib, so'g'diylarni qaytadan o'ziga bo'ysundirdi va joylarda qal'alar barpo etdi" , ko'zg'alonning uchinchi bosqichida "qo'zg'alon ko'targan so'g'diylarning tog'larga qochib yashiringanlari asirlikka olindi".

Shunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlarining Spitamen boshliq milliy ozodlik kurashining uchinchi bosqichi Iskandarning Hisor tog'laridagi baland qoyalar ustida kurilgan kal'alarga yashiringan mahalliy aslzodalarga qarshi kurashi bilan yakunlandi.

Tayanch tushunchalar: Baqtra, Bess, Drapsak, Sak, Farsax, Spita-men, So'g'diyona, Aleksandriya Yesxata, Nautaka, Kerapolis, Marakand, Roksana.

Savol va topshiriqlar:

1. *Iskandarning So'g'diyonaga uyushtirgan harbiy yurishlardan ko'zlagan maqsadi nima edi?*
2. *Spitamen va so'g'diylarning ozodlik kurashi haqida gapirib bering.*
3. *Iskandarning So'g'diyonani bo'ysundirishga olib kelgan omillarni gapirib bering.*



2.7. Ellinizm va uning Markaziy Osiyo madaniyatiga ta'siri

O'quv maqsadi: *Markaziy Osiyoga yunon madaniyatining kirib kelishi, yunon va mahalliy madaniyatning qo'shilishi asosida shakllangan Ellin davri, ellinizm madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni haqida talabalarga atroflicha tahliliy va qiyosiy ma'lumotlar berish, davr to'g'risida to'liq tasavvur hosil bo'lishiga erishish.*

Qadimgi dunyo tarixida ellinizm deb atalgan davr eng murakkab qarama-qarshiliklar bilan to'lib toshgan davr hisoblanadi. Aleksandrning g'alabasi va ellinistik davlatlarining tashkil topishi ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda o'z an'ana va xususiyatlariga ega bo'lgan Sharq xalqlari ustidan grek-makedoniyaliklarining to'liq g'alaba qozonishi deb bo'lmaydi. Ellinizm konkret tarixiy xodisa, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, madaniy hayotda grek va yerli aholi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan tarixiy voqe'likdir.

Miloddan avvalgi 312 yili Salavka Bobilda o'z hokimiyatini qat'iylashtiradi va to'qqiz yil davomida davlati chegarasini kengaytirib, Eron va Markaziy Osiyoni ham egallaydi. Ammo Markaziy Osiyoning erksevar xalqlarini osonlik bilan o'ziga qaram etolmaydi, qo'zg'alonlar tinchimaydi. 293 yili Spitamennig qizi Apamadan tug'ilgan o'g'li Antioxni Markaziy Osiyoga yordamchi hokim etib tayinlaydi. Antioxning faoliyati natijasiga qo'zg'alonlar birmuncha bostiriladi. 280 yili Salavka vafot etgach, Antiox otasini o'rnini egallaydi. Salavkiylar davrida Markaziy Osiyo mintaqasida Aleksandr yurishlari, undan so'ng hokimiyat uchun bo'lgan kurashlar natijasida izdan chiqqan normal hayot tiklana boshlaydi. Lekin osoyishta hayot uzoq davom etmaydi, markaziy davlatdagi notinchliklardan foydalangan joylardagi hokimlar Baqtriya va Parfiyani mustaqil davlat deb e'lon qiladilar.

Aleksandrning Osiyo va Yevropa sintezi haqida Diodod quyidagilarni yozadi: "Aleksandr odamlarni Osiyodan Yevropaga va aksincha, Yevropadan Osiyoga ko'chirish, aralash nikohlar tashkil qilish, xalqlar orasida aloqa o'rnatish yo'li bilan buyuk qitani bir xil fikrlash va kardoshlarcha do'stlikka olib kelish yo'lida ish tutti."

Aleksandr, albatta, barcha xalqlarni birlashgirish maqsadini siyosiy jihatdan amalga oshirolmadi, imperiya bo'linib ketdi, ammo ob'ektiv qaralganda, Sharq va G'arb xalqlari orasida xaqiqatdan aralashuv, har ikkala qita xalqlari madaniyatining bir-biriga ta'siri, savdo aloqalarining kengayishi amalga oshirildi.

Ellinizm davrida grek madaniyagi, aniqrog'i tili va adabiyoti Aleksandr bosib olgan mamlakatlar - Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Kichik

Osiyo, Markaziy Osiyo, Eron va Hindistongacha tarqaldi va bu xalqlar madaniyati bilan o'zaro boyish jarayoni boshlandi. Grek tili esa ellinistik davlatlarga suniy birlashtirilgan xalqlar (Misrdan to Hindistongacha) o'rtasida aloqa etish vositasi vazifasini ado etdi. Grek adabiyoti, san'ati va falsafasidan millionlab odamlar bahramand bo'ldilar.

Yevropa olimlari ko'pincha bir yoqlama ta'sirni tan olib, Sharq ta'sirini inkor etadilar, lekin ta'sir aslida ikkiyoqlama bo'lgan. Afsuski, bizgacha yetib kelgan yozma manbalarning kamligi va to'liq emasligi Aleksandrgacha bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, turmush tarzi, urf-odati, ijtimoiy tuzumi haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'lish imkonini bermaydi. Bor ma'lumotlarda ham. o'troq xalqlarni mensimay, ularga "varvarlar" deb qarash nuqtai nazaridan yozilgan. Ammo so'nggi 30-40 yillar mobaynida Markaziy Osiyo jumxuriyatlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan qimmatli materiallar antik adabiyotlar materiallarini to'ldiradi va kamchiliklarini qisman bo'lsa-da, tuzatishga, ellinistik madaniyat ta'siri aynan nimada ekanligini aniqlashga yordam beradi. Ba'zi Yevropa olimlarining Sharq xalqlari shunchalik taraqqiyotda orqada bo'lganlarki, hatto ellinistik ta'sirni o'zlashtirishning noqobil edilar, degan fikrlarni qanchalik g'ayriilmiy ekanligini arxeologik topilmalar isbotlamoqda, Markaziy Osiyoda yuksak madaniyat mavjud bo'lganligi yana bir isboti "Avesto", zardo'shtiylik ta'limoti va yuqorida aytganimizdek, uning Ioniya va markaziy Gresiya fani, falsafasining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siridir. Markaziy Osiyo madaniyati rivoji Aleksandr yurishlaridan keyin ham to'xtab qolmadi, Yunon ta'sirini o'zlashtirish bilan bir qatorda, ellinizm san'ati, adabiyoti va umuman madaniyatining taraqqiyotiga ham o'z navbatida ta'sirini o'tkazdi.

Ellinistik madaniyatniig shakllanishida Sharq. katta rol o'ynadi. Yaqin va Markaziy Sharqda rivoj etgan ilm-fan, ayniqsa, astronomiya, matematika. tabobat va o'ziga xos qishloq xo'jaligi borligi, greklar tanish bo'lmagan ekin ekish, hosil olish usullari, ular bilmagan ozuqa, meva, poliz yetishtirilishini ko'rdilar. Ayniqsa, bir-biri bilan bo'lgan aholisi kam, mustaqil shahar-davlatlar, polislar tuzumi sharoitida yashashga o'rgangan kelgindilar Sharqda yagona davlat, yo'lga qo'yilgan savdo aloqalari, shaharlararo yaxshi yo'llar va qishloqlar bilan birdamli, umumiy din, ibrat olishga arzigulik ko'p narsalar borligiga guvoh bo'ldilar. Xaqiqatdan, Sharq xalqlari davlat tuzumi, iqtisodi va madaniyatining ellinizmga ta'siri oz bo'lmadi. Umumiy til esa umumiy madaniyag yaratilishining omili bo'ldi.

Aleksandr va uning vorislari joriy etishga uringan iqtisodiy va siyosiy birlik ellinizm davrida uzoq davom etmadi, ammo turli xalqlar madaniyati qorishtirmasi bo'lgan ellinistik madaniyat Yevropa va Sharq

xalqlari tarixida o'chmas iz qoldirdi va keyingi davrlardagi madaniyatning rivojlanib shakllanishida ham katta rol o'ynadi. Bu davrda deyarli barcha katta shaharlarda kutubxonalar tashkil etildi, ularda ilmiy ishlar olib borildi. Xuddi shu davrda filologik izlanishlar, matnshunoslik fan sifatida shakllandi. Sharq mamlakatlarida greklarnikiga taqlidan maktablar, gimnaziya, teatr, grek adabiyoti, grek bayramlari keng tarqaldi, grek adabiyoti janrlari Sharq adabiyotiga kirib keldi. Afsuski, u asarlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat ba'zilarining (ayniqsa, yaxudiylar tomonidan yaratilganlari) nomlari saqlanib qolgan.

Grek adabiyotining o'zida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi, yangi g'oyaviy yo'nalish, yangi mavzu, yangi janrlar kelib chiqdi. O'tkir satirik mazmunga ega bo'lgan siyosiy komediya o'rniga badiiy jihatdan ishlangan, shaxsiy hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan murakkab voqealar, maishiy turmush tarzi tasvirlangan yangi komediya degan janr yaratiladi. G'oyaviy va siyosiy kurash quroli bo'lgan notiqlik polislar yo'qolishi bilan o'z ahamiyatini yo'kotadi, o'rnini Sharq adabiyotida keng tarqalgan amaldor va shohlarga qaratilib aytiluvchi madhiyalar egallaydi. Grek ijtimoiy hayotiga xos bo'lgan ijtimoiy muammolar o'rniga endi shaxsiy, insoniy motivlar talqin etilgan asarlar yuzaga keladi. Yangi muammolarni yorituvchi yangi janrlar – epigrama, elegiya, ishqiy lirika va roman janrlari paydo bo'ladi. Asar g'oyasi, mazmuni maydalasha borgan sari shakli, badiyyati ortib boradi, tumtoqlashadi. Bu asarlar keng kitobxon ommasi uchun emas, balki tushunib, uning qadriga yetadigan madaniyatli omma uchun mo'ljallangan. Ellinistik davr adabiyoti yuqorida aytgan spesifik sabablarga ko'ra o'z mohiyatini qisqa davrda yo'qotdi, yoddan ko'tarildi va natijada bizgacha deyarli hech nima yetib kelmadi.

Grek romanlarining eng qadimgi na'munalaridan bo'lgan "Aleksandr faoliyati" va "Nin haqida roman" Gresiyada emas, balki Misrda, ikkinchisi Suriyada yaratilganligi, mualliflar grek bo'lmaganligi so'nggi davrlarda aniqlandi. Ellinistik davrda faqat grek adabiyotidagina emas, san'at, mafkura sohasi -falsafa va dinda ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Har bir ozod (ya'ni qul bo'lmagan) inson o'zining siyosiy erkinliklaridan maxrum bo'ldi, uning hayoti, baxt-saodati, zolim hokim, siyosat va iqtisodiy o'zgarishlar va shunga o'xshash tashqi kuchlarga bog'liq bo'lib qoldi. Inson bu kuchlarninig birortasini o'zgartirishiga qurbi yetishiga ishonmadi, natijada u o'z qobig'iga o'ralib qoldi. Ana shunday sharoitda falsafa dastavval axloq, odob, mavjud jamiyat tuzumida qanday sharoitda inson umidsizlikka tushmay, o'z mavqeini yo'qotmay hayot yo'lini bosib o'tishi mumkinligi masalasi ishlandi. Bu davrda tabiat fanlari falsafadan ajrab, mustaqil rivoj etdi, tadqiqotlardan nazariy xulosalar chikarilmadi. Ellinistik davr faylasuflari ayniqsa, buyuk

faylasuflar asarlarini izohlash, talqin etish bilan ko'p shug'ullandilar. Bu davrda shakllangan falsafiy ta'limotlardan eng muhimi Demokratning materialistik ta'limoti asosida yaratilgan Epikur falsafasi edi. Epikureizmdan tashqari stoicism, skepticism ta'limotlari ham keng quloch yozib, o'z maktablariga asos sola boshladilar.

Ellinizm davrida qadimgi Olimp xudolari dini avvalgi mavqeini ancha yo'qotadi. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar talabiga polis dini javob berolmay qoladi. Lekin ellinizm yaxlit diniy tuzum yaratmadi, faqat Olimp dini Sharq xalqlari e'tiqodlari bilan qorishishini ta'minladi. Sharq xalqlarini "varvar" deb mensimovchi greklar endi o'zlaridan qadimiyroq madaniyatta ega bo'lgan Sharq xalqlariga murojaat qildilar va o'zlarida kelib chiqqan mafkuraviy masalalarga tayyor javoblarni ulardan topdilar. Din masalasida ham Sharq xalqlariga, jumladan, yaxudiy, zardo'shtiylilik va ayniqsa, Mitra ta'limotiga, Misr dinlariga murojaat qildilar.

Ellinizm davr madaniyati ya'ni grek va Sharq xalqlari madaniyatini umumlashtirish jarayoni Aleksandr yurishlaridan avval boshlangan edi. Ammo yurishlar natijasida va ellinizm davrida ayniqsa keng tus oldi. Ta'sirning xarakteri ham o'zgardi, agar avval favqulodda ruhda bo'lgan bo'lsa, endilikda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot talabiga binoan ongli ravishda madaniyatlarni qorishtirish jarayoni boshlandi.

Qadimgi Hind, ahamoniy va yunon manbalarida Baqtriya viloyatiga alohida e'tibor berilgan. Baqtriyaga Aleksandrning ham munosabati boshqacha bo'lgan, u mahalliy amaldorlar va zodagonlar bilan yaqinlashishga harakat qilgan. Mintaqa hokimlaridan birining kizi bo'lmish Raxshonaga uylanishining faqat bir ko'rinishdagi muhabbatdan tashqari siyosiy sabablari ham bo'lsa kerak. Aleksandr Baqtriya shaharlarida grek va makedon lashkarlaridan ko'proq qoldirishga uringan. Albatta, bunday munosabatning tarixiy sabablari ham bor edi. Mintaqa Ipak Yo'li, G'arb va Sharq savdo yo'liining muhim qismida joylashganligi tufayli boshqa mintaqalarga nisbatan siyosiy-ijtimoiy jihatdan avvalroq rivojlangan. Bu viloyatning Ioniya va Markaziy Gresiya bilan aloqasi ham avvalroq boshlangan. Ana shunday zamin bo'lgani uchun ham ellinizm davrida Baqtriyada ellinlashtirish jarayoni avval va tez o'tdi (Parfiya va Xorazmda bu jarayon ancha kechikdi). Baqtriyaning grek podsholari Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Antimax qabilar viloyatni gresiyaning bir qismi deb qaraganlar. Agar Parfiya, Sug'diyona va Xorazm uchun ellinistik madaniyat namunalari miloddan avvalgi III-II moda, rasm sifatida qabul kilinsa, Baqtriyada madaniyatning tarixiy taraqqiyoti mahsuli sifatida qaralgan. Shuning uchun ham ellinistik san'at namunalari, ayniqsa, Baqtriyada yetuk tus olgan.

Antik adiblari "Ming shaharli Baqtriya" deydilar. Xaqiqatdan bu vodiya (Amudaryoninig ikki sohili, O'zbekistonning janubiy va

Afgʻonistonning shimoliy qismi) arxeologlar koʻplab katta va kichik shaharlar vayronalarini topdilar.

Agar, Aleksandrdan avval greklar Baqtriya va Hindistonni juda uzoq oʻlkalar, dunyoning chekkasi deb tasavvur etsalar, Makedoniya yurishlari bu tasavvurlarni puchga chiqardi. Yurishlar jarayonida minglab askarlar shu yerlarda oʻtroqlashib qoldilar. Ellinizm davrida esa koʻplari koʻchib ham kelganlar. Miloddan avvalgi III asr oʻrtalarida Baqtriya Diodot rahbarligida Salavkiylar davlatidan ajralib chiqadi va oʻzini mustaqil davlat deb eʼlon qiladi. Natijada Baqtiriyada quldorlikka asoslangan greklar hukmronligidagi davlat tashkil topadi. Baqtriya hokimlari, ayniqsa, Yevtidem va Yevkratidlar koloniyalashtirish siyosatini olib boradilar, hatto Janubiy Afgʻoniston va Shimoliy Hindistonni ham bosib oladilar. Baqtriyaning grek shohlari grek polislari usulida shaharlar qurdiradilar, binolar qurilishida esa grek va Sharq elementlari ishlatiladi.

Greklar Baqtriya qurgan shaharlarning hozirgi eng yirigi Afgʻonistonning shimolida joylashgan Aleksandriya Oksiana, yaʼni Amu Aleksandriya(xozirgi nomi Oyxonum). Bu shahar 400 gektar yerni ishgʻol etgan. Unda teatr, gimnasiy (savodi chiqqan bolalar ilmiy va jismoniy kamolot topganlar), kutubxona, xazina. grek xudolariga ibodatxonalar, davlat idoralari, qasrlar, saroylar, xaykallar bilan bezatilgan fontan, shaxsiy xovlilar mavjud boʻlganligini fransuz olimlari isbotladilar. Shahar milloddan avvalgi IV asrda barpo etilib, milloddan avvalgi 147 yillar atrofida koʻchmanchilar tajovuzi ostida vayron etilgan. Oyxonimda qazishma ishlarini olib borgan olimlar - D. Shlyumberjs va Pol Bernarlar grekcha yozuvli ikki papirus parchalar topganlar, ularning birida falsafiy mazmundagi diolog, ikkinchisida sheʼr boʻlgan. Afsuski, namgarchilikda kutubxonaning yer poliga yozuv iz boʻlib tushgan, yerda ham, papirusda ham kolgan yozuv izini oʻqib boʻlmagan. Arxeologlar topilgan idishlarda grekcha yozuvlar (idishdagi narsalar nomi, ogʻirligi va hokazo) boʻlganligini aniqladilar.

Baqtriya Oyxonimdan boshqa Kofir qalʼa, Yemishtepa, Dilberjin, Saksonoxur, Taxti Sangin, Yovon, Tomoshotepa, Xalchayon, Yorqoʻton, Kanka kabi ellinistik tipdagi shaharlar mavjud boʻlganligini arxeologlar isbotladilar. Toʻgʻri, bular Aleksandriya Oksina darajasiga koʻtarila olmadilar, lekin bu shaharlarining ochilishi Baqtriya hukmronlik qilgan davrda ellinistik madaniyat, sanʼat butun viloyat boʻylab keng tarqalganligini isbotlaydi. Shu oʻrinda agar ichki ijtimoiy-iqtisodiy sharoit tashqaridan boʻlgan taʼsirni qabul qilib rivojlantirish darajasida boʻlmasa har qanday kuchli taʼsir ham yerli madaniyatga singmasligi va iz qoldirmasligini eslatib oʻtishimiz lozim. Haqiqatda, mintaqada yuzaga kelgan tarixiy sharoit ellinistik madaniyatni oʻzlashtirish, va oʻzi ham uning yuskak namunalari

yaratishga qodirligini isbotladi. Baqtriyada ellinistik uslubda yasalgan san'at buyumlari rasmlarini pullarda tasvirlash maxorati yuksak bo'lgan. Baqtriyadan tashqari bir oz keyinroq, So'g'diyona, Parfiya, Xorazmda ham ellinistik madaniyat ta'siri ostida yaratilgan arxitektura va san'at asarlari topilgan. Ularda ham ellinistik shakl va timsollar yerli badiy an'analarga binoan qayta shakllanganligini ko'ramiz. Qizig'i shundaki, Markaziy Osiyoni ellinlashgan markazlarida ishlangan san'at buyumlarini ko'chmanchilar Yevroosiyo cho'llariga ham tarqatganlar. Haligacha Ural, Oltoy, Qozog'iston qo'rg'onlarida Amudaryo hazinasidagi buyumlarga yaqin bo'lgan san'at asarlari topilmoqda.

Markaziy Osiyo va Shimoliy Afg'onistonda yaratilgan ellinistik san'at asarlarini mavzu jihatdan uch guruhga ajratish mumkin: diniy, epik va folkler bilan bog'liq bo'lgan asarlar. Ayniqsa, milloddan avvalgi IV – II asrlarda Baqtriyada rivojlangan ellinistik san'at diniy e'tiqod bilan bog'liq edi.

Markaziy Osiyoda ellinizm davrida Olimp xudolari bilan birga yerli ma'budalar timsoli va vazifalar birlashtirildi. Axura-Mazda - Zevs, Mitra - Zevs, Appolon, Nika -Tyuxe-Xvaninda, Anaxita-Afina, Poseydon - Vaxshu va boshkalar. Qizig'i shundaki, ko'p o'rinlarda grek xudolari yerli kiyimda, qiyofada tasvirlangan. Masalan, Mitraninig boshidan nur sochilib turgan kiyofasi Zevs, Gelios, Xeraklga ko'chirilgan, yoki aksincha, yerli ma'buda Xvaninla Gresiyada g'alaba ma'budasi Nika (Tyuxe) ramzlari-guldasta va uch tishli asbob bilan tasvirlangan. Bulardan tashqari, mintaqada Dioskurlar, Dionis e'tiqodlari ham keng tarqalgan. Grek madaniyati bilan tanishmasdan avval Markaziy Osiyo xalqlarida xudoni inson shaklida tasvirlash bo'lmagan. Miloddan avvalgi V asrda eronshohlar tomonidan mintaqqa bosib olingach, xalqlar Eron orqali Ioniya va Gresiya madaniyati bilan tanishganlar. Shu davrdan boshlab yerli xudolarni odam shaklidagi xaykal va xaykalchalarda tasvirlaganlar. Xudolar tasviridan tashqari binolarni quyma tasvirlar bilan bezash, kolonnalar, binolarni rejalashtirishlar ham Ellada san'ati, arxitekturasi ta'siri ostida bo'lgan. Xalchayonda topilgan xaykalchalar, o'g'il bolalar tutib turgan gul shodalari tasviri bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ma'lumki, Aleksandr yurishlari natijasida Sug'diyona, Samarkand katta talofat ko'rgan. Ammo bu mintaqada ham hayot asta-sekin iziga tushgan, hunarmandchilik, savdo va qishloq xo'jaligi yo'lga qo'yilgan, ellinistik va so'g'd madaniyatining ikki taraflama boyish jarayoni amalga oshirilgan. So'g'diyonada ellinistik madaniyat markazi Samarqand bo'lgan, lekin bu mintaqada ellinistik pullar, grek idishlari, taqlidiy yaratilgan buyumlar bo'lsa-da, Baqtriya mashtabida emas. Bu mintaqada ellinistik usulda qurilgan shaharlar haligacha topilmagan, ammo keyinroq barpo etilgan shaharlarda (Afrosiyob, Panjikent) ellinistik madaniyat elementlari bor.

Aleksandr yurishlari natijasida tashkil etilgan imperiyada grek tili davlat tili sifatida qabul qilingan edi. Ellinizm davrida bu til o'zini mavqeini yanada mustaxkamladi. Hindistondan to Italiyagacha bo'lgan hudud-da yashagan xalqlar o'zaro grek tili yordamida fikr almashtilar, u ikkinchi tilga aylandi, hatto parfiyada ham grek tili ancha yuqori mavqega ega bo'ldi. Til birligi o'z navbatida madaniyatlar, adabiy aloqalar yaqinligiga olib keldi. Ammo, afsuski, adabiy aloqalar haqida deyarli xech kanday material bizgacha yetib kelmagan, turli urishlar, ayniqsa, arablar istilosi davrida kitoblar shafqatsiz kuydirilgan. "XVI–XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo minyatyurasi" albom muqaddimasida Sankt-Pereburglik olimi N. V. Dyakonova "Ustrushona afishasining islom diniga hiyonatda ayblanishi sabablaridan biri qimmatbaxo javohirlar bilan bezatilgan ajdodlarning g'ayridiniy kitoblarini kimxoblarga o'rab asrashi bo'lgan".

Sharq mamlakatlarida grek tilida asarlar yaratilgani haqida ma'lumotlar bor, ammo ular saqlanib qolmagan. To'g'ri, o'sha davrning madaniy markazlari bo'lmish Aleksandriya, Pergam, Koss kabi shaharlarda rivojlangan grek adabiyotini yaratishda ellinistik mamlakatlardan chiqqan adiblar (ularning ma'lum kismi albatta, grek bo'lmaganlar) ham ishtirok etganlar. Lekin bu markazlarda yaratilgan asarlar xususiyat, uslub, mahorat jihatidan grek adiblarining tadrijiy davomi ajralmas kismini tashkil etgan. Yuqorida aytilganlarni nazarda tutganimizda ellinistik madaniyat ta'siri kuchli bo'lgan Baqtriyada ham adabiy asarlar yaratilishi ehtimoldan uzoq emas. Bizgacha Parfiyada Artemon o'g'li Herodor tomonidan yozilgan uch epigrama va Appalonga bag'ishlangan lirik marsiya yetib kelgan, xolos.

Badiiy asarlardan ko'ra tarixiy asarlar ko'proq yaratilgan bo'lsa kerak (artemiyalik Appolonnining «Parfiya tarixi» va b.), ulardan parchalar boshqa mualliflarning asarlarida saqlangan.

Sharq mamlakatlarida milliy adabiyot ham o'z navbatida rivojlangan, ayniqsa, Parfiya tilida boy adabiyot bo'lgan. Nemis olimi F.Altxaym "Aleksandr va Osiyo" arab manbalariga suyanagan holda Parfiya shohlari davrida yaratilgan yetmishga yaqin badiiy asarlar bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Albatta, bularga ham grek adiblarining ta'siri o'tishi tabiiy hol. Aleksandr o'zi bilan birga shoirlar, tarixchilar, aktyorlarni olib yurgani, joylarda she'rxonliklar, teatr o'yinlari uyushtirgani va Homer asarlarini doim o'qigani va majlislarda ko'pchilik uchun o'qitgani haqida mallumotlar bor. Plutarx va Elian esa Homer asarlarini Erondan to Hindistongacha yashagan xalqlar o'qiganlar deydi. Plutarxning ma'lumotiga ko'ra, Baqtriya va Parfiya shohlari saroyida Sofokl va Yevripid tragediyalari o'ynalgan. Fikrimizcha, bu ma'lumot haqiqatdan uzoq bo'lmasa kerak, grek teatri bo'lgandan keyin unda albatta grek tragediya na komediyalari o'ynalgan. Oyxonimda esa "Illiada" mazmuniga aloqador tasvir tushirilgan idish topilgan. Albatta ularning hammasi adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy.

Miloddan avvalgi III asrda Markaziy Osiyo va Hurosonda Grek-Baqtriya davlatidan tashqari ikkinchi qudratli davlat Parfiya tashkil topadi. Parfiya ham Salavkiylarga bo'ysungan bo'lib, III asr o'rtalarida, Baqtriyadan keyin o'zini mustaqil davlat deb e'lon qiladi. Parfiya Mitridat I davrida o'z yerlarini kengaytiradi, G'arbiy Eron, Midiya, Messopotamiyani bosib olib, ayniqsa Mitridat II darida dunyodagi to'rt buyuk davlatning biriga aylanadi. Yefrat daryosi Rim va Parfiyani ajratib turuvchi chegara bo'lgan, ammo Rimning agressiv siyosati natijasida ikki davlat o'rtasida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Agar miloddan avvalgi 65 yilgi to'qnashuvda rimliklar ustun chiqqan bo'lsa, 54 yilda mashhur lashkarboshi Krass rahbarligidagi Rim armiyasini Parfiyaliklar tor mor etadi va lashkarboshi halok bo'ladi.

Tarixiy manbalarga va arxeologik tadqiqotlarga suyanan holda shuni aytish mumkinki, Parfiyada ham grek madaniyati ta'siri yuqori bo'lgan va Sharq va G'arb o'rtasida mustahkam madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan. Bularning barchasiga shuni xulosa qilib aytish mumkinki, G'arb ta'siri ostida Sharq madaniyati yangi bosqichga ko'tarilgan, lekin shu paytda G'arb madaniyati ham Sharqdan ko'p narsa olgan. Bu ikki madaniyatning sintezi natijasida, hozirda butun bir davr maqomiga sazovor bo'lgan ellinizm madaniyati kelib chiqqan. Buni hozirda hech kim inkor etolmaydi.

Tayanch tushunchalar: Ellinizm, imperiya, grek tili, varvar, Avesto, Ioniya, epigrama, falsafa, Mitra, polis, Nika, arxektura, agressiv, gimnaziya

Savol va topshiriqlar:

1. Ellinizm tushunchasini izohlab bering?
2. Ellinizm madaniyatining xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Grek madaniyatining Markaziy Osiyoga ta'sirini nimalarda ko'rish mumkin?



2.8. Markaziy Osiyoda ko'chmanchi aholi tarkibi

***O'quv maqsadi:** Insoniyat tarixida ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi xalqlarning kelib chiqish sabablari, Markaziy Osiyoda yashagan ko'chmanchi qabilalar, xalqlar, ularning turmush tarzi, mashg'ulotlari, boshqaruv tizimi va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni haqida talabalarga atroflicha ma'lumot bersih, yashagan hududlari haqida tasavvur hosil qilish va tarixiy davr bo'yicha ko'nikmalar berish.*

Ko'chmanchilik - chorvachilikning maxsus shakli va bunday xo'jalik bilan hayot kechiruvchi qabilalarning turmush tarzi. "Ko'chmanchilik" atamasi ba'zan kengroq tushunchada, hatto ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan kun kechiruvchi qabilalarning faoliyati va yashash yo'sini ma'nosida ham talqin etiladi. (Masalan: Avstraliya aboreginlari, Amerika indeyslari va boshqalar) Yovvoyi hayvon turlarini xonakilashtirish (Osiyo, Shimoliy Afrika va Janubiy Yevropada) neolit (yangi tosh) davri ovchi va terimchi jamoalari hayotida yuzaga keladi. Miloddan avvalgi 4-3 mingyilliklarda (eneolit davri) Osiyoda kam suvli qirg'oq mintaqalarida, tog' oldi hududlarida, jilg'alar va daryo adoqlarida yashagan aholi turar joylari atrofida, dastlab dehqonchilik va ovchilik bilan birga olib borilgan yarim o'troq xonaki chorvachilik xo'jaligi shakllandi. Asrlar osha chorva boshlarining ko'payishi va chorvachilik xo'jaligining kengayib borishi bilan tog' yaylovlari va dashtu bepayon o'tloqlari o'zlashtirildi. Garchi yaylov chorvachiligi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining asosiy mashg'uloti hisoblansa-da, ko'chmanchilik xo'jaligida ozuqa beruvchi dehqonchilik va ovchilik ham ma'lum darajada o'rin tutgan. Ayrim qabilalar yarmi ko'chib yursa, yarmi o'troq yashagan.

Miloddan avvalgi 4-3 mingyilliklarda Osiyoda, tog' oldi hududlarda, suvli qirg'oq mintaqalarida yashagan aholi turar joylari atrofida, dastlab ovchilik va dehqonchilik bilan birga olib borilgan xonaki chorvachilik xo'jaligi shakllandi. Chorvachilik xo'jaligi dehqonchilikka nisbatan osonroq, ya'ni yangi-yangi yerlarga ishlov berib, dehqonchilikka tayorlashga hamda ko'p ishchi kuchini talab etmas edi. Shu tariqa juda ko'plab, avvaldan o'troq hayotga moslashgan aholi punktlari asta-sekinlik bilan miloddan avvalgi II mingyillikning oxiri. I mingyillikning boshlarida tog' oldi av dashtlarda yashovchi o'troq va yarim o'troq qabilalarning bir qismi hayotida ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik tarzi shakllanib, ko'chma chorvachilik xo'jaligiga muqimlashdi. Bu jarayon ayniqsa miloddan avvalgi I mingyilliklarda Markaziy Osiyoda keng tus oldi. Ko'chmanchilik hayot tarzi o'z qatorida "Nomad sivilizatsiyasi"ni vujudga keltirdi. Ushbu sivilizatsiya daryo sivilizatsiyasiga qarama-qarshi tushuncha hisoblanib, uning asosini "yovvoyi yashash tarzi" tashkil qilardi.

Markaziy Osiyoning qadimgi ko'chmanchilari haqida yozma manbalarda (Avestoda, Yunon manbalarida, Bexistunda, Xitoy manbalarida) ko'pgina qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Biz Markaziy Osiyo hududida ko'chmanchi qabilalaridan "Sak" va "Massaget"lar istiqomat qilgani uchun ular haqida kengroq ma'lumotlar berib o'tamiz.

Massagetlar: Kaspiy dengizninig sharqiy sohili, Orol dengizi atroflari, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida yashagan ko'chmanchi qabilalar guruhi. Ular to'g'risida fanda turli qarashlar mavjud:

-ayrim olimlar fikri bo'yicha "Massaget"(mase)-baliq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "baliqxo'rlar" ma'nosini anglatadi.

-"massaget" atamasi "mas", "saka", "ga" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, saklarning katta uyushmasini anglatadi.

-"massaget" so'zi "mazagetlar" so'zidan "maza"-ulug' ma'nosini bildirib "ulug'getlar"ni anglatadi.

-Xitoy solnomalarida ularni "kata yuetji"lar bilan bir xalq qatoriga ko'yilgan. Bu fikrga S.P.Tolstov ham qo'shilgan.

Massagetlar katta uyushma bo'lib, ular tarkibiga bir necha qabila, qabilachalar (atiylar, asianlar, usunlar, augaslar, daxlar va boshq.) kirgan. Bu qabilalarning o'ziga xos nomlari ular ulug'lagan totemlaridan kelib chiqqan. Jangchilar ko'pincha o'zlariga kuchli hayvonlarni (qoplon, yo'lbars, ilon, burgut) totem qilishgan. Geradotning yozishicha, ular piyoda va otda jang qilganlar. "Skif"larga o'xshab otlarni va o'zlarini sovut bilan himoyalaganlar. Himoya vositalari asosan oltindan va aksincha ularning qurollari misdan yasalgan. Qurollarining asosini - kamon, nayza va oybolta (sagariy) tashkil qilgan. Strobanning yozishicha, massagetlar ikki xil tipga bo'linganlar:

1 .Ko'chmanchi: o'zini kuchli bilib, faqat boshqa mulklarni talash bilan shug'ullangan. 2.O'troq: o'zini zaif bilib, asosiy kuchini chorva boqish va dehqonchilikka qaratgan. Bu ikki tip xuddi skiflarga o'xshab asosan, "quyoshga" topinganlar, lekin qurbonliklar ikki xil yo'l orqali amalga oshirilgan. Birinchi tip asosan "ot" qurbonlik qilgan bo'lsa; Ikkinchi tip esa yarim tayyor mahsulotlar (sabzavotlar, meva-cheva, may) qurbonlik qilishgan. Gomerning "Odessa" asarida ular "kimmeriylarning"avlodi hisoblanib, ularning jang qilishi taktikasi uzoqdan kamon otib, tez-tez kichik bo'linmalari hujumlari bilan ko'rsatilgan. Ular asosan dehqonchilik, baliqchilik, chorvachilik, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarib, savdoni odatda saklar bilan olib borganlar.

Sak: (shaklar) Osiyo dashtlari chorvadorlari, Geradot yozishicha Yevrosiyo cho'llarida, Qora dengiz sohillarida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi "skalot" qabilalari. Yunonlar esa ularni skiflar deb yuritganlar. Ular skif va saklarni aynan bir xalq deb, adashganlar. Bunga sabab ikki qabilaning madaniyatlari Xitoy va Yunon manbalarida judayam o'xshaganligidadir. Sak nomi turli yodgorliklarda turlicha uchraydi. Ahamoniy

hukmdorlarining Bexistunida "Sirdaryo ortidagi qabilalar" bo'lib, ularning to'rtga bo'linganligi aytib o'tilgan.

1." Saka-tiay-daraya" podshoh Doroning "Naqshi Rustam" yozuvida " daryoning narigi tomonida yashovchi" saklar.

2."Saka-tigraxauda" (cho'qqi qalpoqli) saklar. Ular Qipchok dashti, Choch viloyati hududlarida yashaganlar.

3."Saka-xauma-varka" ya'ni marosimiy muqaddas ichimlik "xauma" iste'mol qiluvchi, Pomir va Farg'ona vodiysida yashovchi saklar.

4."Saka-arimas" ya'ni (grif oltinini himoya qiluvchilari) bo'lib, bu saklar o'zlarini eng oliy nasab sak deb atashgan. Aynan shu tur saklar, skiflarning eng boy, oliy tabaqasi bo'lmish "skif shohlari" bo'lgan guruhga o'xshaydi. Strabon esa ushbu boy tabaqali ko'chmanchilarni "daxlar" deb yuritgan. Ularning boshqa ko'chmanchilardan farqi, alohida mozorlari bo'lganligidadir. Isbot: Skiflarda Qora dengiz sohilidagi "Gettax" shahri ularning mozori bo'lsa, saklarda esa Olmaotadan 50 km sharqda joylashgan "Issiq podshoh mozorligi" mavjud bo'lgan. Ammo Ossuriya manbalarida saklar kimmerilarning avlodlari sifatida geografik joylashuv bir xil masshtabda beriladi. Ushbu fakti "Injil" kitobidagi "qadimgi xalqlar jadvali" tasdiqlaydi. Umuman aytganda saklar barcha ko'chmanchi qabilalar tarkibida mavjud bo'lgan. Sak va Skif ko'plab olimlar tomonidan aynan bir ko'chmanchi xalq sifatida qaralgan. Bunga yetarlicha sabablari bo'lgan. Chunki ularning jang qilish san'ati, qurollanish texnologiyasi (faqat bitta farq skiflarda kamonboz bo'lmagan ularda faqat "drotik", {mix} otish bo'lgan), uyni bezatishda hayvon terilari, bosh chanog'lar, tish suyaklari aksessuar sifatida foydalanishi va totemlarning o'xshaganligi bunga misol bo'lishi mumkin. Gerodotning saklar "dunyodagi moxir merganlar "bo'lib, massagetlar kabi kiyinishadi", massagetlar g'alla ekishmaydi, "sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilishadi" - deb yozadi. Sak va massagetlardan tashqari juda ko'plab ko'chmanchilar Markaziy Osiyo hududida ular bilan birga yashaganlar. Xitoy manbalarida uzoqda yashovchi barcha ko'chmanchilar "se" (begonalar) tariqasida uchraydi. Ularning joylashish o'rnini quyidagicha tasavvur qilishimiz mumkin:

Shimol: Sibir, Enasoy; Janub: Pomir tog'lari, Qizilqum, Qoraqum, Eron shimoli; G'arb: Qora dengiz, Dunay; Sharq: Manjuriya, Xitoygacha bo'lgan hududlar;

Ushbu kengliklarda "Xun, Sun, Dunxu, Di, Jun, Yuetji (katta va kichik), Kimmeriy. Sak, Massaget, Skif, Dax, Sarmat, Avar, Anan"va boshqa ko'chmanchi qabilalar yashab kelishgan.

Ko'chmanchilarning boshqaruv tizimi, maslahat majlisi a'zolari, sarkardalar va qabila zodagonlaridan tashkil topgan. Maslahat a'zolari asosan tashqi aloqalarga: sulh tuzish, jang ochish, savdo aloqalari va nikoh munosabatlarini tartibga solib turgan. Ichki aloqalar bilan esa sarkarda boshchiligidagi qishloq hokimlari, qabila hokimlari, uy hokimlari shug'ullanar edilar. Mol-mulk

taqsimotini sarkardaniig kattasi aniqlar edi. Barcha ko'chmanchilar asosan ikki madaniy komponentdan, Strub-cho'l va o'rmonda yashovchi o'troq ko'chmanchilar va Katokomba-chorvador ko'chmanchilardan tarkib topgan edi. Bu ikki madaniyat bronza davriga tegishli bo'lgan ilk ko'chmanchilarning "Andranova" madaniyati asosida vujudga kelgan. Ularning madaniy qatlami 3-ga bo'lib o'rganilgan: 1-Ilk va o'rta bronza; 2-So'nggi bronza; 3-Bronza davridan keyingi davr; Ushbu xulosaga Janubiy Sibirning ko'chmanchilarga oid yodgorligini 1913 yili tekshirgan B.V.Andranov kelgan. Andranova madaniyati yuqorida aytgan ikki kompanentning asosi hisoblanadi, ammo ular orasida diniy tasavvurlarda hamda zebu-ziynat taqinchoqlarida o'xshashlik sezilmaydi. Boshqa jihatdan ular bir xil bo'lgan. Ko'chmanchilar hayotida xunardmandchilik alohida rol o'ynagan. Sak va massagetlar o'rtasida misgarlik va zargarlik yuqori darajada bo'lib, fanda "hayvon tasvirlari naqqoshligi" nomi bilan shuhrat topgan o'ziga xos yuksak san'at uslubi keng tarqalgan. Ular oltin va kumush bezakli naqshinkor bosh kiyimlar, belbog'lar kabi zardo'zlik buyumlarini tikishni bilishgan. Shu asnoda "Qozoq" xalqi o'z milliy qalpog'i sak xalqi milliy kiyim boshidan kelib chiqqan deyishadi.

Sak va massaget ko'chmanchilari Markaziy Osiyoda 5-3 mingyilliklarda rivojlangan ikki irqqa: Shimoliy Yevrapoid va Janubiy Yevrapoid irqlariga mansubligini olimlar aniqlashgan. Ammo ikki irq turli yo'nalish va turli tezliklarda tarqalganini hisobga oladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo xalqlarining aynan qaysi irq turiga ko'proq taalluqli ekanligini aniq aytish qiyin.

Irqdan farqli o'laroq Rus lingvistiklarining aniqlashlaricha, Markaziy Osiyoning barcha ko'chmanchi aholisi "Xindoriy" tilida so'zlashuvchi xalq bo'lgan ekanlar.

Demak, hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan Markaziy Osiyoning ba'zi xalqlarining tili aynan Xindoriy tili zaminida vujudga kelganligini yuqoridagi faktlar tasdiqlashi mumkin.

Tayanch tushunchalar: Andranova, sak, massaget, nomad, skif, dax, se, Tur, Turon, Arimas, Strub, Katakomba.

Savol va topshiriqlar:

1. *Nima sababdan o'troq hayot kechirayotgan xalqlar ko'chmanchi xalqlarga aylanib qoldi?*
2. *Qaysi omil tufayli ko'chmanchilarning deyarli hammasi yer sharining janubidan ko'ra shimol tomonida istiqomat qilganlar?*
3. *Sak va massagetlarning orasida qanday o'xshashlik va qanday tafovut mavjud?*
4. *Nima uchun saklarning bizga ma'lum to'rt guruhi birlashib yagona markazlashgan davlat tuzmadi?*
5. *Hozirda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan qaysi xalqning urf-odatlarini tarkibida ko'chmanchi xalqlarning urf-odatiga o'xshash birlik bor?*

2.9. Xunlar imperiyasi

O'quv maqsadi: Eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda Xunlar davlatining tashkil topishi, Xun va Xitoy munosabatlari, Xunlarning Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlari, eramizning I-III asrlarida Xunlar imperiyasi, Xun hukmdorlari, Xunlarning IV asrdagi g'arbga yurishlari, G'arbiy Evropada Xunlar davlatini tashkil topishi va parchalanishi haqida to'liq ma'lumot berish, tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish.

Insoniyat va jahon taraqqiytida o'ziga xos iz qoldirgan, aytish mumkinki, kishilik jamiyatining keyingi taqdirida katta rol o'ynagan ko'chmanchi qabilalar juda kam bo'lgan. Shunday buyuk tarixiy hodisalarga sababchi qabilalar barmoq bilan sanoqlidir. Tarixda ulkan o'zgarishlarga sababchi bo'lgan xun, turkiy va mo'g'il qabilalarini sanab o'tish mumkin. Xunlar to'g'risida yozma manbalarda juda ko'p ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Uchinchi Turkologiya konfrensiyasida (Toshkent) tarixchi olim M.Volidov mil.avvalgi 1-2 hamda milodiy 1-5 asrlarda yashagan yunon olimlari Ptolomey, Ammian, Martsellin, vizantiyalik Feofon, Zosima, Meandr ma'lumotiga ko'ra Kaspiy dengizning sharqiy qirg'og'idan tortib to butun Maraziy Osiyoda skif nomi bilan yashagan xalqlarning asosini xunlar tashkil etgan deb ma'ruza qilgan. Shuningdek, ko'rsatilgan yunon olimlari saklar bilan Xunlarning etnografik xususiyatlari o'xshash ekanligini ta'kidlaganlar. Skiflar xunlar deb atalgan turkiy xalqlarning ajdodlari ekanligiga shubha koldirmaydi.

Turkiy xalqlarning qadimiy ajdodlaridan bo'lgan xunlar mil.avvalgi dastlabki ming yillikning boshlarida paydo bo'lib, so'ngra besh yuz yillar chamasi vaqt o'tgach tarix sahnasida faol ko'rina boshlaydi va katta kuchga aylanadi. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi bo'ylari hamda shimoliy Kavkazgacha cho'zilgan hududda yashashgan. (Turg'un Olmos "Xunlarning qisqacha tarixi" Qoshg'ar, 1986.)

Miloddan avvalgi 207 yildan to milodning 216 yiligacha, ya'ni 423 yildan ulug' Xun imperiyasi hukmronlik qilishgan. Bu imperiyaning hududi sharqiy Xun imperiyasi ma'muriy markazining nomi Tumanbaliq atalib, ichki Mo'g'ulistonda joylashgan edi. Ulug' Xun imperiyasi g'arbiy qismining hukmronlik yillari miloddan avvalgi 216 yildan boshlanib to'rtinchi asr oxirlarigacha davom etib, ichki ziddiyatlar hamda tashqi kuchlar (Xitoy) ta'siri natijasida yemirildi.

Ikkinchi Xun imperiyasining yemirilishi oqibatida hamda xunlarga qarshi kuchlar ta'qibi tufayli bir guruh xun avlodlari Sharqiy va G'arbiy Yevropaga siljib milodning 374 yildan 469 yilgacha Yevropada Xunlar imperiyasini tuzdi.

Yevropada Xunlar imperiyasining asoschisi Balamir (374-400 yillar) hisoblanadi.

Xun imperiyasi hukumdorlari orasida Attila (434-53 yillar) nomi Yevropa tarixida hozirga qadar mashhur. Hatto hozirgi Volga daryosining nomi ham Atilmuran. Itil muran Idil suvi atamasi sifatida Attila ismiga nisbat berilgan. Maxmud Qoshg'ariy o'z asarida "Itil suvi oqa turur" deb eslatib o'tgan.

Xunlar qabilaviy ittifoqining tashkil topishi haqida boshqa bir qarash mavjud: Gumilev, Taskin, Bichurin, Viktorova kabi olimlar bu imperiyani miloddan avvalgi II ming yillikga borib taqaladi, deb fikr bildirishgan. Bir qator olimlar XX asrning 80 yillaridan boshlab Xan davrigacha bo'lgan yozuvlarni shubha ostiga olishmoqdalar. Xunlarning ajdodlari kimlar ekanligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ba'zi olimlar Xunlarning arxeologik madaniyatlariga doir plitali qabrlarini Mongoliya va Baykal oldi hududlaridan topishgan. Zamonaviy arxeologik ma'lumotlar plitali qabrlarni Xun madaniyatiga etnik jihatidan yaqinligini isbotlashmokda. Bu madaniyat yodgorliklarining davrlari tipologik, xronologik chegaralarini miloddan avvalgi XII-VI asrlar deb belgilaydi. Bu narsa Xun yodgorliklari va plitali qabrlar orasida uzilish borligiga isbot bo'la oladi. Qadimdan Xun yodgorligi bilan Skif-Sibir madaniyati orasida munosabat borligi aniqlangan. Darhaqiqat Skif usuli deb nomlanadigan usul jihatlari g'arbdagi Ordos-Bronza madaniyatiga to'g'ri keladi. Lekin ko'pgina ko'mish odatlari va san'at namunalari mahalliy ixtisoslashuviga ega. Ko'pgina olimlar asossiz ravishda bu hududdagi madaniyat Xun madaniyati asosida tarqalganini aytishadi. U shimoliy Shansi provinsiyasini, Ordos va Inshiyanni janubiy qismlarini o'z ichiga olgan. Turli xil narsalardagi rasmlarni o'rgangan olimlar "Ohu toshi" deb nomlangan haykaltaroshlik usulini topishdi. A.V.Varenov ta'biricha, bu yerlardan turli xil qurollar (bolta, pichoq, sanchqi, xanjar) topilgan. Tahlil natijalari Xitoy hududidagi Shensi, Shansi, Xebey kabi hududlardan ham shunday buyumlar topilgan deb ko'rsatadi.

Shu narsa aniqki, miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda Xunlar birlashmasi bilan bir qatorda Varvarlar ittifoqi bo'lganligini ham ko'rsatadi. Miloddan avvalgi V-III asrlarda Xunlarda ko'chmanchi imperiya tashkil topgan edi. Buning asosida quyidagi holatlar kelib chiqadi:

1) Xun imperiyasi deb nomlangan katta siyosiy imperiyaning tashkil topishida etnik-siyosiy baza mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Ko'p yillar davomida siyosiy integratsiya va imperiyalar konfederatsiyasi o'rtasida bog'liqlik bo'lgan;

2) Xun siyosati Mo Di hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu esa ierarxik tuzum mavjudligini ko'rsatadi;

3) So'nggi izlanishlar natijalari Xitoy Xun arxeologik yodgorliklarini "kurashuvchi qirorliklar" davriga to'g'ri kelishini ko'rsatadi;

Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridayoq Xunlar janubiy qo'shnilar uchun katta xatar to'g'dirardi va Xitoy hududi chegaralaridagi davlatlarni talon-taroj qilishardi.

Gumilev fikricha, Xunlardan keyin hukumat tepasiga Dunxular keladi.

Ba'zi manbalarga qaraganda, xunlar turli yozuv shakllaridan foydalanishgan. Bu orqali dastlabki Xitoy yozuvini ifoda etishgan. Shaklan Xitoy yozuvi va tili asosida bo'lsa ham, talaffuzda o'z tillariga moslab o'qishgan. Shuningdek, milodning 250 yili Xun hukmdorlaridan biri Chunggu xoqoni Qang'toy degan kishi boshchiligida Kambodja mamlakatiga elchi yuboradi. Elchi Kambodjaliklar yozuvi xunlar xatiga o'xshaydi deb, ma'lumot bergan. U paytda Kambodjada sanskrit yozuvidan foydalanishligi ehtimoldan xoli emas.

Milodning oltinchi asrida birinchi turk xoqonlarida Istami Xoqon favoti munosabati bilan ko'yilgan qabr toshida uch xil yozuvdagi bitik bor: biri noma'lum yozuvda, ikkinchisi so'g'd xatida, uchinchi esa xitoy yozuvida. Noma'lum bitik sanskrit alifbosi asosida shakllangan xun yozuvi bo'lishi mumkin. Xunlarni mashhur xoqoni Modxon (Batur Tangriqut) tomonidan Xitoyning Xan sulolasiga oid hukmdorlariga maktublar yuborilgan. (I.Ya.Bichurin "Sobranie svedeniy o narodax obitavshix v Sredney Azii v drevnyu vremena", t. / M. - L.. 950). Milodning III asrida xunlar o'z imperatoriga yozgan maktubidan ham ma'lumdir. Shuningdek, Xun imperiyasi xoqonlari harbiy maqsadlar uchun xaritalardan foydalanilganlari haqida ham ma'lumotlar bor.

Xunlar san'at bobida turkiy xalqlarda qo'llangan bed, nog'oro, nay kabi musiqa asboblariidan foydalanishgan.

Xunlarda ham mansablar turkiy nom bilan ifodalangan, yigirma to'rt xil amal bo'lgan. O'ng ko'l bilgaxan, so'l qo'l kutig'i, o'ng qo'lxan, so'l ko'lxan, o'ng qo'l ulug' sang'un, so'l qo'l ulug' sang'un, o'ng qo'l ulug' tutug'bag', so'l qo'l ulug' tutug'bag', batisxan, tumanboshi. mingboshi (yuzboshi), yuzboshi, o'nboshi. kabi amaldorlar hamda harbiy unvonlar joriy qilingan. Umuman hokimiyat boshlig'i bo'lgan xoqon Tangriqut nomi bilan atalgan.

Xunlar asosan shamanlikka (kam, kaman) sig'inganlar. Unga ko'ra quyosh xudosi, oy xudosi, osmon xudosi, yer xudosi, yulduzlar xudosi kabi ko'p xudolari mavjud edi. Xunlar tong saxarlab quyoshga sajda qilishgan, tunda oygaga sig'inishgan, muhim jiddiy ishlarni oy va yulduzlarga qarab hal qilishgan, oy to'lganda dushmanlarga hujum qilishgan, oy tutilganda chekinishgan.

Ko'k tangrisi bilan yer tangrisi, butun hayotni yaratgan quyosh tangrisi bilan oy tangrisi tomonidan hukmronlik taxti ato qilingan deb hisoblangan. Uy, chodirlarning eshiklari sharq tomonga qaratib qurilgan. Xunlar ko'pxudolik tufayli, turli ma'dan va yog'ochlardan sanamlar yasashgan, butparstlik kuchaygan. Shamanlikka ko'ra, sharq - ko'k rang, janub - qizil rang, g'arb - oq rang, shimol esa qora rang bilan ifodalangan. (Turg'un Olmos. Ko'rsatilgan asar). Xunlarda shamanlik hayotning barcha sohalarida o'z aksini topgan. Xunlarga xos shamanlik an'anasi qadimgi turk, eski turk davrlarida ham davom etgan. Hatto Amir Temur tomonidan qurilgan Oqsaroy hamda Ko'ksa-

roy, shuningdek Oltin O'rda davrida tashkil topgan Oq O'rda hamda Ko'k O'rda nomi Xunlar davridagi an'ananing davomidir.

Xun hukmdorlarning nomlarini Xitoy yozuviga asoslangan manbalardan transkripsiya qilinganda, ko'pchiligining ismi turkiy til qonunlariga mos kelganini ko'rish mumkin.

Miloddan avvalgi Xun hukmdorlari: Tuman (240-210). Batur Tangri Qut(210-174. O'g'izxon deb ko'rsatilgan), Kayuk (174-161), Kunchin (161-126), Uvay (126-114), Uyshilur (105-102), Qulig'u (101-96), Guliku (96-85), G'uyondi (85-68), Shuliy Qanuy (68-60), Uyonquti (60-58), Kig'ushar (58-31), Qutiyush (41-20), Suchiyanuti (20-12), Uchulunuti (8-1, milodiy - 13). Ulunuti (milodiy 13-18), G'uti Arshi Davganuti (milodiy 18-46), Udatg'u (46-48).

Sharqiy Xun tangrikutlari (hukmdorlari: milodiy sana): Shilushyuti (43-46). Chiyuquti (56-57), Ilg'a Paluti (57-59), Xitungshi (59-63), Gushi Shuxuti (63-85), Iltu Uluti (85-88), Shulan Shuquti (88-93), Arg'u (93-94), Tandur Shuquti (94-98), Vanchi (Banchi) Shisuti (98-124), Uchg'u Shisuti (124-128), Qutunu Shisuchuti (128-140), G'ullannushi Suchu (143-147), Illinis Suchu (147-172), Utinushi Suchu (172-178), G'uchin (178-179), Qamquyi (179-195).

G'arbiy Xun tangriqutlari (milodiy sana): Panu (46-83), Sanmu (83-84), Ulut (84-89). Shimolay (89-91), Panku (93-118).

Yevropa Xun hukmdorlari (milodiy sana): Balamir (374-400). Yulduz (400-410). Qaratun (410-415), Bunchuk (415-422), Ruyo (422-434), Atilla (434-453). Tilik (453-454). Danggizbag (454-469). Ko'rsatilgan Xun hukmdorlarining asoschisi Chunvey (Cho'ngbag) hozirgi davrdagi uch ming ikki yuz yil ilgari yashaganligi hakida ma'lumot uchraydi (Turg'un Olmos, ko'rsatilgan asar).

Miloddan avvalgi III asrida Oq xunlar (qushonlar) Xunlarning bir tarmog'i tarzida Markaziy Osiyoning Gansu viloyatlarida eradan avval yashagan. Oq xunlar Ulug' xunlarning ittifoqchisi hisoblangan hamda o'zaro qarindosh bo'lishgan. Oq xunlar Markaziy Xun imperyasining ittifoqchisi Uysunlar (Usunlar, Xunlarning bir tarmog'i) orasida nizo chiqib, Oq xunlar bilan Uysunlar o'rtasida miloddan avvalgi 209 yili urush kelib chiqadi. Uysunlar Oq xunlardan yengiladi va Markaziy Xun davlati Uysunlar tomonini olib, Oq xunlarga qarshi urush olib boradi. Oq xunlar yengilib, Gansudan g'arbga tomon ko'chib, Kucharda (g'arbiy Turkistonda) o'rtnashadi. Uysunlar esa yana vatanlariga -Arsin vodiysiga qaytib, o'z davlatlarini tuzadi. Ko'p o'tmay Oq xunlar yana Uysunlarga Arsin (Ersin) o'lkasini tashlab ketishadi. Miloddan avvalgi 175 yili Oq xunlar isyon ko'taradi. Batur Tangriqut o'zining Kayuk nomli qo'mondoni boshchiligida Uysunlarga yordam berish bahonasida Oq xunlarga qarshi ko'shin tortadi. Oq xunlarni tor-mor qiladi. Urushda yengilgan Oq xunlar o'z hukmdori - xonning xotini boshchiligida

g'arb tomonga ko'chadi. Ili vodiysiga joylashadi. Uysunlar miloddan 150 yil avval Ulug' Xun davlatidan yordam olib, Oq xunlarni avval Qashqar (Qoshg'ar) vodiysiga, so'ngra Baqtriya ko'chishga majbur qilishadi. Amudaryo-ning o'ng qirg'og'iga (Surxandaryo va Qashqadaryo vohasiga) o'rnamashishadi, yunon-makedon (ellin) davlatlariga zarba berishadi va ular hukmronligini yemirib tashlashadi. Ular miloddan avvalgi II asrda Ulug' Kushon davlatini tuzishadi (Turg'un Olmos, ko'rsatilgan asar). Bichurinning ma'lumotiga qaraganda, bir yuz yigirma ming oiladan iborat, har qaysi oila bir harbiy kishi berishga qodir bo'lgan bu davlatning aksari aholisini kushonlar tashkil etib, ma'lum qismi juan-juanlar (mug'ullar) edi. Shuningdek, kushonlar Qang'xa (Qang'lilar), kanlar (kanlar), usunlar, tuyuklar bir-birga yaqin lahjada so'zlashishidan hamda qonunlari (tuzuklar), udumlari bir-biriga o'xshash bo'lgan. Xitoy elchisi Chjan Syan miloddan avvalgi 138 yilda bu yerga kelganda mazkur ma'lumotlarni to'plagan (I.Ya.Bichurin ko'rsatilgan asar).

Kushonlar va eftalitlar (Abdallar) davriga oid Ellin-Baqtriya xatida beshinchi asrda turkiy tilda bitilgan jumlar saqlanib qolgan: "Kuysan (kupyun) tilingtin to'xriy tilincha yaratmish, anatkak (sanskrit) tilingtin go'xri tilincha yaratmish". Bu misol kushon va eftalitlar turkiy xalqlar avlodi ekanini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ular qatori xunlar ham qadimiy turkiy qavmlar bilan qarindosh ekanliklarini ko'rsatadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Baqriyana - So'g'diyona ta'siri an'ana tarzida davom etgan. Shuningdek turkiy xalqlarning turgash xoqonligi davri tangalarida ham an'ana tarzida so'g'dcha yozar edilar. Tarixan skif-un, xun (gun) lar nomi bilai yashagan xalqlar milodning 6 asr o'rtalarida o'tgan bir yarim ming yillik davr mobaynida turklar nomi bilan mashhur bo'lgan. Turkiy xalqlar asrlar osha Osiyo, Yevropa, Afrika qit'alarida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yetakchi guruhlardan hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xunlar nomi bilan atalgan ushbu qabilalar tarix sahnasida o'ziga xos iz qoldirdilar.

Tayanch tushunchalar: Xunlar, xunlar imperiyasi, xalqlarning buyuk ko'chishi, skiflar, Baqtriya, kushonlar, tangriqut.

Savol va topshiriqlar:

1. *Xunlar to'g'risida nimalarni bilasiz?*
2. *Markaziy Osiyo xalqlari bilan ular o'rtasidagi aloqalar nimalarda ko'rinadi?*
3. *Xunlar va xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning oqibatleri haqida nimalarni bilasiz?*

2.10. Yuejchilar va Xunlar, Kushonlar saltanatining shakllanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar

O'quv maqsadi: Yuejchilar qabilalari va ularning qadimgi Farg'ona va Yunon-Baqtriya yerlariga bostirib kirishi, Kushonlar saltanatining tashkil topishi, Kushonlar podsholigining Afg'oniston, Pokiston va Hindiston hisobiga kengayishi, Kushonlar davlat tuzumi va boshqaruv shakli, madaniyati, Xitoy va Rim bilan munosabatlari haqida talabalarga batafsil ma'lumot bersih, tarixiy davr haqida tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish.

Spitamen qo'zg'oloni mag'lubiyatidan so'ng, miloddan avvalgi IV asr oxirlarida xitoy manbalarida yuechjilar deb atalgan massaget qabilalari Sharqiy Turkistondan to Mug'uliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga ko'chib ketganlar. Xitoyning shimolda esa xun qabilalari yashardi. Ular Sharqiy Turkistonda joylashib olib, xunlarni o'z ta'sirlariga olish niyatida bo'lganlar. Ularning bu niyati ayniqsa miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida to'la namoyon bo'la boshlaydi. Sababi, xuddi shu davrda Markaziy Osiyoning janubi-sharqiy viloyatlarida Yunon-Baqtriya davlati tarkib topib, yuechjilarni bezovta qilmoqda edi. Yunon-Baqtriyaga qarshi Markaziy Osiyo qabilalarining birlashgan mustaqil qo'shinining zaruriyati kelib chiqqan edi. Yunon-Baqtriya podxsosi Yevtidem massaget qabilalarini bu harakatlarini barbod etish maqsadida xunnlardan mohirona foydalanadi. Yevtidem miloddan avvalgi 206 yilda salavkiylar hukmdori Antiox III bilan shimol ko'chmanchilariga qarshi harbiy ittifoq tuzadi. Bundan xabardor bo'lgan xun shahzodasi Mode yuechjilar qo'lidan qaramlikdan qochadi, o'z otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga lashkar tortib boradi. Miloddan avvalgi 176 yilda xunlar yuechjilar ustiga ikkinchi marta hujum uyushtiradilar. Oqibatda xunlar 165 yilda yuechjilarni g'arbga uloqtirib tashlaydilar. Rivoyatlarga qaraganda xun hukmdorlari mag'lub bo'lgan yuechjilar podxsosining bosh suyagidan kosa yasab, g'alaba sharafiga unda sharob ichib yurgan ekanlar. Yuechji qabilalari qadimgi Farg'ona yerlariga chekinadilar va o'sha yerda istiqomat qila boshlaydilar. Manbalarda yozilishicha, qadimgi Farg'onani shimoliy tumanlarida yuechjilar qishloq va shaharlar barpo etadilar.

Bu davrda yagona bir podsho bo'lmagan, balki urug' va urug' yabg'ulari qabila oksoqollari qo'l ostida birlashganlar. Jumladan, hozirgi Namangan viloyatining Yangiko'rg'on tumani hududida Kushon qishlog'i va Kosonsoyda Koson shahrini yuechjilar barpo qilgan edilar. Ma'lumki, miloddan avvalgi 155 yilda Yunon-Baqtriya davlati inqiroz sari yuz tutdi.

Kushonlar to'g'risida eng kerakli ma'lumotlarni "Kichik Xan tarixi" asari (Xitoy sulolasi)dan, shuningdek, Kushon hukmdorlarining tangalaridan va ular qurib qoldirgan yodgorliklardan olish mumkin.

Xitoy solnomalarida kelishicha, Yuechjilar Baqtriyada 5 ta oilaga bo'linib yashadilar. Guyshuan oilasining yabg'usi qolgan 4 oila yabg'ularini 100 yil mobaynida o'ziga tobe etib, Guyshuan podsholigini tashkil qiladi va poytaxti taxminan Baqtra bo'lgan deyiladi. Uning yabg'usi Kiotszyukyu (ayrim manbalarda Geray) Parfiya bilan urush olib borib, hozirgi Afg'oniston hududlari va Qobulni egallab olgan. Keyinchalik uning o'g'li Hindistonni bosib oladi va uni boshqarishni o'z lashkarboshilaridan biriga topshiradi. Uning qo'shnilari bu davlatni "Guyshuan" deb atagan bo'lsa, Xitoyda ularni hali ham o'sha eskichada yuechji deb atashardi. Kushon podsholarining nomlari Xitoy yozma manbalarida juda noaniq transkripsiyada berilgan. Hindiston va Markaziy Osiyodan topilgan tangalar yordamida kushon podsholarining nomini bilishimiz mumkin.

Bir vaqtning o'zida Kushon hukmdorlarining hukm surgan yillari to'g'risida ham Hindiston, ham Xitoyda yozilgan qaydnomalar mavjud. Lekin ularda berilgan sanalar keskin farqlanadi. Buning sababi nimada?

Bunga sabab Xitoyda oy va quyosh kalendarlariga amal qilingan. Hindistonda esa Xitoydan farqli ravishda Budda, Vikram va Saka kalendarlari amalda bo'lgan. Ular mingliklar va yuzliklar (1000, 100)ni ifodalashmagan. Ularda faqat birliklar va o'nliklar (1-10) mavjud bo'lganligi uchun olimlar hanuzgacha solishtirish yo'li bilan Kushonlar hukmronligining aniq xronologiyasini aytib bera olmaydilar.

Ularning ilk podsholaridan biri Kudzula Kadfiz bo'lgan. U taxminan mil. 1 asrda 10 15 yil davomida hukmronlik qilgan. Shu davrda u alohida ajralib ketgan yuechji, tohar qabilalarini birlashtirgan. Kudzula Kadfiz arshakiylar hukmdori bilan, saklar (Xindiqush janubidagi) bilan jang qilib Qobul atrofidagi viloyatlarni, shuningdek Kashmirni ham ishg'ol etdi. U Kushon podsholigi hududini Sug'ddan yuqori Hind daryosigacha Pomirdan Parfiyagacha kengaytirdi.

Kudzula Kadfiz tangalarni Rim saltanati va Parfiya podsholari zarb etgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Shu boisdan ham bu davrdagi tangalarda «Kudzula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvli tangalar zarb etilgan. Kudzula Kadfiz vafotidan so'ng uning o'g'li Vima Kadfiz (yoki Kadfiz II) taxtga o'tiradi. U Hind daryosi havzasidagi va Panjobdagi viloyatlarni bosib olishga harakat qilgan.

Bu hududni boshqarib turgan grek-makedonlar kichik hukmdorlarining qo'shinini yengib, o'z davlati chegaralarini to Banorasgacha kengaytirgan. Bundan keyin Kushon chor davlati Buyuk Kushonlar saltanati deb atala boshlandi. U Vima Kadfizga atab tosh haykal o'rnatganlar. Bu haykal Hindistonning Matxura shahrida qad ko'targan. U shuningdek, mamlakatda pul islohotini o'tkazib, o'z nomidan tangalar zarb etgan. Kushon hukmdorlari ichida birinchi bor oltin tanga zarb ettirgan shoh Vima Kadfizdir. U joriy qilgan oltin tangalar Rim oltin tangalarining hajmi, og'irligi, bezaklari,

oltinning sifati, hatto og'irligi (8 gramm) bilan bir xil bo'lgan. Bu tangalar "Dinarius-Aureus" nomi bilan atalgan. Ushbu tangalarni biz Rim imperatori Avgust joriy etgan tangalarning ayni nusxasi deb atasak ham bo'ladi. Avgust va Vima Kadfiz bir davrda yashamagan bo'lsalar, qanday qilib Vima Kadfiz Rim oltin tangalaridan nusxa olishi mumkin? - degan savolga D. Makdouell quyidagicha javob bergan: "O'z davrida Rim tangalari tangalari tashqi bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan, o'sha paytlarda Rim Parfiya bilan chegaradosh bo'lgan. Keyinchalik, Parfiyani Kushon va Hindiston bilan savdo aloqalari natijasida Rim tangalari ushbu hududlarga kirib qolib, shoh bu tangalarning ba'zi elementlarini o'zgartirib o'z nomidan tangalar zarb qildirgan bo'lishi mumkin".

Kushonlarning tangalari quyidagicha ko'rinishda bo'lgan:

Old tomonida: shohning boshi (uning boshiga mato bog'langan, bu uning "hukmdorlik" belgisi bo'lgan) va "Nika" ma'budasining u tomon uchib kelayotgani ("Nika" shohlik, hukmdorlik ato etuvchi ma'buda) tasvirlanadi.

Orqa tomonida 4 xil grekcha va kushoncha yozuv uchraydi:

1. Hukmdor.
2. Tiran (boshqaruvchi).
3. Noaniq (Kushon tilida bo'lgani uchun). Olimlarning taxminicha "Kushon", "Gushon" bo'lishi mumkin.
4. Hukmdorning ismi. (Ilk hukmdor Geray mil. avv. I asr oxiri – milodiy I asr).

Shuningdek, bizgacha Kushonlar davrida muomalada bo'lgan "nomsiz tangalar" ham yetib kelgan. Ushbu tipdagi tangalar Tojikiston hududidan topilgan bo'lib, ushbu tangalarning muallifi ko'rsatilmasdan, faqatgina "Soter megas" (shohlar shohi - ulug' qutqaruvchi) degan yozuv uchraydi. Ushbu tangalar aynan kimga tegishli ekanligi to'g'risida bir necha variantlar bor:

- Masson, Pugachenkova: Kudzula Kadfiz chiqargan bo'lib, davlat ishlariidan pastroq mavqe'da bo'lgan ishlarda (qora bozorda) muomalada bo'lgan.

- A. Somonetga: Kadfiz II chiqargan bo'lib, u yoshligida davlatni otasi boshqargan, Kadfiz II esa maydaroq joy va maskanlarni boshqargani uchun, otasi uning obro'sini ko'tarish uchun "nomsiz tanga" chiqarishga ruxsat bergan. Tangada o'z nomini bermaganiga sabab, o'sha paytda boshqaruv tizimi to'laligicha otasining qo'lida bo'lganligidir.

- E.V.Zayman fikricha, har bir shoh shu turdagi tangalarni muntazam ravishda past tabaqa vakillari uchun muomalaga chiqarilgan.

"Yuqoridagi tahminlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bizga ma'lumki Vima Kadfiz Hindistonni bosib olgan, u shu yerdagi Matxuri va Kashmir shaharlarida dam olib turgan. Aynan nomsiz tangalar shu maskanlarda ko'p topilgani uchun, nomsiz tangalar shu yerlik aholi uchun maxsus chiqarilgan degan fikrga kelishimiz ham mumkin.

Kushon davlati bu davrda eng gullagan va hududlari juda ham kengaygan davrni o'z boshidan kechiradi. Kanishka budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e'lon qiladi. Buddizmni qabul kilib, uning saltanat miqyosidagi tashviqotchisi va himoyachisiga aylanadi. Kanishka davlat poytaxtini Dalvarzindan Peshovarga ko'chiradi. Milodning I asr 70-80-yilarida Sharqiy Turkiston yerlari masalasida Xitoy-Kushonlar xitoyliklarning Sharqiy Turkistondagi yerlarini egallash uchun qilgan harbiy harakatlarga xayrixoh bo'lganlar. Hatto ular 84 yilda Xitoylarga qarshi kurashish uchun Qashqarga yuborilgan Qang'uy qo'shinini tezda chaqirib olishni Qang'uy podsxosidan talab ham qiladi. Natijada Qang'uy podsxosi o'z ko'shinini chaqirib oladi. Qashg'ar hokimligi esa xitoyliklarga taslim bo'ladi. Shundan so'ng kushonlar Xitoyga Turfonni bosib olishga yordam berdi. Buning sababi Kushon elchisi katta sovg'alar bilan Xitoy hukmdorining qizini Kushonlar podsxosiga uylantirish maqsadida Xitoyga borgan edi. Xitoy hukmdori uni qamoqqa oladi. Natijada ikki o'rtaga sovuqchilik tushadi. O'zini haqoratlangan deb hisoblagan Kushon hukmdori 70000 kishilik qo'shin bilan Xitoyga qarshi yurish qiladi. O'zaro kurashda u yengilib, Sharqiy Turkistondan qochishga majbur bo'ladi. Kushonlar Sharqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatolmagan bo'lsalarda, Hindiston yilnomalarida Kanishkaning Tarim havzasini bosib olganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Xullas, Kanishka podsholik qilgan 23 yillik davrda Kushonlar davlati hududlari juda ham kengaygan.

Soson podsxosi Shopur I yozdirgan «Zoroastr kaabasida» kushonlar saltanatining hududi haqida: «Kushonlar mamlakati Peshovar, Qashqar, So'g'd va Chochgacha cho'zilgan» -deyiladi. Markaziy Osiyoda kushonlar asos solgan 3 ta mashhur shahar bo'lgan:

- 1- Koson - Farg'ona vodiysida;
- 2- Kattaqurg'on - Zarafshon vohasida;
- 3- Kesh - Qashqadaryo viloyatidir.

Kushon davlatining xalqaro elchilik va savdo aloqalari keng rivoj topgan edi. Kushonlar 4 yo'nalish orqali tashqi savdo olib borganlar: 1 - Xitoygacha; 2 - Hindistongacha; 3 - Parfiyagacha; 4 - Kama daryosi bo'ylarigacha;

Kushonlar doimo Parfiya savdogarlari bilan G'arb yo'li uchun raqobatchi hisoblanganlar. Odatda har bir davlat hududidan oyiga bir karvon chiqariladigan bo'lsa, Kushonlar g'arb tarafga oyiga ikki marotaba karvon chiqarganlar, bu ish Parfiyani raqobatdan chiqarish maqsadida qilingan. Bunga dalil qilib Rim hududlarida Kushon tangalarining Parfiya tangalaridan ko'ra ko'proq topilganligini keltirishimiz mumkin.

Chetdan Kushonga kirib kelgan asosiy tovarlar ro'yxati quyida jadval shaklida berilgan.

Davlat va joy nomlari	Tovarlarning nomi
Xitoy	ipak mato, nefrit toshi, Lyusern daraxti (mevasi oltin kabi tovlanadigan qimmatbaho daraxt), egiluvchi temir(sovut uchun), nikel.
Hindiston	taqinchoq va shirinliklar.
Rim	suvinirlar va oyna mahsulotlari.
Kama daryosi bo'ylari	jun (mex) va qishki issiq kiyimlar.

99 yilda Kushon va Rim saltanatlari o'rtasida yaqin elchilik aloqalari bo'lgan. Ehtimol shu boisdan bo'lsa kerak, Rim podsholari II asr boshlarida Troyan kolonnalariga Rimga kelgan elchilar, savdogarlar, hunarmandlarning tasvirlarini tushirganlar. Ana shu haykal tasvirlarida Markaziy Osiyo vakillarning tasvirlari ham uchraydi. Baqtriya hududida Rim tangelari va san'at asarlarining namunalari ko'plab topilgan. Kanishka davrida davlat tili Kushon-Baqtriya tili hisoblangan.

Miloddan avvalgi III asr oxirida imperator Ashoka buddizmni davlat dini etib tasdiqlangandan keyin Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasidagi madaniy ayrboshlash kuchayib ketdi. Bir tomondan, hind hukmdorlari, ikkinchi tomondan uni davlat diniga aylantirishga intilgan kushonlar imperatorlari rag'batlantirib turgan buddizm kushonlar imperiyasi davrida shimoliy Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasidagi madaniy ayrboshlashning muhim formasi bo'lib qoldi.

Hunarmandlar mahallalari bo'lib, oddiy kishilar ommasi yashagan eski Termiz buddizm tarqalishi uchun eng qulay joy bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Bu shahar kushonlar davrida butun Markaziy Osiyo bo'yicha yangi diniy ta'limotni tarqatish va rivojlantirish markazi bo'lib qoldi. Shaharnipg shimoli g'arbiy chekkasida g'or va yer usti binolarni birlashtirgan Qoratepada budda dini markazi Fayoztepa joylashdi.

Tayanch tushunchalar: Yunon-Baqtriya, massaget, yuechjilar, kushon, Kudzula Kadfiz, Vima Kadfiz, Kanishka, Tohariston, Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xeytun, Gaofu, Nika, yabg'u, Tiran.

Savol va topshiriqlar:

1. Yuechjilar Xunlarni o'ziga bo'ysundirishiga nima to'sqinlik qildi ?
2. Guyshuan oilasi qay tarzda hukmronlikni qo'liga oldi ?
3. Qaysi Kushon hukmdori birinchi marta tanga zarb ettirgan ?
4. Qaysi Kushon hukmdori birinchi marta oltin tangani joriy etgan?
5. Kanishka davrida Budda dinining davlat diniga aylantirishidan ko'zlangan maqsad nima edi?
6. Sizningcha "nomsiz tangalarni" qaysi Kushon hukmdori zarb qildirgan?

2.11. Qang' davlatining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniy hayoti, diniy munosabatlar

O'quv maqsadi: Qang' davlatining tashkil topishi va uning hududi, Qang' davlatining siyosiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, etnik tarkibi, Qang'arlarning boshqa davlat va xalqlar bilan aloqalari, din va diniy munosabatlar haqida batafsil ma'lumot, tushunchalar berish va davr haqida ko'nikmalar hosil qilish.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Qang' davlati muhim iz qoldirgan. Bu davlatning paydo bo'lishi ko'chmanchi qabilalarning mil.avv III asrda Yevrosiyoga tez suratda kechgan siljishi bilan bog'liq. Qang'uy (xitoycha Kanzyu) davlati haqidagi ilk ma'lumotlar er. avv II asrga oid hitoy manbalarida, hususan Sin Syanning "Shi szi" solnomasida uchraydi. Uning geografik joylashuvi quyidagicha bo'lgan: janub va janubi-sharqdan Dovon (Farg'ona), shimoli-sharqdan usunlar bilan, g'arbdan Katta Yuechji va janubi-g'arbdan Daxya (Baqtriya) o'rtasida joylashgan. Bundan kelib chiqib, shu narsani aniq aytishimiz mumkinki, Sirdaryoning o'rta oqimlarida, hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatlari hamda Janubiy Qozog'iston yerlarida yashovchi qadimgi shakl qabilalarining Makedoniyalik Iskandar ko'shnolari va salavkiylarga qarshi kurashlari jarayonida miloddan avvalgi III asrda yarim o'troq Qang' davlati tashkil topdi. Bu davlat xalqining asosini shu yerda yashovchi tub yerli aholi, bir qancha ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar tashkil etgan. Yana bir geografik jihatga e'tibor qaratsak, tarixchi S.P Tolstov "Qang'arlar tarixi"da uchragan toponimlarga geografik izohlar keltiradi. Masalan: Suse Qashqadaryodagi Kesh, Fumu-Zarafshondagi Kushoniya, Yuni-Sxosh (Toshkent vohasi), Gi-Buxoro, Yuegyan-Xorazm (Urganch) deb aytib o'tadi. L.N.Vershtam esa, Yuni-Toshkent vohasida, Suse-Sirdaryo va Arisning o'rta oqimida, Fumu-Yangiqo'rg'ondan Kazalinskacha bo'lgan hududda, Gi-Sirdaryo etaklarida, Yugenyan bo'lsa Xorazmda joylashgan degan versiyani ilgari suradi.

Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, jumladan, o'zbek xalqi tarixida Qang' davlatining ahamiyati juda katta. Bu zaminda yashovchi qadimgi eron tilida so'zlashuvchi tub yerli xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston, Yettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar bilan yaqinlashadi. Natijada miloddan avvalgi II-I asrlarda Sirdaryoning o'rta oqimlari rayonlarida turkiy tilda so'zlashuvchi yangi etnos vujudga kela boshlaydi. Milodiy eraning boshlarida bu yangi etnos son jihatidan ko'payib, ko'pgina viloyatlarda o'z ustunligini ta'minlaydi va ular alohida qang'ar elati bo'lib shakllanadi. Ana shu elat birligi asosida tarkib topgan Qang' davlati o'zbek xalqi tarixida rosa VII asr

yashadi. Qang' davlatining yemirilishi bilan (V asr o'rtalarida) uning tarkibidagi elat va qabilalar tarqalib ketadi, uning o'rniga yangi siyosiy uyushmalar va etnik birliklar vujudga keladi.

Qang' davlati va uning xalqi qang'arlar haqida ma'lumotlar Xitoy manbalarida, "Avesto"da va ba'zi bir yunon mualliflari asarlarida uchraydi. Ptolameyning ma'lumotlarida Sirdaryo yaqinida uning o'rta qismida yashovchi qabila "kandar" deb atalgan. Xitoy manbalarida esa "kang'uy" (kansuy) deb atalgan. Xitoy tarixchisi Sima Syan o'z xotiralarida kanguy-larning joylashishi, harbiy kuchi, urf-odati, ularga qo'shni xalqlar haqida qisqacha ma'lumot bergan.

Qadimgi manbalarda Qang' idora qilinganligi, davlat tuzilishi qanday bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar yetib kelmagan. Ammo faqat bir marta Xan sulolasi davrida (miloddan avvalgi 2-1 asrlarga oid) kanguy podsxosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutishi eslatib o'tiladi. Osiyocha quldorlik jamiyati sharoitida tashkil topgan Qang' davlatida oliy kengash muhim rol o'ynagan. Davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashib, muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan. Podsho hokimiyati maslahat majlisi bilan hamnafaslikda ish yuritgan. Bu holat harbiy demokratiya prinsiplari asosida tashkil topgan davlat tuzumi edi. Qang' davlatiga qarashli yerlar bir necha viloyatlarga bo'lingan. Ularni boshqargan boshliqlar "jabg'u" yoki "yobg'u"lar deb atalgan. Qang' xoqonlari mamlatni ana shu jobg'ularga tayanib boshqarar ekan, ular odatda xoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qavm-qarindoshlaridan yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan. Qang' davlatiga tobe viloyatlarni boshqarish ishi mahalliy hokimlar ko'lida bo'lib, ular markaziy hokimlarga boj to'lab turgan. Ana shunday tobe viloyatlarga qadimgi Xorazm, So'g'd yerlari, Ural tog' oldi rayonlari kirgan. Shunday qilib, Qang' davlatining ikkita markazi bo'lgan. Ulardan biri Kanka bo'lib, u Toshkent vohasida, Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan. Bu shahar miloddan avvalgi III asrda bunyod etilgan bo'lib, u Qang' podsholarining qarorgohi bo'lgan. Aris daryosining quyi oqimida joylashgan O'tror esa Qang' davlatining xonlarinipg yozgi qarorgohi bo'lgan. Qadimgi salnomalarda qang'arlarga qarashli 5 ta viloyat tilga olingan. Aslida mahalliy xalq o'z yurtlarini hech qachon bunday deb atamagan. Tarixiy joylar va shaharlar nomlarini Xitoylashtirish xansularga xos ulug' Xitoy shovinizmining asosiy maqsadi edi.

Qang' davlatining iqtisodiy hayoti haqida to'xtaladigan bo'lsak, avvalo shuni aytish mumkinki, bu davrda iqtisod ancha yuksalgan. Manbalarda Qang' hukmdorlarining nomlari tilga olinmaydi, faqat shu narsa ma'lumki, ular o'zlarining ismlari bilan urug' nomini ham qo'llaganlar va "Qang'uy xonadoni hukmdori" nomi ostida o'z tangalarini zarb qilganlar.

Ular endigina taxtga o'tirganda-"Arshan" ismini qo'shib yozganligi ham diqqatga loyiq. Keyinchalik qang'arlarning 5 ta kichik davlatni o'z qo'l ostida birlashtirganligi haqidagi ma'lumot ham ularning iqtisodi ancha yuksalganligidan dalolat beradi. Mazkur davlatlarning aholisi o'z dalalarida suniy sug'orish asosida dehqonchilik qilganlar va o'zlarining mollarini yaylovda haydab boqish usulida chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Xitoy tarixchisi Sima Syan (miloddan avvalgi 2 asr) uning ko'chmanchi mamlakat bo'lganligini yozadi. Ammo milodiy eraning boshlariga oid to'ng'ich Xan sulolasining tarixida qang'uylarning o'troq xalq ekanligiga ishora qilinadi. Qang'uylarda qoramol va qo'ylar bo'lgan. Ular zotli otlarni ko'plab yetishtirganlar. Chorva mollarining ko'pchiligi Qang' podsholari va ularning yaqinlariga qaragan. Ular dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishgan. Bu vaziyat Qang'arlarning kambag'al qismini o'troq, yarim o'troq xo'jalik yuritishga majbur etgan. Bu masalada Qovunchi madaniyati va Jeti asar madaniyatiga tegishli yodgorliklarda o'tkazilgan arxeologik izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi

Iqtisodiy va ma'daniy jihatdan rivojlangan shaharlar ham aynan shu hududlarda tashkil topgan. Bunday shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari va yozuv ancha taraqqiy etgan. Hukmdorlar esa mahalliy tangalarni zarb kilganlar. Xorazm, Buxoro, Samarqand singari viloyatlarda ko'chmanchilarga mansub bo'lgan sulolalar hokimyat tepasida turganlar. Iqtisodning rivojini ularning mustaqil ravishda o'z tangalarini zarb qilganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Qang'larning etnik mansubligi haqidagi masala adabiyotlarda keng yoritilgan. Bu borada bir qancha farazlar mavjud. Jumladan, Ptolomey Qang'uy kanyayi (kanxa kishilari) yoki Yaksart aholisi bilan aynan bir deb hisoblaydi. Bu qarash B.A.Litvinskiy, Ye.Pulleybenk, S.G.Klyashtorniy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda ular yunon manbaalarida keltirilgan sak qabilalari ro'yxatida "Qang'uy" so'zining aynan muqobilini topganlariga asoslanadilar. Ularning Sirdaryo bo'ylaridagi geografik joylashuvi ham ayni farazga mos keladi.

Qang'uy davlati miloddan avvalgi II asrning oxiri va I asrniig boshiga kelganda buyuk davlat bo'lib, u Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yurgizar edi. Miloddan avvalgi 101 yilda Qang'uy Xitoy-Farg'ona mojarolariga aralashadi, yani Xitoy Farg'onaga urush ochib, uning poytaxti Ershi shahrini qamal qiladi. Qang'uy davlati farg'onaliklar tomonida turib, Xitoyga diplomatik taziq o'tkazdi. Xitoy uzoq davom etgan Ershi qamali natija bermagach, mudofachilar oldiga qator talablar qo'yadi va ularning talabi kondirilgan taqdirda Ershi qamalini to'xtatishini aytadi. Xitoyliklar o'z maqsadlariga erishib Farg'onadan uchar arg'imchoqlar olib ketadilar.

Miloddan avvalgi I asrda Qang'uy davlatining harbiy-siyosiy kuchi sezilarli darajada qudratli bo'lishiga qaramay, jamiyat taraqqiyotining har xil darajasida turgan ko'chmanchi va o'troq aholining uyushmasi edi. Davlat tepasida ko'chmanchi qabilalar vakillari turardi. Xuddi shu davrda qadimgi Xorazm va So'g'diyonada kundalik hayotning barcha jabhalarida sodir bo'lmoqda edi. Qang' davlati aholisi kang'arlar o'z qo'shnilari bilan yaqindan aloqada bo'lganlar. Ularning shimoliy, shimoli-sharqiy va janubiy ko'shinlar yue-chjilar, toxarlar, saklar, asianlar, xunlar, usunlar bo'lganlar. Bu qabilalarning bir qismi Sharqiy Eron tillari lahjalarida gaplashsalar, boshqalar turkiy tilda so'zlashganlar. Bu xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar ularni bir-birlariga yaqinlashish jarayonini tezlashtirgan. Natijada Eron tillarida gaplashadigan qang'ar yurtida qadimgi xun va usun qabilalari ta'sirida turkiy til muhiti hukmron bo'lib qoldi, qang'arlar esa batamom til jihatidan turklashib ketdilar.

Madaniy hayotga qo'shni hududlar bilan olib borilgan savdo ishlari ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Yagona siyosiy birlashma doirasida madaniy hayot rivoji uchun qulay sharoitlar mavjud edi. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini, shahar hunarmandchiligi buyumlarini ayirboshlashdan iborat bo'lgan davlat ichidagi savdodan tashqari Qang'uy orqali xalqaro savdoning gavjum yo'llari o'tar edi. Bu narsa madaniyatlar almashinuvida xizmat qiluvchi muhim omillardandir. Qang'larda ajdodlar ruhiga, osmonga va yerga ishonch kuchli edi. Ularga atab kurbonliklar qilingan. Ular quyoshga, oyga, va yulduzlarga topinib sig'inganlar. Qang'lar "u dunyo" borligiga ishonganlar. Ularning tushunchasiga ko'ra, kishilar vafotidan keyin u dunyoda yashaydilar. Shuning uchun o'liklar bilan birga, ularga atab, turli idishlarda taomlar solib ko'mganlar. Uy-ro'zg'or buyumlari va jang qurollari ham o'lik bilan birga qo'yilgan.

Tayanch tushunchalar: Qang', qanxa, qang'dez, shak, jabg'u, yobg'u, aris, kansuy, kang'uy, ershi, yusgyan, yuni, gi. suse, bityan, arshan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Qang' etnik tushunchami yoki siyosiy?*
2. *Qang'lar haqida S.P.Tolstov va A.N.Bernshtam fikrlariga qanday qaraysiz?*
3. *Bu davrda Markaziy Osiyodagi tarixiy vaziyat qanday edi?*
4. *Qang'larning boshqa xalqlari bilan aloqalari qay tarzda bo'lgan?*
5. *Kang' davlati madaniyatiga hissa qo'shgan omillar haqida nima deya olasiz?*

2.12. Qadimgi Choch va Farg'ona davlatlari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayoti

O'quv maqsadi: Qadimgi Choch va Farg'ona davlatlari va ularning tashkil topishi, Xitoy va Parkana munosabatlari, Choch va Parkana aholisining urf-odatlarini, boshqa xalqlar bilan munosabatlari, til va madaniyati, shaharlar va savdo, ijtimoiy hayot, din va diniy munosabatlar haqida talabalarga batafsil ma'lumot berish, tushunchalar va ko'nikmalar hosil qilishga erishish.

Choch - Toshkent vohasida joylashgan tarixiy-madaniy viloyatdir. Geografik jihatdan voha o'z ichiga Sirdaryoning o'ng irmog'i va o'rta oqimi hududlarini hamda Chirchiq va Ohangaron vodiylarini qamrab olar edi. Shimol va sharq tomondan Toshkent vohasi Tyanshan, Karjantov, Ugom, Maydantov, Ko'ksuy, Pskom va Chotqol tog' tizmalar bilan chegaralangan edi. Vohaning janubi-sharqiy hududlari Qurama tog'lari bilan chegaralangan bo'lsa, uning shimoli-g'arbiy va janubiy tomonlarida bepoyon cho'l yastanib yotar edi. Mana shu cho'l hududlarida qadimdan ko'plab ko'chmanchi chorvador qabilalari yashab kelganlar. Vohaning geografik joylashuvi uni ko'chmanchi qabilalar va o'troq (dehqon) aholi orasidagi o'ziga xos hududga aylantirar edi. Shuningdek, bu yerda ikki xil xo'jalik: dehqonchilik va chorvachilikning o'zaro holda uzoq vaqtgacha saqlanib qolishi mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga va bu yerda turli xil madaniy va siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi.

Choch ilk bor 262 yilda sosoniylardan bo'lgan ShopurI ning Sug'd va Chochiston tog'larigacha bo'lgan saltanati chegaralari tasvirlangan zafar yozuvlarida qayd etilgan.

«Choch» so'zining etimologiyasi unchalik aniq emas. Xitoy manbalarida Choch yaqinida tosh qo'rg'on bo'lganligi qayd etilgan bo'lib, shu sababli Choch Xitoy manbalarida Shi yoki Chjeshi deb, ya'ni «tosh» degan ma'noda kelgan. Shuningdek, bu davlat nomi Chochon bo'lgan degan fikrlar ham bor. Arablar «Chochon» degan nomni qisqartirib, «Sxosh» deb ataganlar. Buning sabab arab tilida «Ch» harfi bo'lmagani uchun uni «Sh» harfiga o'zgartirganlar.

Miloddan avvalgi II asrdan mil. III asrga qadar Choch Qang'yuy davlati tarkibida bo'lgan. Xitoy tarixiy manbalariga beshta kichik viloyat kirgan. Bular: Suse (Kesh-Qashqadaryo), Fumu (Zarafshon vohasidagi Kushoniya), Yuni (Toshkent vohasi), Gi (Buxoro), Yuegyan (Xorazm -Urganch). Qang'yuyi ko'chmanchi chorvadorlar davlati deb qayd etishsa ham, Xitoy tarixchilari unda shaharlar ham bo'lganligini yozib qoldirganlar. Har bir viloyatning shu nomdagi o'z markazi bo'lgan. Qang'yuy poytaxti Bityan shahri bo'lgan.

II asrning oxiri - III asrning boshlarida Qang' davlati zaiflashadi. Buning natijasida uning tarkibidan ko'pgina viloyatlar, shuningdek Choch ham ajralib chiqadi.

Yangicha hudud jihatdan katta bo'lmagan davlat tuzilmalari paydo bo'ladi. Bunga dalil sifatida III asrda zarb etila boshlangan dastlabki Choch tangalarini keltirish mumkin. Chunki, tanga zarb etish mahalliy sulolaning mustaqil tarzda hokimiyat yuritishni e'lon qilganligidan darak berar edi. Bunday tangalarning zarb etilishi birinchi galda ichki savdoni rivojlantirishga qaratilgan edi. O'sha davrdagi tashqi savdo qanday bo'lganligi esa noma'lumligicha qolmoqda, chunki Chochda mahalliy sharoitda zarb etilgan yoki chetdan olib kelingan bironta oltin yoki kumush tanga topilgan emas. III-IV asrlarda Chochda kuzatilgan iqtisodiy barqarorlik dastlabki tangalar ishlab chiqarish va uzoq vaqt davom etganligi va keng ko'lamda olib borilganligi sababidandir.

V asrdan boshlab, Choch eftaliylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrdagi Choch davlati hayoti qo'lyozma manbalarda kam uchrashi tufayli asosiy e'tibor «Shohnoma» asari ma'lumotlariga qaratiladi.

VI asrdan boshlab Sirdaryo bo'ylari, xususan, Choch davlati juda katta to'qnashuv va kurashlar maydoniga aylanadi. Bu voqealar tarix maydonida yangi siyosiy kuchlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. 550 yilda ko'chmanchi chorvador qabilalari ittifoqi yuzaga keladi va Mo'ng'ulistondan Oltoygacha bo'lgan hududlarni egallagan Turk xoqonligi yuzaga keladi. Bu xoqonlik g'arb tomon kengaya boradi. 555 yilda Istemi Turklarning g'arb tomon yurishlariga boshchilik qiladi. Choch Istemixonning o'g'li, G'arbiy Turk xoqonligining yirik hukmdorlaridan bo'lgan Qora Churin turk davlati tarkibiga kirgan.

Dastlab Choch mahalliy sulola vakillari tomonidan boshqarilgan. Ammo 605 yilda mahalliy sulola davlat ishidan chetlatilib hokimiyat turklar qo'liga o'tgan.

Bu davrda Farg'ona vodiysida yana bir davlat hukm surardi. Bu mamlakat haqidagi dastlabki yozma ma'lumot Xitoy elchisining miloddan avvalgi 128 yilga oid hisobotida *Davan* shaklida uchraydi. Farg'ona nomi esa 5 asrdan ma'lum. Uning podsholari – dehqon, ayni vaqtda forscha ixshid deb atalgan, poytaxti - Quva shahri, keyinroq Axsikat shahri bo'lgan. Farg'ona shimoldan Yettisuv, g'arbdan Choch va Iloq, janubi-g'arbdan So'g'd, janubdan Tohariston va sharqdan Sharqiy Turkiston viloyatlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xitoy manbalarida ta'riflanishicha, Farg'ona yerlari juda unumdor, aholisi (qariyb 300 ming kishi) dehqonchilik (g'o'za va sholikorlik) va bog'dorchilik (tokchilik, mevachilik) bilan shug'ullangan. Koson, Axsikat va Qubo kabi yirik shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib,

uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo'lgan. Farg'onada temirdan buyumlar yasash miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalaridayoq keng tarqagan edi. Qo'shni mamlakatlarga arg'umoqlar, bo'yoq, rangdor shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Shunday qilib, 6-8-asrlarda Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari hamda ichki va tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Uning strategik jihatidan qulay geografik o'rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'minlangan Koson, Axsikat, Qubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiylar bo'lib joylashgan istehkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyor kuchli harbiy mudofaa imkoniyatiga ega edi. Farg'ona Markaziy Osiyoning siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan kuchli davlat bo'lgan.

V-VII asrlarda Chirchiq daryosi vodiysida Choch hamda Ohangaron daryosi vodiysida Iloq (Eloq) atalmish ikkita mustaqil davlat mavjud edi. Chochning poytaxti Chochkant shahri (Mingo'rik shahar xarobasi) bo'lib, podshohi tudun deb yuritiladi. Xitoy manbalarida Choch viloyati Shi va Chjeshi nomlari bilan ma'lum. Iloqning poytaxti Tunkat, hokimlari dehqon deb atalardi. V asrda Choch viloyati Eftaliylar davlatiga, VI asrda esa G'arbiy Turk xoqonligiga bo'ysundiriladi. 8-asr boshida Choch birlashib yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi. Choch shimol va g'arb tomondan G'arbiy Turk xoqonligi, sharqdan Farg'ona va janubdan Ustrushona bilan chegaradosh edi. Choch sertarmoq xo'jalikka ega bo'lib, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa konchilik, ichki va tashqi savdo rivojlangan edi. Ilk o'rta asrlarda Chirchiq daryosidan Zog'ariq, Bo'z-suv, Anhor va Kaykovus kabi yirik sug'orish tarmoqlari qazib chiqarilishi bilan Chochning ekin maydonlari kengaydi. Bu davrda Choch vohasida sertarmoq sug'orish shoxobchalari mavjud bo'lgan. Dehqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilardi. Ayniqsa, Chochning poytaxt shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, dehqon ko'rg'onlari va ko'shaklari, obod qishloqlar qad ko'targan edi.

Choch tog'lari oltin, kumush, ko'rg'oshin kabi rangli metallarga, temir va chaqmoqtoshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan hunarmandchilik rivoj topadi. Chatqol va Qurama tog'larida joylashgan Ko'hisim, Lashkarak va Koni Mansurdan kumush; Qo'shbuloq va Qizilolma konlaridan oltin hamda Ungurlikon va Oqtuproq konlaridan esa feruza qazib olinardi.

Rangli va nodir metall konlarining yaqinligi, ayirboshlash bozori bo'lgan ko'chmanchi chorvadorlar dashtining Choch va Iloqqa tutashib ketgani, mamlakatlararo karvon yo'lini o'lka orqali o'tishi Choch ichki va tashqi savdo kengayib, shaharlarning rivojlanishiga imkon berdi.

Chochning mohir ustalari, metallardan qurol-yarog‘, uy-ro‘zgor buyumlari, oltin va kumushdan zeb-ziynatlar yasaganlar, teri oshlab, charm pishirib, paxta va jundan mato to‘qib, sopol va shisha idishlar yasab, ichki va tashqi bozorni hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta‘minlaganlar. Chochdan chetga oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g‘alla, quruq meva va yilqilar chiqarilgan.

Shahar aholisiniig bir qismi savdo ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan, 6-8 asrlarda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Samarkand va Buxoro savdogarlaridan keyin turgan. Choch poytaxti tashqi savdo munosabatlarning markazi edi.

7-8 asrlarda Chochda kumush va mis tangalar yasaydigan zarbxona bo‘lgan. 8-asrda esa kumush dirhamlar hatto Iloqning kumush konlarida ham so‘qilgan. Choch tudunlari old tomoniga hukmdorning tasviri, orqasiga gajak dumli silovsin yoki qoplon tasviri, ba‘zan sulolaviy ayri tamg‘a tushirilgan chaka-tangalar zarb etganlar. Chochning o‘sha davrda so‘qilgan ayrim tanga pullari orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu ilk o‘rta asrlarda Chochning ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa siyosiy hayotida hukmdor tabaqa ayollarining ancha-muncha nufuzga ega bo‘lganidan guvohlik beradi.

Bu davrda ko‘chmanchi qabilalarning o‘troqlashuvini kuchayishi, chochliklar bilan olib borilgan doimiy iqtisodiy aloqalar tufayli Choch vohasi o‘zaro madaniy muloqotlarning markaziga aylanadi.

Biroq Choch o‘lkasi bu davrda Turk xoqonligiga tobe bo‘lishiga qaramay, hali o‘zining tili, yozuvi va qadimiy madaniyati, an‘analarini saqlab qolgan edi.

Marosimlar va urf-odatlar haqida so‘z ketganda otga sig‘inish haqida ham to‘xtalib o‘tish zarur. Uning izlari arxeologik yodgorliklardan topilgan, xususan, Farg‘onadagi o‘ndan ortiq arxeologik ob‘ektlarda otlar tasviri mavjudligi qayd etilgan. Bular jumlasiga qoyalardagi «duldul otlar» tasvirlari, hamda ayrim kulolchilik buyumlari tasvirlari kiradi. 1993 yillarda Davan podsholigi davriga mansub Sho‘rabashot shaharchasidagi qazilmalar chog‘ida - eramizgacha bo‘lgan II-I asrlarga oid, markazida ot tasviri tushurilgan sopol idish topildi. Davon atrofidagi otlar tasviri tushiriltan toshlar bor joylar esa yaqin vaqtlargacha muqaddas ziyoratgoh bo‘lib kelgan. Umuman, otga sig‘inish quyoshga topinish bilan bog‘liq bo‘lib, qadim zamonlarda mavjud otashparastlikdan kelib chiqqan. Gerodotnig so‘zlariga qaraganda saklarga qarindosh bo‘lgan massagetlar ulug‘ quyosh ilohiga eng tez yuguruvchi hayvon otni qurbonlik qilganlar. Qadimgi mualliflar Farg‘ona otlarini yuqori baholab, ularni «samoviy otlar» deb ataganlar. O‘sha zamonlarda uchqur arg‘umoqlar sharafiga haykallar qo‘yganlar va she‘rlar bitganlar.

Biz mazkur davlatda 70 dan ortiq kichik va katta shaharlar borligi haqida eslatib o'tgan edik, ularning orasida faqat uchtasining nomi manbalarla qayd etiladi: Ershi, Yuchen va Guyshan. Arxeologik qazilmalar o'sha davrda katta shaharlarning mavjud bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Hozirgi paytga kelib, Dovon davriga mansub bo'lgan bir necha o'nlab yirik arxeologik yodgorliklar topilganki, ular shubhasiz yuqorida tilga olingan shaharlar jumlasiga kiradi. Bular, xususan, Sho'rabashot (maydoni 70 ga, O'zgan yaqinida, O'sh viloyati), Ko'rg'oshintepa (O'sh yaqinida), Yangibozor (10 ga, O'sh viloyati, Novqat tumani), Mingtepa (38 ga, Andijon viloyati), Quva (12 ga, Farg'ona viloyati), Balandtepa (9 ga, Namangan viloyati), Uchqo'rg'on (24 ga), Oqtepa (12 ga) va Qaynavot (15 ga, Namangan viloyati) kabi yodgorliklardan iborat.

Dovonning sharqiy qismida mustahkam devorlar bilan o'ralgan va o'z hukmdoriga ega bo'lgan Yuchen shahri joylashgan.

Avval olimlar uni hozirgi O'zgan shahri o'rnida joylashgan deb hisoblar edilar. Biroq, mazkur mintaqada uzoq vaqt davomida arxeologik qazishmalar olib borgan Yu.A.Zadneirovskiy Yuchenning joylashgan yerini O'zgandan ko'ra sharqroqda joylashgan, maydoni 70 ga bo'lgan qadimiy Sho'rabashot xarobalari bilan bog'laydi. Ehtimol, bu O'zganda Dovon, davriga oid arxeologik materiallar topilmagani bilan izohlansa kerak. Ayni paytda, Sho'rabashotda mazkur davrga tegishli bir necha mudofaa devorlari va qatlamlar mavjud ekanligi qayd qilingan.

Xitoydan Farg'onaga olib keladigan yo'ldagi ikkinchi yirik shahar Ershi bo'lib, unda hukmdorniig qarorgohi joylashgan. Qadimgi muarrixlar Ershida mashhur samoviy otlar yetishtirilganini aytib o'tadilar. Shahar ikki: ichki va tashqi qismlardan iborat bo'lgan. Ershining joylashgan yeri haqida manbalarda ishonchli, aniq ma'lumotdar yo'q. Bu xususda turli fikrlar mavjud. Ershining joylashgan o'rnini haqida eng asosli fikrni A.N.Bernshtam bildiradi va uningcha bu yer Andijon viloyatidagi Marhamat (Mingtepa) ko'rg'onidir.

Shu munosabat bilan savol tug'iladi: nega endi u Marhamat (Mingtepa) ko'rg'oni bilan bog'lanmoqda? Birinchidan, yuqorida tilga olingan manbaga ko'ra Ershi Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan; ikkinchidan, Mingtepada kuchli mudofaa tizimi (ichki va tashqi devorlar) va katta maydon (38 ga) aniqlangan; uchinchidan, Mingtepaga o'xshash yirik yodgorlik vodiya boshqa aniqlanmagan. Shuni ham qo'shimcha qilish joizki, xitoyliklar tomonidan madh etilgan «samoviy otlar» ning tasviri Minggepadan uncha uzoq bo'lmagan qoya toshlarda topilgan va ular Ershining gullab yashnagan davri deb hisoblanuvchi eramizgacha bo'lgan II-I asrlarga to'g'ri keladi.

Podsholikdagi navbatdagi shahar Guyshan bo'lib, u keyinchalik Gesay deb atalgan. U Farg'onaning shimolida joylashgan, biroq hozirgacha uning kaerda joylashganligi haqidagi masala hal etilmagan. Hali 1909 yildayoq V.V.Bartold bu shaharni Namangan viloyati Kosonsoy shahri yaqinidagi Mut qo'rg'oni xarobalari o'rnida joylashgan deb hisoblagan edi. U o'z fikrini xitoy manbalaridagi ma'lumotlar yordamida tasdiqlaydi. Ularda shunday deyiladi: «Lona qadimgi Dovon viloyati bo'lib, Guyshan hukmdorining qarorgohidir».

Yu.A.Zadneprovskiy ham shu nuqtai nazarga qo'shilgan, ammo har ikki olim ham bari bir Dovonning asosiy poytaxti Ershi bo'lgan, deb hisoblaydilar. Bundan ayon bo'ladiki, mazkur podsholikda bir vaqtning o'zida ikkita poytaxt bo'lgan. Agar manbalarga diqqat qiladigan bo'lsak, unda eramizgacha bo'lgan II asrda davlat poytaxti Ershi ekanligi, eramizning I asrida esa Guyshan poytaxt bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Ehtimol, bu o'rinda biz sharqning ayrim mamlakatlariga xos bo'lgan hukmdorlarning qishlik va yozlik qarorgohlarining mavjudligi holatiga duch kelgandirmiz. Masalan, ko'shni Kanguy davlatida (eramizgacha bo'lgan II asr – eramizning V asri) ikki poytaxt bo'lgan: yozgi – Faney va qishki – Bityan. Demak, unda ikkita poytaxt bo'lgan degan fikrga kelish mumkin, biroq Guyshan sifatida, anglashilayotgan Mug' qo'rg'oni maydoniga ko'ra uncha katta emas. Mug'tepa davlat poytaxti bo'lishdan ko'ra mustaxkamlangan qal'a bo'lganligi haqiqatga yaqinroqdir.

Ta'kidlab o'tish joizki, Dovon davlati haqida dastlab eramizgacha bo'lgan II asrda, oxirgi marta esa eramizning III asrida, 280-289 yillarda xitoy elchilarining Farg'onada bo'lishi munosabati bilan eslatib o'tiladi. Shundan so'ng manbalarda Dovon haqida hech qanday ma'lumotlar uchramaydi, ancha keyinroq esa 436 yilda imperator Vey elchisi Dun Vap' Polonaga – sobiq Dovonga borganligi haqida ma'lumot beriladi. Demak, bu davrga kelib siyosiy vaziyat o'zgargan va Dovon boshqa nom bilan – Polona deb atala boshlagan. Shunday qilib, Farg'onadagi davlat 400-500 yil davomida xitoy manbalarida Dovon nomi ostida mavjud bo'lgan.

O'zining butun tarixi davomida mazkur davlat yirik imperiyalar va kuchli davlatlar ta'siri ostiga tushmasdan o'z siyosiy erkinligini saqlab kelgan. Arxeologik topilmalar ham qadimgi Dovonning o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Masalan, Farg'ona vodiysi eramizgacha bo'lgan VI-IV asrlarda Eron Ahamoniylari va Iskandar Zulqarnayn bosqinlaridan chetda qolgan. Iskandar faqat Xo'jand shahrigacha kelgan, xolos. Salavkiylarning ham vodiya kirib borganliklari haqida ma'lumotlar yo'q. Dovon dehqonlar va chorvadorlarning, hunarmandlar va savdogarlarning ko'plab shaharlarga hamda boshqaruvning demokratik tuzumiga


ega bo'lgan davlati edi. Shubhasiz, u tariximizda sezilarli iz qoldirib, Farg'onaning keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Dovonning ikki marta katta kuch bilan bostirib kirgan Xitoy imperiyasining qo'shinlariga qarshi turib, o'z mustaqilligini mardona himoya qilganligi ham diqqatga sazovordir.

Demak, Dovon - Farg'ona davlati mil. avv. IV va milodiy III asrlarida mavjud bo'lgan va boshqaruv tuzumiga ko'ra podsholik hisoblanadi. Dovonda dehqonchilik va chorvachilik juda rivojlangan edi. Dehqonchilik yerni sun'iy sug'orishga asoslangan. Boy va rang-barang moddiy madaniyat namunalari Dovonda hunarmandchilik turlari juda rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji Dovonda shaharsozlik madaniyatining gullab-yashnashiga olib kelganligini ta'kidlab o'tish joiz. Manbalardan ma'lumki, 25 foiz aholi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak Yo'li faoliyat ko'rsata boshlashi ham bu davlatning gullab yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu qit'alararo savdoda sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'ling xavfsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar yetkazib berishda Farg'ona asosiy rol o'ynagan. Mohiyat - e'tiboriga Dovon dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va savdogarlar davlati edi. Bu davlat Farg'onaning keyingi taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Tayanch tushunchalar: Choch, Dovon, Parkana, numizmatika, Eloq.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ilk o'rta asrlarda Choch davlati iqtisodiy hayoti haqida nimalarni bilasiz ?*
2. *Eloq davlati madaniy hayoti xususida so'z yuriting.*
3. *Farg'ona davlati chetda qaysi davlatlar bilan aloqalar olib borgan ?*
4. *Qadimgi Choch va Farg'onada shaharlarning ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni.*



III-bo'lim: Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo

3.1. Markaziy Osiyoda ilk feodal davlatlar. Kidariylar, xioniylar va sosoniylar

O'quv maqsadi: *Xalqlarning Buyuk ko'chishi va unga sabab bo'lgan omillar, uning oqibatlari, Markaziy Osiyo buyuk ko'chish jarayonining asosiy o'chog'i sifatida, buyuk ko'chish davri doirasiga daxldor xalqlar, elat va qabilalar, qadimgi sak-skif dunyosi, xunlar va ularning dunyo tarixida qoldirgan izlari haqida talabalarga batafsil, atroflicha ma'lumot berish, tarixiy jarayonlar haqida ko'nikmalar hosil qilish.*

Milodiy 3-4 asrlaga kelib qadimgi dunyoning buyuk davlatlari Qang' va Kushon ichki va tashqi sabablarga ko'ra zaiflasha boshladi. Oqibatda yon atrofda dasht, tog' oldi hududlarda hayot kechirayotgan ko'chmanchi qabilalarning o'troq hududlarga bosqini yanada kuchaydi. Ko'chmanchilarning o'troqlashuv jarayoni ro'y bera boshladi. Bu esa omilkor yerlarga bo'lgan muhtojlikning yanada ortishiga olib keldi. Cho'l, dasht, bo'z yerlarni o'zlashtirishga ehtiyoj ortdi. Bu jarayon yangi sug'orish tarmoqlarini ishga tushirish bilan bevsita bog'liq edi. Ariq va kanallarning qurilishiga qabila oqsoqollari, mulkdor tabaqalar rahbarlik qildilar. Ular o'z nufuzidan foydalanib eng unumdor yerlarga va sug'orish tarmoqlariga egalik qila boshladilar. Bu holat yangi yer egalari "dehqonlar" (Yevropada "feodal") toifasini shakllanishiga olib keldi. Dehqonlar (aynan tarjimasi "qishloq hokimlari") katta yer mulklarni egallab olishdi. Zamindor dehqonlarning iqtisodiy jihatdan zo'rayib, siyosiy mavqeining ortib borishi oqibatida milodiy IV asrdayoq ayrim vohalarda hududi yirik sug'orish tarmoqlari ko'lami bilan cheklangan viloyat hokimlari tashkil topa boshlaydi. Bunday voqa davlatchalari o'sha zamonning deyarli mustaqil mulklari bo'lib, hokimlari turli nomlar bilan yuritilgan. Bunday mahalliy hukmdorlar Buxoroda – buxorxudot; Sug'd (Samarqand) va Farg'onada - ixshid; Dabusiyo (Narpay)da - dabusshoh; Vardanz (Shopurkon)da - vardonxudot; Chag'oniyon (Surxondaryo)da - chag'onxudot; Termizda termizshoh; Xorazmda - xorazmshoh; Eloq (Ohangaron)da dehqon: Choch (Toshkent)da tudun kabi nomlar bilan shuhrat topgan edilar.

Zamindor dehqonlar esa o'z ixtiyoridagi qurollangan navkar-chokarlari bilan hokim qarorgohi va voqa hududlarini muhofaza qilish kabi vazifalarni o'tab, mahalliy hokimlarga xizmat qilardilar. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, ziroatkor vohalarda tashkil topgan mahalliy hokimliklar bu davrda hali siyosiy jihatdan markazlashgan yagona davlat boshqaruviga birlashtirilmagan bo'lsalar-da, ammo mustaqillikning ramzi hisoblangan o'z tanga pullariga ega edilar.

Bu davrda inqirozga uchrab parchalanib ketgan Qang' davlatining janubi-g'arbiy hududlarida dastavval Xorazmshohlar davlati qayta tashkil topdi. Qadimgi Xorazm tuprog'ida o'z mustaqilligini qayta tiklagan bu nufuzli davlat mahalliy Afrig'iylar sulolasiga mansub Xorazmshohlar tomonidan idora etiladi. Afrig'iylar davlatining poytaxti dastlab Qoraqalpog'istonning hozirgi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

Mudofaa jihatidan poytaxt nihoyatda mustahkam qurilgan edi. U atrofi chuqur va keng xandaq bilan o'ralgan baland tagkursi ustiga to'rtburchak shaklida (500x350m) xom g'ishtlardan bino qilingan. Balandligi qariyb 10 m. li, uning tashqi devori qator nishon tuynuklar va mo'lalar bilan mustahkamlangan. Shaharning janubida devorning qoq belida mustahkam labirintli darvozaxonasi bo'lgan. Darvoza qarshisida shahar markazidan kesib o'tkazilgan ko'chaning har ikki tomoni bo'ylab shaharliklarning turar joylari qanot yozgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning shimoli-g'arbiy burchak qismida esa balandligi 25 metrli uch minorali Xorazmshohlar qasri qad ko'targan. Qasr imoratlari ikki qavatli, shoh saroyi va koshona turar joylarning devoru tokchalari turli mazmundagi rangdor tasvirlar, qabartma ganchkor naqshlar hamda haykallar bilan bezatilgan. Shaharning umumiy maydoni 26 ga teng. Bu davrda Xorazmda girdi mustahkam devorlar bilan o'ralgan mana shunday shaharlar, istehkomli qishloqlar juda ko'p bo'lgan.

Mamlakatimiz bo'ylab dehqonchilik vohalarida viloyat hokimliklari qaror topayotganda uning shimoliy, shimoli-sharqiy hududlariga tutashgan keng dashtliklar chorvador aholisining ijtimoiy hayotida mulkiy tabaqalanish jarayoni kuchayib, janubiy vohalarga tomon ularning ko'chib o'tishi o'troqlashuvi jadallashadi. IV asr o'rtalarida Markaziy Osiyoga shimoli-sharqdan Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlaridan chiqib kelgan turkiy qabilalarga mansub xion yoki xionlarning hujumi boshlanadi. Arman manbalarida ta'riflanishicha, xioniylarning o'sha paytlarda ruxsoriga endigina ajin oralagan o'rta yoshdagi Grumbat ismli podshohi bo'lgan. U nihoyatda dono, behisob g'alabalari bilan dongi taralgan zabardast hukmdor bo'lgan. Milodiy 353 yilda xioniylar So'g'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular Eronda tashkil topgan va tobora zo'rayib, o'z tazyiqini sharqiy viloyatlarga tomon muttasil kuchaytirib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to'qnashadi. Ikki o'rtada bo'lib o'tgan dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi Shopur II (309-379) xioniylardan yengiladi. So'ngra sulhga kelishib, hatto ular o'rtasida ittifoqchilik ipi bog'lanadi. Shunga muvofiq 359 yilda Grumbat va uning o'g'li boshliq xioniylar Suriyaning Umda shahrini qamalga olishda sosoniylar bilan bir safda turib jangda qatnashadilar. Jangda hatto xioniylar shahzodasi

halok bo'ladi. Ammo ko'p vaqt o'tmay Grumbat bilan Shopur II munosabatlari yana keskinlashadi.

V asrning 20- yillarida esa Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi - toxarlar kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo'lib, Kidar ismli hukmdor ularga yo'l boshchi edi. Shu boisdan manbalarda ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda G'arbiy va Janubiy Sug'd yerlarini ishg'ol qilib, xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatadi. Amudaryoning so'l tomonida joylashgan Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxtiga aylantiriladi. Shubhasiz, Kidariylar davlatining geografik holati o'z-o'zidan uni sosoniy va xioniy-lardek zamonasining ikki yirik davlatlari o'rtasida qalqon davlatga aylantiradi. Kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va o'z tajovuzlarini Xurosonga tomon kengaytirishga intilgan. V asrning to 60- yillariga qadar ular sosoniy shohlarining Sharqdagi asosiy dushmani bo'lib qolgan. Marv vohasida kidariylar bilan sosoniylar shohi Varaxran V (420-438) o'rtasida sodir bo'lgan jangda shohning ko'li baland kelib, o'z dushmani ustidan g'alaba qozonadi. Bu voqeadan so'ng kidariylar mamlakati bilan sosoniylar davlati o'rtasida chegara belgilanib, Talikon yaqinida toshdan chegara minorasi o'rnatiladi. Kidariylar ustidan shoh goh g'alaba qozonadi, goh mag'lubiyatga uchraydi. 456 yilda bo'lib o'tgan navbatdagi harbiy to'qnashuvlardan birida katta talofat berib, sosoniylardan qaqshatkich zarbaga uchragan kidariylar o'zini qayta o'nglab ololmaydi. Ayni shu vaqtda ular shimoldan janubga tomon siljigan yana bir ko'chmanchi chorvador aholi - eftallar bilan to'qnashadi. Natijada markaziy hukmronlik barqarorligini mustahkamlab olishga ulgurmagani kidariylar mamlakatni tark etib, janubi-sharqqa – Shimoliy Hindistonga tomon chekinishga majbur bo'ladi. Hindistondagi Gupta davlatini o'ziga bo'ysundirib, u yerda 75 yil hukmronlik qilishadi.

Soson - Erondagi sosoniylar sulolasi bobokaloni, Ahamoniylar davri (miloddan avvalgi 558-330)da otashparastlarning Stahr (hozirgi Istahr)dagi Anaxita butxonasining kohini (mubod) bo'lgan. Sosoniylar davlatini idora etgan Eron shahanshohlari o'zlarini Soson naslidan deb biladilar.


Yaqin va O'rta Sharqda sosoniylar sulolasi boshqargan davlat (III-VII asrlar) 224 yilda Ardasher I Parfiya shohi Artabon Vni mag'lubiyatga uchratib, 226 y. poytaxt Ktesifon shahrini egallab, yangi davlat taxtiga o'tiradi. Bu davlatning barcha hukmdorlari "shahanshoh" unvoni bilan taxtni boshqarganlar, davlat esa Eronshoh ("oriylar podsholigi" yoki "eroniylar shohligi") deb atalgan. Eron, uning g'arb va sharqidagi hududlar (Ardasher I va Shopur I davrida) birlashtirilgan. Sosoniylar davlatida shohlar qohinlarga tayanib ish ko'rishgan, yangi otashkada ("olov saroylari") bunyod etilgan.

Ardasher I davrida zardushtiylik davlat dini deb e'lon etilgan. Zardushtiy ruhoniylar davlatda katta siyosiy, iqtisodiy ta'sir kuchiga ega bo'lishgan, boshqa dinlar ta'qib kilingan. Eron davlati sosoniylar davrida juda yuksalgan. Yazdigard III davrida (632-651) Sosoniylar davlatini arablar bosib olgan.

Tayanch tushunchalar: Kidar, feodal, otashkada, oriylar, xion, soson, xetal, oq xunlar.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ilk feodal (dehqon) munosabatlarini shakllanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy asoslarni ko'rsatib bering.*
2. *Xioniylarning turmush tarzi, urf odatlari haqida nimalarni bilasiz?*
3. *Xioniylar va sosoniylar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarning mohiyatini ochib bering.*
4. *Sosoniylarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?*



3.2. Eftalitlar davlati

O'quv maqsadi: Eftalitlarning kelib chiqishi va O'rta Osiyoga amalga oshirgan harbiy yurishlari, Eftaliylar davri siyosiy tarixi, boshqaruv tizimi, ijtimoiy hayoti, yer mulkchiligi munosabatlarining yangi bosqichi, eftalitlarning boshqa xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari haqida talabalarga batafsil ma'lumot berish, tushunchalar va ko'nikmalar hosil qilish.

Markaziy Osiyoga V asr o'rtalarida shiddat bilan kirib kelgan bu yangi ko'chmanchi aholi yozma manbalarda xeftal, xaytal, xetal, abtal, idal, tetel, kabi qator jarangdor nomlar bilan tilga olinadi. «Eftal» degan nom ilk bor «xetal» shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida «Eftalon» deb yuritilgan qabila nomidan olingan. Vaxshunvar boshliq Eftallar davlati tashkil topgach, bu etnonim qabila nomidan davlat nomiga ko'chgan. Chunki shohlik taxtiga mingan Vaxshunvar eftalon qabilasi zodagonlaridan edi.

Eftallarning Markaziy Osiyoga yurishi V asr o'rtalarida boshlanadi. Qisqa vaqt ichida Chag'oniyon, Tohariston va Badaxshon bo'ysundiriladi. Bir zarba bilan Sug'dda xioniylar hukmronligi barham topadi. V asrning 50-yillarida Eftallar davlati nihoyatda kuchayadi. Ularning dastlabki elchisi 456 yilda Xitoyga yetib boradi.

Eftallarning tobora kuchayib borayotgan tajovuzidan xavfsiragan sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Ikki o'rtadagi jangu jadallar Pero'z hukmronlik qilgan davrda (459-484) ayniqsa avjiga chiqadi. Sosoniylar shohi eftallarga qarshi uch marta yurish qiladi. Dastlabki mahorabadayoq u mag'lubiyatga uchrab, asir tushadi. Vizantiya imperatori Zenon tomonidan yuborilgan o'lpon evaziga u asirlikdan ozod etiladi. Pero'z chegaradagi Talikon shahrini eftallarga berish va bundan buyon Varaxran tomonidan belgilangan chegara Toshminordan o'tmaslik shartini o'z zimmasiga oladi. Ammo bu shartlarni bajarmaydi. Bir oz vaqt o'tgach, ikkinchi marta eftallarga qarshi qo'shin tortadi. Pero'zning ikkinchi yurishida ittifoqdosh Vizantiyaning elchisi Yevsiviy ishtirok qiladi. Ikkinchi yurish ham muvaffakiyatsiz tugaydi. Ikkinchi marta asirlikka olingan Pero'z 30 xachir dirham o'lpon to'lash majburiyatini oladi. Biroq uning deyarli bo'shab qolgan xazinasidan faqat 20 xachirga yuk bo'ladigan mablag' topiladi, xolos. Shohning Kubod ismli yosh o'g'li eftallar yurtiga garovga yuborilib, Pero'z tutqunlikdan ozod etiladi. Ikki yil davomida eftallarga o'lpon to'lab turiladi. O'lponni shoh aholi jon boshiga og'ir soliq solish yo'li bilan to'playdi. Yozma manbalarda bu voqealar Pero'z tomonidan Eronning eftallarga sotilib oyoq osti kilingani va mazlumlikdan abadulabad oriyoniy-

lar yurti xalos bo'la olmasligi alam bilan qayd etiladi. Belgilangan o'lponni to'lab bo'lgach, Pero'z eftallar bilan aloqani yaxshilashga harakat qiladi. Ular bilan quda andachilik ipini bog'lash maqsadida raqibiga singlisini xotinlikka taklif etadi. Eftallarning iltimosiga binoan 300 nafar harbiy instruktor yuboriladi. Ammo eftallar hokimi Kunxa Eronli instruktorlarning bir qismini o'ldirishga, qolganlarini esa urib, mayib qilishga buyuradi. Chunki shoh singlisi o'rniga cho'rilaridan birini yuborib, eftallar hukmdorining izzat-nafsiga tekkan va bunday hiyla-nayrangi bilan uni nihoyatda ranjitgan edi. Shu boisdan Pero'z 484 yilda eftallarga qarshi uchinchi marta yurishga o'tlanadi. Bu galgi urush sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Marv ishg'ol qilinib, Eron ustiga juda og'ir o'lpon yuklanadi. Garchi Pero'z vorislari Kubod (488-531), Anushervon (531-579) xukmronlik qilgan davrlarda eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab, tinchlik tusini olgan, hatto ayrim vaqtlarda Vizantiyaga qarshi eftallarning ittifoqdoshi sifatida harakat qilingan bo'lsada, ammo sosoniylar yil sayin kumush hisobida muayyan bojni muttasil to'lab turgan. Shunday qilib, kibr-havoli zabardast Vizantiya imperatorlarini bir necha bor tiz cho'ktirgan sosoniylar endilikda yarim ko'chmanchi eftallarning dahshatidan vahimaga tushib, ularning boqiy o'lpondori bo'lib qolgan.

Qisqa muddat mobaynida eftallar Qobul va Panjob vodiylarini egallaydilar. So'ngra O'rumchi, Qorashar, Kucha, Xo'ton va Qoshg'ar shaharlari zabt etiladi. Natijada V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida Markaziy Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoli-G'arbiy Xindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini yagona hududga birlashtirgan ilk o'rta asrlarnig yangi qudratli Eftallar davlati tashkil topadi. Garchi bu davlat siyosiy jihatdan Kushon podsholigiga nisbatan unchalik mustahkam bo'lmasa-da, ammo maydoni jihatidan undan ulkanroq edi. Bu buyuk davlat Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, ayniqsa, muhim o'ringa egadir.

Eftallar davlati tasarrufiga birlashgan ulkan mamlakatning tabiiy geografiyasi qanchalik rang-barang bo'lsa, aholisining etnik tarkibi ham shunchalik qurama, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti esa biri ikkinchisidan keskin farq qilardi. Eftallarning kelib chiqishi ko'chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli ilk o'rta asr Xitoy manbalarida ularning yurtida shaharlarning yo'qligi, o'zlari esa o'tloqlarga boy yaylovlarda kigiz o'tovlarda yashashi ta'riflanadi. VI asr Vizantiya muarrixlarining asarlarida, aksincha, ularning «shaharlik» ekani ta'kidlanadi. Nari ikkinchisiga zid bunday ma'lumotlarning har ikkisida ham ma'lum darajada asos bor, albatta. Chunki Markaziy Osiyo, Xuroson, Sharqiy Turkiston va Shimoli-G'arbiy Hindiston yerlarini zabt etgach, ko'chmanchi chorvador eftallar, shubhasiz, bu viloyatlardagi obod dehqonchilik vohalariga, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivoj topgan katta-

kichik shaharlarga ega bo'ladilar. Yillar o'tishi bilan omilkor mahalliy aholi bilan qon-qarindosh bo'lib, qorishib ketadilar. Natijada ularning bevosita vorisiga aylanadilar. Shu boisdan 568-569 yillarda Vizantiya imperatori Yustin II huzurida bo'lgan turklar elchisi imperatorning «Eftallar shaharlarda yashaydilar yoki qishloqlardami» degan savoliga «Ular shaharda yashovchi qabiladir, janobi oliylari», deb javob bergan.

Demak, Eftallar davlatiga birlashgan aholining bir qismi ko'chmanchi chorvador bo'lsa, ikkinchi kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashovchi o'troq aholi edi. Uning aholisi asosan ziroatchilik bilan shug'ullanardi. Tohariston va So'g'd rivoj topgan dehqonchilik va bog'dorchilikning markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari, sholi ham yetishtirilardi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo yerlarida ko'plab g'o'za ekilgan edi. Uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to'qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo'lgan. Chunki o'sha davrlarda Xitoyda paxta hali ekilmas edi. Aholining dashtliklarda yashovchi yarim ko'chmanchi qismi chorvachilik, xususan, mayda va yirik shoxli hayvonlar boqish, tuyachilik, tog'li va tog' oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan shug'ullanardi. Farg'ona vodiysi hamon zotli arg'umoblari bilan mashhur bo'lgan.

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsada, mamlakatda o'rta asr mulkchiligi munosabatlarining tarkib topishi oqibatida sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakili «dehqon»lar qo'lida to'plana boshlagan. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylanmokda edi. Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblanardi. Bunday yerlar «vag'nze» deb yuritilardi.

Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqol zodagonlari biylar tasarrufida edi. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, V-VI asrlarda dehqonchilik vohalari tevarak-atrofiga kelib o'rtnashgan ko'chmanchi eftal qabilalarining ommaviy ravishda o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik ortadi. Daryo vodiylari bo'ylab katta-kichik sug'orish kanallari qazib chikarilib, minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Sug'orma dehqonchilikning kengayishi bilan irrigatsiya texnikasi rivoj topadi. Shox ariqlar chuqurlashib, sersuv va sershoxa sug'orish tarmoqlariga aylanadi. Ular daryodan suvni bog'lab oluvchi va yuqoriga ko'tarib beruvchi suv inshootlari bilan jihozlanadi. Hozirgi vaqtda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir kismini suv bilan ta'minlab turgan Zogariq va Bo'zsuv Samarqand

viloyatining janubiy tumanlarining asosiy suv manbai Darg'om kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi.

Bu davrda tog' oldi mintaqalarida joylashgan adir yerlarga suv chiqarib, obod etishda o'q, gupchak va tishli g'ildirakka asoslangan va o'z davri uchun ancha-muncha murakkab gidrotsxnika inshootlari: charxparak, chigir va boshqalardan foydalaniladi.

Bu davrda dehqonchilik vohalaridagi katta-kichik shaharlar gavjumlashib, ularda ayniqsa, kulolchilik, shishagarlik, chilangarlik, bo'zchilik, sarrojlilik, zargarlik va qurolsozlik kabi kasb-hunarlar ravnaq topadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Poykand shahri Eftallar davlatining poytaxti bo'lgan. Xitoy manbalarida u Bi nomi bilan tilga olinadi, Arablar uni «Madinat ut-tujjor», ya'ni «savdogarlar shahri» deb yuritganlar.

Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo'lgan eftallar bu shaharlar orqali o'tgan «Ipak yo'li» ni o'z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilgan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan bo'lgan xalqaro savdoda ular faol qatnashardi. Xitoy bilan Vizantiya asosan ipak, ipakli mato, rangdor shisha, qimmatbaho toshlar, bo'yoqlar va turli xil ziravorlar bilan savdo qilardi. Markaziy Osiyodan oltin, kumush, Badaxshon la'lisi bilan bir qatorda Xitoyga rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ip gazlama asosan karbos, qorako'l terisi, tulporlar chiqarilardi. Ipak yo'li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug'diylar vositachilik rolini o'ynardi. Xalqaro savdo aloqalarining gavjumlashuvi bilan mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi.

Keyinchalik eftallar sosoniylar shohi Varaxran V tangalariga taqlidan old tomonida qulog'iga xalqa taqqan tojdor podshoh, orqa tomonida esa markazda otashdon va ikki atrabon tasvirlari so'qilgan kumush tangalar zarb qiladilar. Bulardan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardana, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakat ichki savdosida keng muomalada bo'lgan. Bu, shubhasiz, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida mahalliy hokimlar katta nufuzga ega ekanidan dalolat beradi.

Ma'lumki, eftallar, siyosiy jixatdan juda ko'p xalqlarni birlashtirgani sababli turli diniy e'tiqoddagi aholi yonma-yon yashagan. V-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda zardushtiy, bundan tashqari nasaroniy (xristianlik), moniy va qam (shomon) kabi bir nechta dinlar mavjud bo'lgan. Ayrim viloyatlarda yaxudiy jamoalari hamda Noxid, Mitra va Siyovush kabi mahalliy ma'budalarga ham sig'inuvchilar istiqomat qilgan. Navro'z kunlari Buxoro otashparastlari Siyovush qabri ustida xo'roz bo'g'izlab qurbonlik qilardilar. Mamlakatda ko'p dinlilik e'tiqodlari rasm bo'lsada, ammo aholining ko'pchiligi olovga topinuvchi ma'jusiylar edi. Otashparastlik

Xorazm, So'g'd va Choch viloyatlarida, ayniqsa, keng tarqalgan edi. Kattakichik shaharlarda ma'jusiylarning ibodatxonalari bo'lardi. Ular «vag'n» deb, koxinlari esa «vag'npat» deb yuritilardi. Muqaddas otash «azarxurra» deb atalardi. U maxsus olovxona - «otashkada»larda kechayu kunduz muttasil yonib turardi. Otashkada mutavallilari o'ta zohid dindorlardan bo'lib, ular «atrabon» deb yuritilardi. Oddiy mehnatkash ahlidan tortib zodagonu podshohlargacha atrabonlarga hadyalar keltirib, ular orqali muqaddas olovdan madad so'rab iltijo etilardi.

Zardushtiy dinida yaratuvchilik qudratiga ega tangri - Axuramazda bo'lib, u olam va odamzodning, tabiat va jamiyatdagi barcha xodisalarning yaraguvchisi sifatida tarkib qilingan. Axuramazda yorug'lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va boshqa barcha ezgu xodisalar tangrisi sifatida zulmat, ochlik, o'lim, urush, yomon (gunoh) ishlar, razil niyatlar va qaboxatliklarning homiysi Axriman bilan doim uzluksiz kurash olib borgan.

Zardushtiylik e'tiqodi bo'yicha olov nihoyatda muqaddas hisoblangan. Quyosh yorug'lik manbai va otash uning bir qismi hisoblangan. Quyosh olamga hayot bag'ishlaydi. Uning nuri bilan barcha jonzod uyg'onadi va yashnaydi. Qadimiy tangalarga suqilgan ma'budalar tasviri va sopol xaykallchalar taqlidiga qaraganda Axuramazdadan tashqari, zardushtiylarning Mitra, Farna, Nana yoki Noxid (Anaxita), Mirrix, Xubbi va mahalliy ezgulik ilohalari ham bo'lgan. Mitra-quyosh va yorug'lik muakkili, jangovar yigit siy mosida tasvirlanadi. Farna, mahalliy axrli Xumo, ba'zan Ankr nomi bilan yuritilgan - baxt va tole homiysi, nihoyatda chiroyli, boshi ayol, tanasi qush qiyofasida tasavvur etilgan. Nana - Noxid hosildorlik, farovonlik homiysi, bir qo'lida anor yoki olma tutgan go'zal ayol qiyofasida tasvirlanadi. Mirrix - urush va g'alaba muakkili, harbiylar madadkori, qurollangan jangchi taqlidida tasavvur etilgan. Xubbi - suv muakkili, qayiqchilar va miroblar homiysi, zabardast yigit tusida tasvirlanadi. Shunday qilib, eftalitlar davlatida dinga e'tiqod turlicha bo'lgan, buning sababi albatta xalqlarni turlichaligidadir.


Bularga xulosa qiladigan bo'lsak, eftallarniig urf-odati, xususan, dafn marosimlari, qabr turlari hamda zodagonlarning kiyim-boshlari ta'rifi haqidagi manbalarda keltirilgan ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, ular o'rtasida tabaqalanish va mulkiy tengsizlik kuchli bo'lgan. Ularda o'z davlat tuzumi, qaror topgan qonun va qoidalari mavjud bo'lgan. Jinoyatchilik bo'yicha jazo nihoyatda qattiq bo'lgan. O'g'irlik qilgan jinoyatchining boshi kesilgan. O'g'irlangan mol-mulkning miqdoridan qat'i nazar, u o'n barobar qilib undirib olingan. Shuni ta'kidlash joizki, eftallar o'z tashqi siyosatlarida harbiy kuchga suyananlar va ularning asosiy qismi suvoriylar bo'lgan. Eftallarning qonuniy davlati podshohi mutloq tomonidai boshqarilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, eftallar ko'shni

davlatlar adolatidan zarracha ham kam bo'lmagan adolatga amal qilganlar. Shunday qilib, bu davlat Osiyo xalqlari tarixida siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Tayanch tushunchalar: Xeftal, eftal, Pero'z, Vizantiya, Kunxa, Kubod, Varaxran, Bi, o'lpon, madinat ut-tujjor.

Savol va topshiriqlar:

1. *Eftallarning nomi qaysi qabilaning nomidan olingan?*
2. *Pero'zning eftallarga yurishi oqibatlari haqida gapirib bering ?*
3. *Qaysi manbalarda eftallar haqida ma'lumotlar uchraydi?*
4. *Qaysi asoslarga ko'ra, eftallarni ham ko'chmanchi ham o'troq aholi deyishadi?*
5. *Eftallar davrida madaniyatning turli xil bo'lishining sababi nima edi?*



3.3. VI-VIII asrda Turk xoqonligi

O'quv maqsadi: Turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi, "Turk" so'zining etimologik mazmuni, Turkiy xalqlarning migrasiyasi, Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo, Turk xoqonligi tashkil topishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va tarixiy shart-sharoitlari, Buyuk Turk xoqonligining bo'linishi va G'arbiy Turk xoqonligining tashkil topishi, Markaziy Osiyo tarixida turkiy xalqlarning tutgan o'rni haqida talabalarga ma'lumot berish, tarixiy davr haqida tushunchalar va ko'nikmalar hosil qilish.

Markaziy Osiyoning G'arbiy hududida joylashgan Oltoy o'lkasida VI asrga kelib mintqa tarixida muhim o'rin tutgan Turk xoqonligi tashkil topdi. Turk manbalarida turklar bir necha nomlar bilan atalgan bo'lsada, ular bir biriga o'xshashdir. Masalan: xitoylar tuszyuelar, mo'g'ullar tyurkyutlar deb, o'zlari esa tyurk, so'g'dlar va forslar turklar deb atashgan. Bu atamalarning ma'nosi haqida olimlar turli xil fikrlar bildirishadi. Turk xoqoni Bo'min telilarni o'ziga bo'ysundirganidan so'ng kuchayib, turklarning ustidan ustunlik qilib turgan jujanlarga qarshi jang qilib, ularni tor-mor qildi va Mo'g'uliston va Oltoyda kuchli davlat tuzdilar. Bu davlat hududining kengayishi Bo'minning vorislaridan bo'lgan Mug'anxon (553-72) davriga to'g'ri keldi. G'arb uchun bo'lgan yurishlarga uning akasi Istami boshchilik qilgan edi. 555 yilda u davlatning chegarasini g'arbiy dengizgacha (Orol dengizi bo'lishi mumkin) kengaytirdi. Kultegin yodgorligida aytilishicha, "ular aholisini temir qopqagacha (kapek) joylashtirdi" deyiladi. Temir qopqa atamasi o'rta asrlarda So'g'ddan Toharistonga elituvchi Boysun tog'larida joylashgan tog' yo'lidir. Turk xoqonligi bu o'lkaga katta ahamiyat bergan. Chunki Taxariston eng cheka chegarasidan bo'lgan. Shuning uchun bu yerni ishonchli yabg'ular bilan boshqargan.

Turklar ko'shini Eron chegaralaridan g'arbda Qora dengizgacha borib, Bosforni ham ishg'ol qiladi va natijada Koreyadan Qora dengiz sohilla-rigacha bo'lgan hududda turklar imperiyasi tashkil topadi. Oqibatda Xitoy turklarga qaram bo'lib, katta soliq tulay boshlaydi, hatto o'sha vaqtda ikki katta imperiya Eron va Vizantiya ham Turk xoqonligi oldida larzaga kela boshlaydi. Lekin ko'p o'tmasdan bu buyuk davlat ikkiga sharqiy va g'arbiy xoqonlikga bo'linadi, nihoyat 630-82 yillar oralig'ida sharq xoqonligi tanaz-zulga yuz tutadi 7-asr oxirida Xitoy bilan bo'lgan jangda Sharqiy xoqonlik yana o'zini tiklab oldingi kuch qudratiga ega bo'ladi. Bu ayniqsa Mojja davrida 691-716 yillarda bu davlat qudratli davlatga aylandi va Xitoy boy-liklari hamda aholisini ko'chirib, g'arbga ham ko'z olaytira boshladi. VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoni fath qilgan arablar bu davlatga xotima berdi. Markaziy Osiyo ustidan hukmronlikni qo'lga kiritish yo'lida Eftalitlar bilan

Turk xoqonlari manfaati to'qnashdi. Lekin bu vaqtda Eftaliylarning ahvoli og'ir edi. Bir tomondan esa Xusrav I Anishervon tomonidan boshqarilayotgan Eron davlati orasida qolgandi. VI asrning 50 chi yillari eftaliylar va turklar Markaziy Osiyoning sharqida to'qnashdi va jang uzoq davom etdi. Shu paytda turklar Xusrav I boshchiligidagi Sosoniylar bilan diplomatik aloqani mustahkamladi. Nihoyat eftallarga qarshi birgalikda kurashishga kelishilgani oqibatda eftaliylar davlati mag'lub bo'lib, davlat Turklar va Sosoniylar orasida taqsimlandi. Lekin keyinchalik bu ikki davlat orasida nizo kelib chikdi, buning asosiy sababi Buyuk ipak yo'liga egalik qilish edi. Chunki o'sha davrda Buyuk ipak yo'li g'arb va sharqni birlashtirib turadigan savdo yo'li edi. Dastlab, bu savdo aloqalari sosoniylar yoki eronliklar yetakchilik qilardi. Keyinchalik so'g'diy savdogarlar tashabbus ko'satib, Vizantiya bilan bevosita savdo qilishga harakat qildilar. Lekin bu Sosoniylarga ma'qul kelmadi. Chunki So'g'dlar Turk xoqonligiga qaram bo'lgan davlatlardan biri edi. Bundan Turklar katta manfaat ko'rar edi. Bu esa ikki davlat zrtasida ziddiyatlarga olib keldi.

Turk xoqonligi qo'l ostida birlashgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lganlar. Aholining bir qismi o'troq dehqonchilik bilan, qolgan qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar. So'g'diyona, Xorazm va Toharistonda dehqonchilik qiluvchi aholining kattagina qismi patriarxal oila sifatida yashar edi. Bu davrda Xorazmda va ayniqsa, Sug'dda savdogarlar jamiyatda yetakchi o'rinni egallaganlar. Ko'chmanchi turk qabilalari VI-VII asrlarda o'tovlarda yashaganlar va to'rt g'ildirakli aravalarda ko'chib yurganlar.

Aholining mehnatkash qismi "budun" yoki "qora budun" deb atalgan. Urug' - qabilaning yirik vakillari esa "beklar" nomi bilan yuritilgan. Jamoani "xoqon" va zodagonlar kengashi - "qurultoy" boshqargan. Turk xoqonligi hududida yashovchi aholi bug'doy, arpa, sholi, tariq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish bilai band bo'lgan. Eftaliylar davriga nisbatan sug'orish tizimi bu davrda bir muncha ko'payadi, Xorazm vohalarida esa aksincha kamayadi. Aholi uzumchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Paxta, beda, tut daraxti ekishga va uy hayvonlarini boqishga katta e'tibor berilgan.

VIII asrda shaharlar odatda unchalik katta bo'lmasdi. Masalan, Afrosiyob xarobalari 216 gektar atrofida bo'lgan. Eski Poykent devorining umumiy uzunligi ikki kilometr atrofida, Chochdagi asosiy shahar Bankent chegarasi 5, Koson 2, Termizning umumiy doirasi 7-10 kilometr atrofida bo'lgan. Savdo-sotiqda, xususan, Xitoy bilan munosabat yetakchi o'rinni egallagan. Xoqonlikda yashagan aholi asosan matodan, jundan va teridan kiyim kiyganlar. Erkaklar chakmon kiyib, sochlarini oldirib yurganlar, "xotinlar esa sochlarini boshlariga o'rab, zargul solingan qora ro'mol bilan bog'lab yurar edilar", deb

yozadi Syuan Szyan. Markaziy Osiyoda animizm ko'pchilik turkiy xalqlar uchun umumiy din bo'lgan. Turkiy xalqlar o'zlaricha biror hayvonga topingan va uni o'zining xudosi deb bilgan. VI-VII asrlarda turkiy xalqlar o'rtasida buddizm, otashparastlik va xristian dini ham rivojlana bordi.

Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, VI-VII asrda turk xoqonligida tasviriy san'at, haykaltaroshlik ancha keng tarqalgan edi. So'g'diyona, Fayoz-tepa va Panjikent xarobalaridan topilgan naqshlar va suratlar bu fikrni yorqin ifoda etadi. Bu davrda kulolchilik san'ati ham rivoj topgan. Turli idishlar, uy-ro'zg'or anjomlari, hayvon, meva-cheva, odamlar tasviri bilan bezatilgan, sirtiga sirli shaffof mineral ishlatilganligi uchun ular yaltirab turardi. Turk xoqonligida yaratilgan moddiy-madaniy yodgorliklardan biri loydan yasalgan har xil tasvirdagi haykalchalardir. Bu haykalchalar ko'lida kosa yoki qurol yarog' ushlab turgan kishi shaklida bo'lib, odatda ular qo'rg'onga yoki marhumlar qabriga qo'yilgan.

Tayanch tushunchalar: Xoqon, dehqonlar, qora budun, qurultoy, kadxudotlar, ko'k turk, tan-shu, Istemi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Turk xoqonligining tashkil topishini gapirib bering.*
2. *Turk xoqonligida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol qanday bo'lgan?*
3. *Ko'chmanchi va o'troq qabilalarning munosabati haqida nimalarni bilasiz?*

3.4. Ilk o'rta asrlarda Tohariston

O'quv maqsadi: *Toharistonning chegaralari, siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruv tizimi, qo'shni davlatlar bilan munosabatlari, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va diniy hayot xususida tushunchalar berish va ko'nikmalar hosil qilish.*

Miloddan avvalgi I ming yillikdan IV asrgacha Baqtriya (tuyalar o'lkasi) deb atalib kelgan davlat keyingi davrlarda Tohariston deb atala boshlandi. Tohariston nomi ilk bor 383 yildagi xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy tarixchilari uni "Tuxolo" deb ataganlar. "Tohar" so'zi "kidar" so'zining buzib aytilgan shaklidir. Tohariston davlati tarkibiga qadimda hozirgi Janubiy Tojikiston Surxondaryo viloyati va Afg'onistonning shimoliy viloyatlari hududlari kirgan. Ilk o'rta asrlarda hukm surgan bu davlat hududi Qadimgi Baqtriya davlati hududi o'rnida bo'lgan deyish mumkin.

VI-VII asrlarda Toharistonning siyosiy, tarixiy muhim voqealarga boydir. Eftaliylar va turk qabilalari bilan janglar sosoniylarning mamlakatga bostirib kirishlari va mamlakat ichidagi o'zaro urushlar Tohariston davlati tarixini murakkablashtirar edi. Xitoylik sayyoh Son Yu 519 yili Bo-xo (Vaxan) shahrida bo'lgan. Uning qayd etishicha, bu asrning tog'lari juda baland bo'lib, davlat hukmdori baland qurilgan shaharda yashagan. Xalqining kiyimi chiroyli bo'lib, ko'p qismi teridan tayyorlangan. Xitoyning Suyshu sulolasi tarixi yozilgan tarixiy ko'lyozmalar VII asrga oid bo'lib, unda Tuxolo yani Tohariston aholisi eftaliylar bilan aralashib yashashi yozib qoldirilgan.

Yana bir xitoylik sayyoh Syuan-Szan (629-646) Toharistonni to'liq tasvirlagan. U Tohariston tarkibiga kirgan viloyat va shaharlarni atroflicha tasvirlagan. U Toharistonga "Temir darvozalar" deb ataluvchi shimol tomondan kelgan va Boysun tog'laridan o'tib kirib kelgan. Uning so'zlariga qaraganda, Tohariston davlati shimoli-janubga nisbatan sharqdan g'arb tomon uzunligi 3 baravar katta bo'lgan. Syuan-Szan ma'lumotlariga ko'ra, mahalliy hukmdor sulolasi yo'q bo'lganligiga ancha vaqt bo'lib, viloyat hokimlari o'z mulklarida mustaqil siyosat yuritir edilar.

Mamlakat 27 ta viloyatlardan tashkil topgan bo'lib, barchasi turklarga tobe edi. Syuan-Szyan o'z qaydnomalarida quyidagi shaharlarni sanab o'tadi:

1. Chag'oniyon - Surxondaryo vodiysi va Hisor vodiysining g'arbiy qismi.
2. Shuman - Hisor vodiysining sharqiy va markaziy qismlari.
3. Qabodiyon - Chag'oniyon va Vaxsh daryosigacha bo'lgan hududlar.
4. Vaxsh viloyati - Qabodiyondan sharqda.

5. Xuttalon - Pomir tog'i etaklari.
6. Kumad viloyati - hozirgi Qoratepa, Darvoz va Panj hududlari.
7. Shug'on - Vaxshning shimolida.
8. Badaxshon - Amudaryoning ikki tarafi Surxondaryogacha.
9. Voxan - o'rta asrlardagi Qunduz.
10. Shibirg'on - hozirgi Mozori Sharif.

Mahalliy aholining ko'pchiligi paxtadan tikilgan kiyim kiyishgan, ularning tili boshqa xalqlar tilidan farq qilgan. Tohariston yozuvi 25ta harfdan iborat bo'lib, ko'ndalangiga va chapdan o'ngga qarab yozilgan. Savdo-sotiq ishlarida toxtalar oltin va kumush tangalardan foydalanganlar.

Syuan-szan Tohariston poytaxti bo'lgan Balx shahrini mustaxkam himoyali kal'a deb sifatlagan. Toharistondagi mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Qobodiyon, Shug'on va Vaxon viloyatlarining hokimlari bo'lib, ular harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 mingta chopar to'play olardirlar. Bular ichidan Xuttalon viloyati alohida obro' va nufuzga ega bo'lgan. VII-VIII asrlarda Xuttalonni mahalliy sulolasi boshqargan. Yirik sharqshunos olimlardan I.Markvart, A.M.Beliniskiy va O.I.Smirnovlar Xuttalon tarixini bejiz o'rganganmalar.

Umuman olganda, Tohariston markazlashgan davlat bo'lmagan. Xar bir viloyat o'z mustaqil sulolaviy boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Har bir mahalliy hukmdor mustaqil ravishda qo'shni va uzoq o'lkalarga, davlatlarga o'z elchilarini yuborish hukuqiga ega edi. Xullas, Toharistonning ilk o'rta asr mahalliy feodal davlatlari hali yagona davlatga birlashib markazlashmagan edi.

Tohariston aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan. Toharistonda sun'iy sug'orma dehqonchilikning mavjud bo'lganligini xitoylik tarixchi Son Yun qaydnomalaridan bilish mumkin. Vodiylar hududlarida aholi sun'iy sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, tog' va tog'oldi hududlarda esa lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Arxeologik qazishma ishlaridan Toharistonda sug'orish tizimi qanchalik katta hajmda bo'lganligini tasavvur qilishimiz mumkin. T.I.Zeymal kayd etganidek, Vaxsh vodiysida qadimgi va o'rta asrlarda Vaxsh daryosidan suv oluvchi to'rtta magistral kanal kazilgan. Toharistondan chet o'lkalarga qimmatbaho dorivor o'simliklar chiqarilgan. Toharistonda ko'plab tokzorlar va sholi maydonlari bo'lgan. 647 yilda turk yabg'usi Toharistondan poytaxtga oliy nav uzum jo'natganligi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolingan. Tohariston otlari ham juda yuqori baholangan. Bir necha zotdar otlar, jumladan kichik, ammo chidamli va tog' sharoitida yurishga moslashgan otlari bo'lgan. Chorvador aholi yirik shoxli qoramol va qo'y boqish bilan shug'ullangan.

Toharistonda, ayniqsa, tog‘-konchilik ishlari juda rivojlangan edi. Bu yerlarga kelgan Xitoy sayyohlarining kundaliklaridan Tohariston mashhur Badaxshon la‘lisi (qazib olinganligini) va boshqa yana ko‘plab turli qimmatbaho toshlar qazib chiqarish juda taraqqiy topganligini bilish mumkin. Bundan tashqari yana agat, nafislangan tuz qazib chiqarish juda rivojlangan. Bolaliktepada olib borilgan qazilma ishlari natijasida pushti rang toshtuzdan yasalgan tuya haykalchasi topilgan edi. Toharistonda, ayniqsa, qurolsozlik rivojlangan edi. Chokarlari kamon, gurzi, cho‘qmor, xanjar va qilichlar bilan qurollangan edi. Ularning ajoyib to‘qima, Balx sovutlari bo‘lard. Toharistonda shishasozlik ham ancha rivoj topgan edi. V asrda Markaziy Osiyo shishasozlari Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar tayyorlashni o‘rgatadilar. Qadimiy Xitoy manbalaridan birida 414 yilda Xitoyga Toharistondan ko‘plab savdogarlar va hunarmandlar tashrif buyurganligi qayd etilgan.

Toharistondan Xitoyga zotdor otlar eksport qilingan. Chet mamlakatlarga chiqarilgan qimmatbaxo toshlar ichida Xitoyda «Xo‘ton toshi» deb nom olgan lazurit toshi ancha mashhur bo‘lgan. Toharistondan shuningdek turli dori va dorivor vositalar, giyohlar ham chet mamlakatlarga chiqarib turilgan. Tohariston bilan o‘sha davrdagi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari o‘rtasidagi savdo aloqasi ham keng miqyosda olib borilgan. Buni biz Ajinatepadan topilgan sug‘d tangalari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Shunisi diqqatga sazovorki, Toharistonda VII asr birinchi yarmi va VIII asrlarda mahalliy tanga zarb etishda so‘g‘d tangalariga taqlid etilgan. Shimoliy Toharistondan topilgan tangalardan bu yerda nafaqat tashqi savdo, balki ichki savdo ham rivojlanganligini bilishimiz mumkin.

U shahristondan iborat bo‘lib, uning shimoli-sharqiy chekkasida mahalliy aholi uylari joylashgan bo‘lgan. Uning kvadrat shaklidagi yuqori qismida (60 x 60 m.) 1968-1970 yillarda yirik arxeologik qazilma ishlari olib borilgan. Shahriston yirik qalin mudofaa devori bilan o‘rab olingan bo‘lib, devor burchaklarida kuzatuv-qo‘riqlov minoralari qad ko‘targan. Minoralar paxsa va g‘ishtdan qurilgan.

Tohariston tarixiga doir yodgorliklardan biri Ajinatepa nomli budda ibodatxonasi xarobasi saqlangan tepalikdir. Ajinatepa yodgorligi VI-VIII asrlarga taalluqlidir. U Qo‘rg‘ontepa shahri (Tojikiston Respublikasi)dan 12,5 km. sharkda joylashgan va bu yodgorlik 1961-1969 yillarda Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qazib o‘rganilgan. Bu yerdan ibodatxona va monastirdan iborat ikki qismli inshoot topilgan. Qazishmalar davrida 500dan ortiq san‘at yodgorliklari - haykallar, naqshlar, devoriy rasmlar va ularning parchalari topilgan. Bularning ichida Buddaning o‘lim to‘shagida yotgan 12 metrli haykali va sovg‘a keltirayotganlarning devoriy rasmlari muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyatining Angor tumanida joylashgan Bolaliktepa qadimgi qal'a xarobasi yodgorligida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bolaliktepa yodgorligi devorlariga turli xil rasmlar tushirilgan. L.I.Albaumning fikricha, Bolaliktepa V asrda qurilgan bo'lib, shu asrning oxirida yoki VI asr oxirida qayta qurilgan. VII asr birinchi choragida esa Bolaliktepa shahar - qal'asi tushkunlikka yuz tutgan.

Bolaliktepa yodgorligi V-VI asrlarga tegishli termizshohlar qal'a-xarobasidir. U Termiz shahridan 30 km. shimolda joylashgan. Katta va kichik tepaliklardan iborat bo'lgani uchun shunday atalgan. Bolaliktepa yodgorligini 1953-55 yillarda san'atshunos arxeolog L.I.Albaum o'rgangan. Qal'a-kasr to'rtburchak shaklidagi paxsa poydevor (30x30x6 m) ustiga xom gisht (30 x 50 x 10 sm) dan qurilgan bo'lib, 16 xonadan iborat. Xonalardan 11 tasi V asrda, 5 tasi VI asrda bunyod etilgan. Tashqariga qaragan xonalarning devorlari nishon tuynuklidir. Eng katta xona o'rtasiga xom g'ishtdan davra tarxli otashkada (diametri 1,2 m, balandligi 60 sm) ishlangan. Undagi kul qoldiqlari ichidan kuygan bug'doy doni va o'rik danaklari topilgan. Xonalardan sopol va shisha idishlar, turli musiqiy asbob bo'laklari, nakshinkor chilimlar, taqinchoqlar qadalgan ipak kiyimlar parchasi, chordana qurib bola emizayotgan ayol tasviri tushirilgan shisha turunj (medalon), yog'och qoshiq va boshqa shu kabi buyumlar topilgan. Xonalardan birida devorlarda to'y marosimi aks ettirilgan devoriy rasmlar topilgan.

Huddi shu Angon tumanida Bolaliktepadan uncha uzoq bo'lmagan joyda Zangtepa nomli yana bir shahar-qa'la tipidagi aholi manzilgohi ham bo'lgan. Uncha yirik bo'lmagan bu shahar mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lgan. Uning shimoli-g'arbiy qismida mahalliy hokim qarorgohi joylashgan.

Ilk o'rta asrlarda Toharistonda xaykaltaroshlik yuksak darajada rivojlangan. Qo'rg'ontepadan 12 km sharqda joylashgan Vahsh vodiysida joylashgan VII-VIII asrlarga taalluqli bo'lgan Ajinatepadan topilgan buddaviy ibodatxonasining hajmi 100x50 metr bo'lib, balandligi esa 6 metrni tashkil etgan. Bu buddaviy ibodatxona 2 ta kvadrat qismlardan iborat bo'lgan. Ajinatepadan topilgan katta budda haykalining balandligi 12 metrgacha borgan. Bu yerdagi haykallar loydan yasalgan bo'lgan. Haykallar kiyimlari qizil, qo'llari va oyoqlari ok, sochlari esa qoraga bo'yalgan bo'lgan. Ajinatepadagi haykaltaroshlik namunalari o'ziga xosligi bilap boshqa yodgorliklardan ajralib turadi. Bu yerda so'nggi Gandxara va Gupta davri (Hindiston) haykaltaroshligi xususiyatlari ham aks etgan.

Rassomlar V-VII asrlarga mansub tasviriy san'atning L.I.Albaum tomonidan Bolaliktepa yodgorligi qazib ochib o'rganildi. Kattagina xonaning devorlarida rangli bo'yoqlar bilan qandaydir mehmondorchilik - izdahom tasvirlangan. O'sha gilamchalar ustida juft-juft bo'lib, tiz cho'kib o'tirgan

erkak va ayollar tasvirlangan. Erkaklarning egnida uchburchak shaklda keng qaytarma yoqali va xoshiyali uzun kamzul, oyog'ida etik, belida ingichka kamarga o'tkazilgan qayrilma uchli xanjar osilgan. Birida vaza, ikkinchisida cho'g'don tutgan qo'llarining jimjilog'ida bittadan ikkita yirik ko'zli uzuk taqilgan. O'ng qo'lida qadah, qo'lida ko'zgu tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashang ekanligini ko'ramiz. Ichki libos ustidan xoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzuk va keng guldor yopinchiq - qabo yelkaga tashlangan. Quloqlarida yakkadurli zirak, jimjiloqlarida esa ko'zli uzuk taqilgan. Xullas, Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftaliylar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy ayollarini eslatadi. Uning ta'riflashicha, o'sha vaqtlardagi saroy malikalari juda qimmatbaho matodan tikilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylak kiyar, uning etagini esa maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar.

Tayanch tushunchalar: Balx sovutlari, Xo'tan toshi, Son 10, Syuan Szan, temir darvozalar.

Savol va topshiriqlar:

1. *Tohariston viloyatidagi davlatlar haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Toharistonda sug'orish tizimi qanday bo'lgan?*
3. *Toharistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti xususida so'zlab bering.*

3.5. V-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda iqtisodiy-ijtimoiy hayot va shaharsozlik

***O'quv maqsadi:** Markaziy Osiyoda iqtisodiy, madaniy va diniy hayot, ilk o'rta asrlarda shaharsozlik madaniyatining umumiy va xususiy jihatlari, Sharq mamalakatlari bilan aloqalari, diniy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish, tarixiy davr haqida tushunchalar hosil qilish.*

Yozma manbalarda Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi haqida ma'lumotlar juda kam uchraydi. Shu sababli tarixchilar yaqin-yaqingacha bu davr V-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni arab-fors manbalari orqali o'rganishgan. Markaziy Osiyo hududidan topilgan Xorazm va So'g'd davriga oid manbalar esa deyarli o'rganilmagan. Endi So'g'd davriga oid Mug' tog'idan topilgan So'g'diy yozuvlarni ko'radigan bo'lsak, ularning birida Kuchdagi voqealar tasvirlanadi. Unda butun xalq jamiyat uch katlamdan - zodagonlar, savdogarlar va ishchilaridan va aniqrog'i dehqonlar va hunarmandlardan iboratligi va bundan tashqari oddiy va qaram qullar hamda asr qullar ham borligi aytiladi.

Arablarining Markaziy Osiyo fathi davriga oid manbalarda ham o'sha davrda, ya'ni sakkizinchi asr boshlarida So'g'dda qullar ko'p bo'lganligi tilga olinadi. Lekin shunday bo'lsada, asosiy ishchi kuchini shahar va qishloq mehnatkashlari tashkil etgan. Manbada dehqonlar "n'R" yoki "mrtymkt" (odamlar) deb nomlangan. Yana "rkr'kt" nomi ham uchraydiki, bu majburiy ishchi degan ma'noni bildiradi. Yana to'lov evaziga ishlovchi "mr'z" nomli tabaqa ham bo'lganligi aytib o'tiladi. Dehqonlar bu davrda ozod, ya'ni hukmron toifa tarkibiga kirib, ular katta yer egalari, hamda katta-katta viloyatlar hukmdorlari sifatida tilga olinadi. Chunki ularning qo'l ostida "chokarlar" deb ataluvchi harbiy guruhlar bo'lgan. Xitoy sayyohi Syuan Szyan Samarqand haqidagi manbasida o'sha davr dehqonlari va ularning askarlariga ta'rif berib shunday deydi: "Ularning armiyasi qudratli bo'lib, u chokarlardan tashkil topgan. Chokarlar shunchalik mard va jasurki, ular o'limga yuzma-yuz bo'lishga uyga qaytishdek munosabatda bo'lishadi. Shu sabab ularga jangda hech kim qarshilik qila olmaydi va ularning yo'llarini to'sa olishmaydi".

Bundan tashqari chokarlar haqida arab va fors manbalarida ham manbalar ko'p. Shularni jamlab hulosa qiladigan bo'lsak, dehqonlarning harbiy armiya guruhlarini asosini tashkil qiluvchi chokarlar dastlab ozod aholi bo'lgan. Keyinchalik dehqonlarning ta'sirida askarga aylangan. Ba'zi yirik hukmdorlar qo'l ostida minglab chokarlar bo'lgan. Mug' tog'idan topilgan manba hamda arab-fors manbalariga ko'ra hukmronlar tabaqasining eng

yuqorisida "Ixshid (ya'ni oliy hukmdor)" turgan. Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, dehqonlarning maxsus kiyimlari bo'lgan. Ular shu kiyimlarda bo'lib, tillo kamar taqishgan. Mug' tog'idan topilgan xujjatlarda So'g'dning boshqaruv usuli ham bayon qilishgan. Unga ko'ra, markaziy boshqaruvining yuqori lavozimlaridan biri Tudun yoki Tarxon bo'lib, aholini nazorat qilib turgan, keyingisi esa muhim lavozimlardan biri bo'lib, n'ztryw (ya'ni yaqin yordamchi) deb atalgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, "Dopirpat" (bosh ko'tib) ham katta rol o'ynagan. Saroy xo'jaligini boshqaruvchi "framanda" lavozimi ham bo'lib, u asosan saroy kirim-chiqimlarini, hamda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, harbiy ta'minotlarni, soliq yig'ish ishlarini nazorat qilgan. Shu sabab saroyda uning obro'yi baland bo'lib, hatto ularning maxsus xizmatkorlari ham bo'lgan. Mirshablik vazifasini boshqaruvchi shaxs "wrnyk'm"-deb nomlangan. Qo'shinni boshqaruvchi shaxs esa "s'ykn" deb nomlangan. Bularning hammasi markaziy boshqaruv edi. Bundan tashqari mahalliy boshqaruv ham bo'lgan. U esa qishloq va tuman boshqaruviga bo'lingan.

Bu davrda o'ziga xos iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllangan. Iqtisodiy hayot haqida gap ketganda hammamiz savdo-sotiq, hunarmandchilik, hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tushunamiz, chunki iqtisodning asosiy qismini mana shular tashkil qiladi. Bularning asosiy rivojining omili esa aholi sonining ortib borishidir. Shu sababli aholi sonining ortishi bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib boradi, bu davr talabidir. Natijada yurtning iqtisodiy hayoti muntazam o'zgarib, yerga, ziroat maydoniga bo'lgan munosabat o'zgacha shakllanadi. Mamlakatdagi ko'chmanchilarning o'tloqlashuvi ortib, dehqonchilik uchun yaroqli yerlarga ehtiyoj ko'payib bordi. Shu sababli quruq yerlarga suvlar olib kelib o'zlashtirish, ularning hududini kengaytirish yo'lga ko'yildi. Bu ishlarni amalga oshirishda mulkdorlar, qishloq oqsoqollari bosh-qosh bo'lishdi. Dehqonchilikda asosan don ekinlari bug'doy, arpa, sholi va tariq ekilgan. Shahar aholisi hunarmandchilik va savdo - sotiq bilan mashg'ul edi. Hunarmandchilikning kengayishiga asosiy sabab turklar bo'lgan. Chunki hunarmandchilik ularda oldindan rivojlanib kelgan. Shular qatorida Farg'ona va So'g'dda oltin, mis, temirlar ham qazib olingan. Shu bilan birga mamlakatning tashqi savdosi ham ancha rivojlangan edi. Masalan, g'arbiy Turk xoqonligi va Xitoy o'rtasidagi aloqani olish mumkin. Buxoro va Samarkanddan bir necha karvonlar Xitoyga yo'l olgan. Xullas, dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlanishi oqibatida xalqning iqtisodiy hayoti yaxshi edi.

Mug' tog'idan topilgan ma'lumotlar olimlarni qiziqtirib ko'ygan edi. Olimlar o'sha ma'lumotlarga asoslanib, Tojikiston hududida qazishma ishlarini boshlab yuborishgan edi va bu ishda o'lkashunos arxeolog olim V.R.Cheletko tashabbus ko'rsatdi. U 1934 yillarda yuqori zarafshon hudu-

did a arxeolog qazilma ishlarini olib borib, qadimgi Panjikent shahri qoldiqlarini topdi. Lekin bu qadimgi shaharni ilmiy o'rganish 1946 yilda boshlandi va bu ish uchun So'g'diy tojik arxeolog qidiruv guruhi tuzildi. Bu guruhning boshlig'i arxeolog olim A.Yu.Yakubovskiy edi. Qadimgi Panjikent shahri Samarqanddan 60 km. sharqda va hozirgi Panjikent shahrining chekkasida joylashgan bo'lib, uning umumiy maydoni 19 gektar, aylanasi esa 1750 metrni tashkil qiladi. Shahrisonidan g'arbda taxminan 30 metr balandlikda hukmdor qal'asi joylashgan. Shahrisonidan sharqda va janubiy sharqqa qarab savdo hunarmandchilik rabotlari cho'zilib ketgan. Shahrisonidan janubdagi tepaliqda zardushtiylarning nausi topilgan. Shahrisonning ko'cha yo'llari 3-5 metr dan iborat bo'lib, ba'zilar paralell, ba'zilar kesishgan bo'lgan. Bu yo'llarning ikki chetida uylar qurilgan. Turar joylar ikkiga bo'lingan: birinchisi umumiy aholi turar joyi, ikkinchisi balandligi va oldidagi ayvoni supalari bilan ajralib turgan. Olimlar bu qarorgohni "taxminan yozgi qarorgoh bo'lgan bo'lsa kerak" degan fikrni bildirishgan. Bu imoratlarning markazida maydoni 50-80 kv. metrni tashkil qiluvchi katta xona bo'lgan. Bu xonaning devorlari turli rasmlar va yozuvlar bilan bezatilgan bo'lib, mansabdorlar uchun turar joy yoki mehmonxona bo'lishi mumkin. Panjikent san'at obidalarini orasida devorga loydan ishlangan haykallar ham bor, ular asosan ibodatxonalarda uchraydi. Ularda asosan diniy mavzulardagi tasvirlar masalan, ajdarbaliq, afsonaviy hayvonlar aks ettirilgan. Bu tasvirlar o'simliklardan olingan yelim, mineral bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Bulardan bilinadiki, bu yerda rassomlar va haykaltaroshlar ko'p mehnat qilishgan. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyoda o'sha vaqtda ham ijtimoiy-iqtisodiy hayot nisbatan yaxshi bo'lgan. Bizning bu fikrimizni yozma manbalardagi ma'lumotlar isbotlaydi. Shaharsozlik haqidagi ma'lumotlarni ham shunga o'xshash tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Bunday tarixiy manbalarni arxeologik manbalardan topish mumkin.

Tayanch tushunchalar: Xoqon, dehqonlar, yerdorlar, kashivarzlar, kadivarlar, chokar, ixshidlar, tudun, tug'lar.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ilk o'rta asrlarda qanday ijtimoiy jarayonlar ro'y berdi?*
2. *Manbalarda ko'rsatib o'tilgan qanday davlat lavozimlarini bilasiz?*
3. *Ilk o'rta asrlardagi shaharlarga xos bo'lgan belgilar haqida nimalarni bilasiz?*

XULOSA

Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biri kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk davrlari Ashel, Shel davriga oid manzilgohlarning topilishi mazkur mintaqa odamzod kelib chiqqan makonlardan ekanligini uzil-kesil isbotladi. O'rta va so'nggi paleolitga oid manzilgohlarning topilishi o'lkada zamonaviy qiyofadagi odam shakllanganligini asoslab berdi. Shu asosda aytish mumkinki, Markaziy Osiyo insoniyat paydo bo'lgan hududlardan biridir. Kishilik taraqqiyotining keyingi bosqichlari mezolit va neolit erasida muzlik davrining barham topishi natijasida mintaqada ilk sivilizasion jarayonlar ya'ni ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik paydo bo'ldi. Bu davrga kelib Markaziy Osiyoda uchta tarixiy-madaniy makon shakllandi. Ular Joytun madaniyati (dehqonchilik), Xisor tog'oldi madaniyati (dehqonchilik va chorvachilik) va Kaltaminor madaniyati (markaziy va shimoliy hududlar, asoson, ovchilik va baliqchilik).

Eneolit va bronza davriga kelib sug'orma dehqonchilik, yer haydab ziroatchilik qilish va hunarmandchilikning rivojlanishi oqibatida aholining urbanizatsiya darajasi nihoyatda kuchaydi. Bu esa dastlabki shahar tipidagi aholi manzilgohlarining vujudga kelishiga olib keldi. Eramizdan oldingi 1 ming yilliklarga kelib temirning kashf qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda keskin, tub o'zgarishlarga olib keldi. Ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi aholi o'rtasida mulkiy tabaqalanishning kuchayishiga, bir biridan farq qiluvchi ijtimoiy guruhlarning shakllanishiga va shu asosda tabaqaviy jamiyatning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Oxir oqibatda mulkdorlarga tayangan ilk davlat uyushmalari jamiyat boshqaruvi mahsuli sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Eramizdan oldingi 1 ming yillikning birinchi yarmida, Ahamoniylar bosqiniga qadar, Markaziy Osiyoda yirik, qudratli davlatlar bo'lganligini yaqindagina yurtimizda keng nishonlangan Samarqandning 2750 va Qarshi shahrining 2700 yilligi, Avesto yaratilganligining 2700 yilliklari yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mintaqa nihoyatda qulay joyda joylashganligi, nihoyatda boyligi chet el bosqinchilarinin e'tiborini tortib kelgan. Xalqimiz uzoq yillar davomida Ahamoniylar, yunon-makedonlarga qarshi murosasiz kurashlar olib bordi. Antik davrga kelib Markaziy Osiyoda Sharqning qudratli davlatlari Qadimgi Xorazm, Yunon-Baqtriya davlati, Qang' va Kushon davlatlari paydo bo'ldi va yuksaldi. Aynan shu davrda jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan Buyuk Ipak Yo'li paydo bo'ldi. Ilk o'rta asrlarga kelib, ichki ziddiyatlar va tashqi hujumlar natijasida mazkur davlatlar zavolga yuz tutdi. Xalqlarning buyuk ko'chishi natijasi o'laroq Markaziy Osiyo hududlariga ko'chmanchi turkiy qabilalarning ommaviy kelib joylashishi, o'troqlashishi

yuz berdi. Aholining tilida, madaniyatida turkiylashuv elementlari kuchaydi. Buyuk turkiy davlatlar Xioniyalar, Kidariylar, Eftalitlar va Turk xoqonligi shu jarayonlarning mahsuli sifatida tarix silsilasida o'z o'rnini egalladi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo Arab xalifaligiga qadar uzoq va murakkab iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar girdobida qoldi.

Mustaqil ta'lim uchun mavzular

1. Markaziy Osiyo – insoniyatning eng qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan;
2. Teshiktosh odami;
3. Markaziy Osiyoda datslabki diniy tasavvurlarning shakllanishi;
4. Markaziy Osiyoda tasviriy san'atning paydo bo'lishi;
5. Markaziy Osiyoda ilk sivilizasiya jarayonlari;
6. Neolitda diniy munosabatlar;
7. O'troq madaniyatning shakllanishi;
8. Bronza davri madaniyati;
9. Sug'orma dehqonchilik;
10. Markaziy Osiyo ilk shaharlarning paydo bo'lishi;
11. Qadimgi Parkana;
12. Zardushtiylarning asosiy qoidasi;
13. "Avesto" – zardushtiylarning muqaddas kitobi;
14. Markaziy Osiyo xalqlarning ozodlik kurashlari;
15. Ahmoniylar davrida iqtisodiy-madaniy hayot;
16. To'maris-xalq qaxramoni;
17. Sharqiy Turkiston tarixiy hudud;
18. Iskandar va uning Markaziy Osiyoga harbiy yurushlari;
19. Yunon-Baqtriya davlati;
20. Xunnlarning mashg'ulotlari;
21. Qang'larning hayoti;
22. Qadimgi Choch;
23. Kushonlar davrida madaniy hayot;
24. Kushonlar davrida etnik jarayonlar;
25. Xioniylar va Kidariylar davlati;
26. Eftalitlar davrida yer egaligi;
27. Turk hoqonligi davrida etnik jarayonlar;
28. G'arbiy turk hoqonligi;
29. Tuproqqal'a;
30. Afrasiyob – noyob tarixiy yodgorlik;
31. Toharistonda hunarmandchilik;
32. Markaziy Osiyoga xristian dinining kirib kelishi

Tarixiy atamalar va joy nomlarining izohli lug'ati:

“Avesto” – forsiy va turkiy tillar lahjalarida so'zlashuvchi halqlarning eng qadimgi tarixi va madaniyati haqida yozma ma'lumotlar beruvchi din – zardushtiylarning muqaddas kitobi

Axuramazda – zardushtiylik dinining bosh xudosi, ezgulik xudosi, insonga doimo yahshilikni ravo ko'ruvchi shohiy kuch.

Andronovo madaniyati - miloddan avvalgi II ming yillik davomida Janubiy Sibir' va Qozog'iston dashtlarida, Yeneseysdan tortib to O'rol daryosigacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan bronza davrining chorvador qabilalar madaniyati.

Amirobod madaniyati – Amudaryoning quyi havzasida miloddan avvalgi X – VII asrlarda daydi chorvachilik turmush tarzidan o'troq dehqonchilik xo'jaligiga o'tib borayotgan qabilalar madaniyati.

Afrosiyob – Samarqandning eng qadimgi qismi.

Ar'yanem Vaychax – Zardushtiylar payg'ambari Zardushtning vatani.

Animizm – hayvon ruhlariga ishonish demakdir.

Ark – podshoh qasri.

Bantak – qula va cho'rila: erkakalar

Baqtriya – geografik hudud.

So'g'd – So'g'diyona, ya'ni hozirgi Samarqand, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari hududi.

Sastar – hukmdor, hokim.

So'g'diyona – geografik hudud. So'g'diyona yurtiga Zarafshon va Qashqadaryo vohalari chegarasidagi hududlar kirgan. Aholisi – so'g'diylar.

Saklar – ahamoniy podsholarining qoya toshlarga yozib qoldirgan kitoblarida O'rta Osiyoning ko'chmanchi chorvador aholisi shunday nom bilan yuritilgan.

Selung'ur – qadimgi tosh (poleolit) davrining ashel' bosqichiga oid arxeologik yodgorlik.

Spitamen (forscha Spitoma) – miloddan avvalgi 329 – 328 yillarda Iskandar Zulqarnayn qo'shinlariga qarshi O'rta Osiyoliklar halqlarni jangga yetkazilgan milliy halq qahramoni.

Sarazm madaniyati – Zarafshon vohasining Tojikistonga tegishli Sarazm qishlog'idan topib o'rganilgan eneolit davri qabilalarining madaniyati.

Sopollitepa – bundan 3,5 – 4 ming yil avval Janubiy O'zbekistonda yashagan bobodehqonlarning makoni sifatida tarkib topgan yodgorlik.

Dax'yu – viloyat, yirik okrug, yirik hududiy birlik.

Dax'yu sasti – hukmdor, konfederatsiya tipidagi davlat boshlig'i.

Davan - geografik hudud. Xitoyliklar tushunchasida Farg'ona vodiysi.

Eftalitlar – O'rta Osiyoning shimoli – sharqida Movaraunnahrning ichki viloyatlariga kirib kelib, V asrda davlat barpo etgan qabila ittifoqi.

Ellinlashtirish – Sharqda yunon madaniyatining yoyilish jarayoni, aralash madaniyatining – yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

Eneolit (lotincha “eneus” – “mis” va yunoncha “litos” – “tosh” so'zlaridan) – mis – tosh asri.

Fetishizm (fr.fetich – tumor so'zidan olingan) – jonsiz predmetlarga e'tiqod qilishni anglatadi.

Gava – So'g'diyonaning bir tomoni.

Vara, vara – choy atrofi mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan qal'a – qo'rg'on.

Vis – urug', bir urug' joylashgan qishloq.

Vispati – urug' boshlig'i.

Vrazana – bir qishloqda joylashgan bir necha urug'lar uyushmasi.

Kaltaminor madaniyati – Amudaryoning quyi havzasida yangi tosh (neolit) davrida daryo o'zanlari va ko'l yoqalarida makon topib, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan qabilalar madaniyati.

Kashavarz – ziroatkorlar

Korikor – xizmatkorlar

Kadivar – mute qo'shchilar

Mezolit (“mezos” – “o'rta”) – o'rta tosh asri;

Migratsiya – xalqlarning ko'chishi, siljishi.

Marokanda – Samarqandning yunoncha nomi.

Mouru – Marg'iyona, ya'ni Janubiy O'zbekiston, Janubi – G'arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlari.

Neolit (“neos” – “yangi”) – yangi tosh asri;

Nisaya – Niso, Ashgabat yaqinidagi qadimgi shahar, Parfiya davlatining poytaxti.

Nmana – oila, nmanapata – oila boshlig'i; agar u ayol boshlig'i ayol bo'lsa, nmanapatna deb atalgan.

Nukleus – lotincha nukleus – yadro, tosh o'zak demakdir.

Naf – ilk o'rta asrlarda shahar va qishloq aholisi.

Ozod – mulkdorlar.

Ozodkor – shahar hunarmandlari

Poleolit (yunoncha “paleos” “qadimgi” va “litos” – “tosh” so'zlaridan) – Qadimgi tosh asri;

Parfiya – geografik hudud. Turkmanistonning Ashgabat viloyati va

unga yaqin bo'lgan Shimoli – Sharqiy Eron erlari qaragan. Aholisi – parfiyliklar.

Qo'lbuloq – qadimgi tosh (poleolit) davridagi oid arxeologik yodgorlik.

Rabot – atrofi devor bilan o'ralmagan istehkomsiz mavzalar.

Satraplik – ahamoniylar, salavkiylar, Parfiya va sosoniylar davlatlaridagi ma'muriy – hududiy tuzilma.

Totemizm – ibtidoiy jamoa odamlari totemlarga, hayvon va o'simliklarga sig'inishgan

Tozabog'yob madaniyati – miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Amudaryoning quyi havzasiga Qozog'iston cho'llaridan o'z podasini orqasidan ergashtirib kelib qolgan chorvador qabilalar madaniyati.

Ustrushona – ilk o'rta asrlarda hozirgi Jizzax va Xo'jand viloyatlariga tegishli hududlar shu nom ostida tushunilgan.

Xaoma – zardushtiylik dinida muqaddas ichimlik. U zardushtiylik dining ibodathonalari qoshida mahsus o'simliklardan tayyorlangan va ibodat kunlari ichilgan.

Yettisuv – Turkiston general – gubernatorligiga qarashli Balxash, Sassiqlik ko'l, Olako'l, Jungariya Olotovi va Shimoliy Tyanshan oralig'ida joylashgan tarixiy viloyat.

Shahriston – ichki shahar.

Choch - geografik hudud. Sirdaryoning o'rta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlari.

Yu – chjilar – toxtarlarning Xitoycha nomi.

Joytun madaniyati – Kopetdag etaklarida, Qoraqum cho'lida yangi tosh (neolit) davrida ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar madaniyati.

Zamonbobo – Buxoro viloyati Qorako'l tumanida Zarafshonning qurib borayotgan o'zani Gurdush yo'lida tashkil topgan ko'l.

Zaratushtra – zardushtiylik dinining bosh islohotchisi, tarixiy shahs. Dariy tilida ushtra – tuya, zarat – keksa sariqlik tuya ma'nosida. Zardushtra – tuyachiilar avlodidan degan ma'noni bildiradi.

Markaziy Osiyo tarixidan test savollari

1. Markaziy Osiyoda “Fergantop” manzilgohi qayerdan topilgan?
A) Selingur g’ori;
B) Ko’lbuloq;
C) Teshiktosh;
D) Omonqo’ton
2. Teshiktosh yodgorligidan topilgan narsani aniqlang?
A) Yosh bolaning suyaklari;
B) Turli buyumlar;
C) Xayvon suyaklari;
D) Qadimgi qabriston
3. Hozirgi zamon odamlari qachon paydo bo’lgan?
A) so’nggi poleolit;
B) mezolit;
C) ilk poleolit;
D) o’rta poleolit
4. O’q – yoy qachon kashf qilingan?
A) mezolit ;
B) so’nggi poleolit;
C) neolit;
D) eneolit
5. Mezolit davri yodgorliklarini aniqlang?
A) Teshiktosh, Jarqo’ton;
B) Obirahmon, Qulbuloq;
C) Obishir, Zarautsoy;
D) Omonqo’ton, Uchtut.
6. Markaziy Osiyoda neolit davrining o’ziga xos xususiyatlarini aniqlang?
A) barcha javoblar to’g’ri;
B) o’troq hayotga o’tish;
C) kulollik va to’qimachilik;
D) mehnat qurollarining takomillashuvi va turlarining ko’payishi
7. Insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan davr?
A) Poleolit;
B) Mezolit;
C) Neolit;
D) Eneolit

8. Kulolchilik, to'qimachilik, pasxadan uy – joylar qurilishi boshlangan davrni aniqlang?

- A) Neolit;
- B) Mezolit;
- C) Poleolit;
- D) Eneolit

9. O'rta Osiyoning janubida sug'orma dehqonchlik vujudga kelib, anhorlar, ariqlar ochilib, unumdor yerlarning ko'payishi bilan bog'liq davrni aniqlang?

- A) 4 – ming yillikda;
- B) 3 – ming yillikda;
- C) 2 – ming yillikda;
- D) 1 – ming yillikda

10. Bronza qorishmasini aniqlang?

- A) qorishmasi qalay, mis, qo'rg'oshin qorishma;
- B) qalay, mis, qo'g'oshin, rux;
- C) qalay va mis qorishmasi;
- D) barcha javoblar to'g'ri

11. Mil.avv.2 ming yillikning oxiri va 1 ming yillikning boshlarida Farg'ona vodiysida rivojlangan madaniyatni aniqlang?

- A) Chust madaniyati;
- B) Afrosiyob madaniyati;
- C) Dalvarzin madaniyati;
- D) Oltoy madaniyati

12. Markaziy Osiyoda bronza davrida mis rudasi qazib olingan joylarni aniqlang?

- A) Farg'ona, Chotqol, Qurama tog'lari;
- B) Pomir, Chotqol;
- C) Xorazm hududi;
- D) Janubiy Turkmaniston.

13. Sariqqamish xavzasidan topilgan arzeologik topilmalar davrini aniqlang.

- A) er.avv.VII – VIII asr;
- B) er.avv.VI – V asr;
- C) er.avv.X – IX asr;
- D) er.avv. IX – VII asr

14. Sariqqamish havzasi qayerda joylashgan?
- A) Xorazmning chap qirg'og'ida;
 - B) Xorazmning o'ng qirg'og'ida;
 - C) Buxoro hududlarida;
 - D) Qashqadaryo atrofida
15. Limon olib sug'orish tartibi qachon paydo bo'lgan?
- A) er.avv. 1 ming yillikning 1 – yarmida;
 - B) er.avv. 2 ming yillikning 2 – yarmida ;
 - C) er.avv. 2 ming yillikning 1 – yarmida;
 - D) er.avv. 3 ming yillik boshlarida
16. Qadimiy Chochda sun'iy sug'orish tizimi qachon shakllangan?
- A) eramiz boshlariga kelib;
 - B) er.avv. VI – V asrlarda;
 - C) eramizning o'rtalariga kelib;
 - D) er.avv. VII – VI asrlarda
17. Markaziy Osiyoda ilk mehnat taqsimoti qachon sodir bo'lgan?
- A) Bronza;
 - B) Eneolit;
 - C) Neolit;
 - D) Temir.
18. O'rta Osiyoda vujudga kelgan ilk davrlar uyushmalarini aniqlang?
- A) Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya;
 - B) Qadimgi Marg'iyona, Qadimgi Parfiya;
 - C) Qadimgi Sug'd, Qadimgi Marg'iyona;
 - D) Katta Parfiya, Qadimgi So'g'diyona
19. Markaziy Osiyo haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalarni aniqlang.
- A) Avesto;
 - B) Injil;
 - C) Rigveda;
 - D) Zabur
20. Qadimda Dashti qipchoq hududlarida tashkil topgan davlatni aniqlang?
- A) Qang';
 - B) So'g'd;
 - C) Choch;
 - D) Parkana

21. Qang' haqida ma'lumotlar qaysi manbalarda uchraydi?
A) barcha javoblar to'g'ri;
B) Yunon;
C) Eron;
D) Xitoy
22. Parkana davlati tashkil topgan davr?
A) mil.avv. V – IV asrlar;
B) mil.avv. I – II asrlar;
C) mil.avv. III – IV asrlar;
D) mil.avv. IV – VI asrlar
23. Mil.avv.II asr va milodiy I asrlar Farg'onada qanday jarayon ro'y bergan?
A) yuksalish, kuchayish;
B) inqiroz;
C) feodal munosabatlarning shakllanishi;
D) milliy – ozodlik xarakati
24. Milodiy II - III asrlarda Farg'ona mintaqasida qanday jarayon ro'y berdi?
A) inqiroz;
B) yuksalish, kuchayish;
C) feodal, munosabatlarning shakllanishi;
D) milliy ozodlik xarakati
25. Parkana davlati “Samoviy otlar” uchun urush olib borgan davlatni aniqlang?
A) Xorazm;
B) Qang';
C) Xitoy;
D) Sug'd
26. Ustrushonaning birinchi poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
A) Qal'ai Qaxqaxa;
B) Poykent;
C) Panjikent;
D) Toshkent
27. Insoniyat tarixida III – V asrlar qanday davrga to'g'ri keladi?
A) quldorlik davlatlarning zaiflashuvi;
B) feodal davlatlarning tarqoqlashuvi;
C) sivilizatsiya tugatilishi;
D) barcha javoblar to'g'ri

28. Arablar istilosi arafasida Movaraunnaxrda qancha davlat mavjud bo'lgan?
- A) 10 ;
 - B) 14;
 - C) 15;
 - D) 20
29. Afrosiyob shahar harobalari joylashgan mintaq bu...
- A) Samarqand
 - B) Qashqadaryo;
 - C) Surxon voxasi;
 - D) Zarafshon vohasi
30. IV – VI asrlarga oid Markaziy Osiyodagi yirik shahar hisoblangan Ko'ktepa qayerda joylashgan?
- A) Zarafshon voxasi;
 - B) Qashqadaryo;
 - C) Surxon vohasi;
 - D) Samarqand
31. Qadimiy shaharlar Uzunqir va Yerqo'rg'on qayerda joylashgan?
- A) Qashqadaryo;
 - B) Samarqand;
 - C) Surxon vohasi;
 - D) Samarqand
32. Qadimiy Kuzaliqir shahri qayerda joylashgan?
- A) Xorazm;
 - B) Qashqadaryo;
 - C) Surxon voxasi;
 - D) Zarafshon
33. Aleksandr Makedonskiy Markzaiy Osiyoga qachon yurish qilgan?
- A) er.avv. 329 – 327 yilar;
 - B) er.avv. 330 – 328 yillar;
 - C) er.avv. 325 – 323 yillar;
 - D) er.avv. 332 – 330 yillar
34. Yunonlar xarbiy shaharlarni nima deb atashgan?
- A) polis;
 - B) demokratiya;
 - C) riton;
 - D) amfora

35. Aleksandr Makedonskiy vafotidan keyin taxtga qaysi sulola vakillari kelgan?
- A) Salavkiylar;
 - B) Yu e chjilar;
 - C) Arshakiylar;
 - D) Kushonlar
36. Markzauiy Osiyoda dastlab buddizm tarixi bilan kim shug'ullangan?
- A) Abu Rayhon Beruniy;
 - B) Al – Farg'oniy;
 - C) Ibn Sino;
 - D) Al – Xorazmiy
37. Yunon – Baqtriyaning qaysi shoxi davrida ilk bor budda surati tasvirlangan?
- A) Mekandr;
 - B) Agafokl;
 - C) Kanishka;
 - D) Duttxagamani
38. Yunon – Baqtriya podshosi Mekandr tangalarida nimani tasvirlagan?
- A) g'ildirak;
 - B) olov;
 - C) qush;
 - D) yuyosh
39. Budda dinining Uzoq Sharq mamlakatlarida yoyilishida kimlarning roli katta bo'lgan?
- A) Budda monarxlarini;
 - B) darveshlarni;
 - C) olimlarni;
 - D) savdogarlarni
40. Xunlar davlati qachon tashkil topgan?
- A) er.avv. 1 ming yillikda;
 - B) er.avv VI – IV asrda;
 - C) er.avv. IV asrda;
 - D) er.avv.II asrda
- 41.Xunlar qachon g'arbga yurish boshlashdi?
- A) IV asrda;
 - B) I asrda;
 - C) II asrda;
 - D) VIII asrda

42. Markaziy Osiyoning dehqonchilik tumanlarida ilk davlatlar qachon tashkil topa boshladi?

- A) er.avv. VII – VI asr;
- B) er.avv. VIII – VII asr;
- C) er.avv. VI – V asr;
- D) er.avv. IX – VIII asr

43. Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Midiya davlati o'rnida qanday davlat tuzildi?

- A) Axmoniyilar;
- B) Arshakiylar;
- C) Salavkiylar;
- D) Kushonlar

44. Er.avv.530 yilda Kir II qayerga yurish qildi?

- A) Markaziy Osiyoga;
- B) Xitoyga;
- C) Hindistonga;
- D) Midiyaga

45. Kir II qachon vafot etgan?

- A) mil.avv. 532 yil;
- B) mil.avv. 550 yil;
- C) mil.avv. 530 yil
- D) mil.avv.535 yil

46. Sirdaryoning o'rta oqimida qaysi davlat hukm surgan?

- A) So'g'd;
- B) Qang'
- C) Dovon;
- D) Parfiya

47. O'rta Osiyoda Sosoniylar davlati qachon tugatildi?

- A) VII – VI asrda;
- B) V – IV asrda;
- C) VIII – VII asrda;
- D) VI – V asrda

48. Turk xoqonligi davlatini birlashtirish uchun kurashgan hukmdorni aniqlang?

- A) Tanshuxu;
- B) Bumen;
- C) Istemi;
- D) Kultegin

49. Tunyabg'u xoqon qachon vafot etgan?
A) 618 yil;
B) 630 yil;
C) 620 yil;
D) 616 yil
50. Toza kumush pul birligi nima deb atalgan?
A) D va B;
B) draxmi diantrik;
C) gurt;
D) nokortik
51. Ustrushona qaysi hududlarda joylashgan?
A) Zarafshon va Qashqadaryo daryolari vohasidagi ba'zi bir hududlar;
B) Jizzax va Xo'jand tumanlari tog' va tog' oldi hududlari;
C) Toshkent vohasi
D) Amudaryoning quyi oqimi
52. Baqtriya joylashgan hududni aniqlang?
A) Amudaryoning quyi oqimida, uning ikki tomonida joylashgan hudud;
B) Koppettog'ning shimoliy yonbag'rlarida;
C) Amudaryoning quyi oqimida;
D) Murg'ob daryosi quyi oqimidagi Marv vohasi
53. G'ildirak qachon paydo bo'lgan?
A) er.avv.3 – 4 ming yillik;
B) er.avv.III – II asrlar;
C) er.avv.V – IV asrlar
D) er.avv.II – I asrlar
54. Birinchi g'ildirak qayerda paydo bo'lgan?
A) Janubiy Turkmaniston;
B) Shimoliy Afg'oniston;
C) Qozog'izston;
D) O'zbekiston hududlari
55. Zardushtiylik dinining asoschisi Zardushtning ota – onasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?
A) Pourushaspa, Dug'dova;
B) Pourushaspa, Dingilja;
C) Vishtaspa, Dug'dova;
D) Vishtaspa, Dingilja

56. Zardushtiylik dinini birinchi bo'lib qabul qilib, Zardushtga boshpana bergan hukmdor bu...

- A) To'g'ri javob D va C;
- B) Axamoniylar hukmdori;
- C) Vishtasp;
- D) Aryonam Vayjo qavisi

57. Zardo'shtiylik dini qanday dinlar jumlasiga kiradi?

- A) Dualizmga asoslanga;
- B) Ko'pxudolilik;
- C) Yakkaxudolilik;
- D) Ateistik

58. "Avesto"ning qismlari qanday ataladi?

- A) Nask;
- B) Yamna;
- C) Yasna;
- D) Gat

59. Zardo'shtiylik dini bo'yicha muqaddas narsalar, bu...

- A) suv, olov, yer va havo;
- B) suv va havo;
- C) olov;
- D) yer va osmon

60. Hozirgi Qozog'istonning janubi sharqida joylashib, Balxam ko'li, shimolda Sassiqlik, janubda Tangritog', janubi Jo'ng'or o'lotovi orasida joylashgan hududning qadimiy nomi?

- A) Yettisuv;
- B) Oltoy;
- C) Ustrushona;
- D) Sharqiy Turkiston

61. VI asr o'rtalarida Oltoy, Janubiy Sibir, Yettisuv, sharqiy Turkiston hududlarida vujudga kelgan davlatni aniqlang.

- A) Turk xoqonligi;
- B) Toxariston;
- C) So'g'd;
- D) Dovon

62. Nechanchi yilda turkiylar tomonidan Movaraunnaxr egallanib, Buyuk Ipak yo'li ularning nazoratiga o'tadi?

- A) 571 yili;
- B) 671 yili;

- C) 654 yili;
- D) 805 yili

63. Turk xoqonligi nechanchi yili ikki mustaqil davlatga bo'linib ketadi?

- A) 588 yili;
- B) 556 yili;
- C) 528 yili;
- D) 640 yili

64. Sharqiy xoqonlik tashkil topgan hududni aniqlang?

- A) Mo'g'uliston;
- B) Tojikiston;
- C) Turkmaniston;
- D) Orolbo'yi

65. G'arbiy xoqonlik tashkil topgan hudud?

- A) Yettisuv;
- B) Oltoy;
- C) Sharqiy turkiston;
- D) Orolbo'yi

66. Turk xoqonligi davrida Zarafshon xududida vujudga kelgan yirik siyosiy uyushmani aniqlang?

- A) Kan;
- B) Dovon;
- C) So'g'd;
- D) Ustrushona

67. Ellinizm davriga oid Oyxonim shahri harobalari qachon topib o'rganilgan?

- A) 1964 – 1965 yillarda fransuz arxeologlari tomonidan;
- B) 1974 – 1975 yillarda fransuz arxeologlari tomonidan;
- C) 1964 – 1965 yillarda rus arxeologlari tomonidan;
- D) 1974 – 1975 yillarda rus arxeologlari tomonidan

68. Kushonlar davriga kelib qaysi vodiylarda butun boshli kanallar sistemalari vujudga keladi?

- A) Baxsh;
- B) Zarafshon;
- C) Xorazm;
- D) Barcha javoblar to'g'ri

69. Kushonlar davriga kelib qishloq xo'jaligida qanday yutuqlarga erishiladi?
- A) seleksiya vujudga kelib, o'simliklarning yangi navlari yetishtiriladi;
 - B) shudgor qilina boshlanadi;
 - C) suniy sug'orishga o'tiladi;
 - D) barcha javoblar to'g'ri
70. Ayritom, Xolchayon singari zardo'shtiylik ibodatxonalari qaysi sulola vakillari davrida qurilgan?
- A) Salavkiylar;
 - B) Sosoniylar;
 - C) Kushonlar;
 - D) Turk xoqonligi
71. Kushonlar davriga kelib hunarmandchlikning qanday sohalari rivojlanadi?
- A) barcha javoblar to'g'ri;
 - B) metal bilan ishlash;
 - C) shishadan foydalanish;
 - D) sopolchilik
72. Kushonlar davrida Markaziy Osiyo savdogarlari aloqa o'rnatgan hududlarni aniqlang?
- A) barcha javoblar to'g'ri;
 - B) Xitoy, Hindiston;
 - C) Uralbo'yi mamlakatlari;
 - D) Rim, Aleksandriya
73. Turk xoqonligi vujudga kelgunga qadar mintaqada qanday davlat hukmronlik qilgan?
- A) to'g'ri javob C va D;
 - B) sosniylar;
 - C) jo'janlar;
 - D) eftaliylar
74. Turk xoqonligining asoschilaridan bo'lmish qabila bu...
- A) ashina;
 - B) suryon;
 - C) boxtar;
 - D) spitama
75. Oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan mahalli yozuvlarni aniqlang?
- A) parfiya, so'g'r, baqtriya va xorazm;
 - B) parfiya, so'g'd, baqtriya;

- C) parfiya, so'g'd;
- D) xorazm

76. Makedoniyalik Iskandarning So'g'diyona o'lkasiga yurishlari boshlangan shaharni aniqlang?

- A) Baqtra;
- B) Marv;
- C) Kat;
- D) Balx

77. Spitamen yunonlar ustidan qaysi jangda g'alaba qozonadi?

- A) to'g'ri javob D va C;
- B) Marg'iyona;
- C) Zarafshon;
- D) Politimet

78. Markaziy Osiyoning qaysi hudulari Kushonlar davlati tarkibiga kirmagan?

- A) barcha javoblar to'g'ri;
- B) Qashqadaryo, Toshkent;
- C) Farg'ona;
- D) Xorazm, Zarafshon

79. Qang' davlati qachon paydo bo'ldi?

- A) mil.avv.III asrda;
- B) mil.avv.II asrda;
- C) mil.avv.I asrda;
- D) milodiy I asrda

80. Iskandar asos slogan Aleksandriya Esxata shahri qayerda joylashgan?

- A) Sirdaryo bo'yida;
- B) Amudaryo bo'yida;
- C) Kopetog' yonbag'rida;
- D) Orol dengizi bo'yida

81. O'zining "samoviy" otlari bilan mahshur bo'lgan davlatni aniqlang?

- A) Farg'ona;
- B) Zarafshon;
- C) Xorazm;
- D) Baqtriya

82. Iskandar davrida Xorazmda kim xokimlik qilgan?

- A) Farasmon;
- B) Sparangis;

- C) Bess;
- D) Arrian

83. Xorazm hududida koxna yodgorlik Qo'yqirilgan qal'a boshqalardan nimasi bilan farq qiladi?

- A) asosiy inshootning aylana shaklidagi;
- B) mustahkamligi;
- C) hududi;
- D) kattaligi

84. Xorazm shohlariga tegishli arxiv hujjatlari qayerda topilgan?

- A) Tuproqqal'a;
- B) Jonbosqal'a;
- C) Qo'yqirilgan qal'a;
- D) Mug' tog'i

85. Xorazmda zarb qilingan kumash va mis tangalarda asosan kimlarning uchragan.

- A) xorazmshohlar ismlari;
- B) zardushtiylar ilohlari;
- C) grek xudolar;
- D) kushon podsholari ismlari

86. Eftalitlarni yetti qabiladan iborat massagetlarning yetakchi qabilasi deb tasvirlagan tarixchini aniqlang?

- A) Lazer Parbskiy;
- B) Gerodot;
- C) Arrian;
- D) Xitoy manbalari

87. Eftaliylarni yu e chjilarning boshqa bir ko'rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog'i deb ko'rsatilgan manba bu...

- A) Xitoy manbalari;
- B) Gerodot;
- C) Lazer Parbskiy;
- D) Arrian

88. Eftaliylar davlati hududlariga asosan qaysi o'lka kirgan?


- A) So'g'diyona;
- B) Baqtriya;
- C) Parfiya;
- D) Xorazm

89. Eftaliylar davlatining siyosiy markazini aniqlang?
A) Poykand;
B) Marv shahri;
C) Sheroz shahri;
D) Choch shahri
90. Eftaliylar bilan jang olib brogan Eron shohini aniqlang?
A) Yazdigird II;
B) Yazdigird;
C) Peroz;
D) Doro
91. Eftaliylarning Eron hududlariga harbiy yurishlari qachon bo'lgan?
A) 453 – 454 yillarda;
B) 475 – 479 yillarda;
C) 741 – 752 yillarda;
D) 763 – 745 yillarda
92. 456 yilda Eftaliylar tomonidan birinchi bo'lib elchilar yuborilgan mamlakatni aniqlang?
A) Xitoy;
B) Hindiston;
C) Eron;
D) Vizantiya
93. Eftalitlar bilan eng ko'p kurashgan Eron podshosi?
A) Peroz;
B) Yazdigird;
C) Doro;
D) Kir
94. VII asrda xarbiy to'qnashuvlarning natijasida Xorazm va So'g'dda qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?
A) qo'rg'on qal'alar ko'payishi;
B) feodalizmning yemirilishi;
C) shaharlar mustahkamlanishi;
D) barcha javoblar to'g'ri
95. Arablarga qadar Markaziy Osiyoda qanday yozuvlar bo'lgan?
A) barcha javoblar to'g'ri;
B) ung'ur, moniviy;
C) so'g'd, braxma, suryoniy;
D) turk, runiy

96. Turk – runiy yozuvlarida bitilgan yodgorliklarni aniqlang?
A) barcha javoblar to'g'ri;
B) Ungin bitiklari;
C) Bilga xoqon, Kulichur bitiklari;
D) Tunyuquq, Kultegin bitiklari
97. So'g'd yozuvining keng taqalishiga nima sabab bo'lgan?
A) to'g'ri javob D va C;
B) boshqa yozuvlarning taqiqlanishi;
C) Buyuk Ipak Yo'lining qo'lga olinishi;
D) So'g'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish
98. VI – VII asrlarda Samarqandda viloyat xokimlari qanday atalgan?
A) ixshid;
B) xudot;
C) ixrid;
D) afshan
99. VI – VII asrlarda Buxoro viloyati xokimlari qanday atalgan?
A) xudot;
B) ixshid;
C) ixrid;
D) afshin
100. VI – VII asrlarda Keshda viloyat xoikmlari qanday atalgan?
A) ixrid;
B) xudot;
C) ixshid;
D) afshin
101. VI – VII asrlarda Ustrushonada viloyat xokimlari qanday atalgan?
A) afshin;
B) xudot;
C) ixrid;
D) ixshid

**Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy mintaqasining YUNESKO
tomonidan e'tirof qilingan**

XARITASI



Eslatma: Markaziy Osiyo mintaqasiga kiruvchi davlatlarning hozirgi siyosiy chegaralari xisobga olingan holda tuzilgan.

- | | |
|-----------------|------------------|
| 1. O'zbekiston | 7. Eron |
| 2. Qozog'iston | 8. Pokiston |
| 3. Turkmaniston | 9. Hindiston |
| 4. Qirg'iziston | 10. Xitoy |
| 5. Tojikiston | 11. Mo'g'uliston |
| 6. Afg'oniston | 12. Rossiya |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI I.A.KARIMOV ASARLARI

1. Karimov I.A. *Xiva shahrining 2500 yillik yubeleyida so'zlangan nutqi*. 6-jild. –T.:O'zbekiston, 1998. –B.170-172.
2. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. – T.:O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. *Vatan ozodligi – oliy saodat: Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasidagi ma'ruza*. –T.:O'zbekiston, 1999. –61 b.
4. Karimov I.A. *Qashqadaryo vaxosining zumrad gavhari // Shahrizabz shahrining 2700 yillik yubileyida so'zlangan nutqi*. 4-jild. –T.:O'zbekiston, 2003. –B.56-63.
5. Karimov I.A. *Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng – oliy qadriyat*. 14-jild. –T.:O'zbekiston, 2007. – 280 b.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.:O'zbekiston, 2008.
7. Karimov I.A. *Tarixi boy, buguni go'zal, kelajagi buyuk shahar./ Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisidagi nutqi // Toshkent oqshomi*, 2009. – № 177-178.

II. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Alimuhamedov A. *Atnik adabiyot tarixi*. –T., 1975.
2. Anarbaev A. *Goroda Severnoy Fergani v drevnosti i rannem srednsvekovye*. –M., 1994.
3. *Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya masalalari (ilmiy maqolalar to'plami)*. Samarqand, 2001. –144b.
4. Bertels Ye.E. *Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturi*. –M., 1969.
5. Boys M. *Zarozstrizm, verovaniya i obiche*. –M., 1987.
6. Bichurin.I.Ya. *Sobranie svedenie o narodax obitavshix v Sredney Azii drevnie vremena*. –M., 1950.
7. Vaynberg B.I. *Etnogeografiya Turana*. –M, 2005. – 279 s.
8. Gafurov B.G. *Istoriya tadjikskogo naroda*. –M., 1952.
9. Gafurov B.G. *Tadjiki*. –M., 1972
10. Gafurov B.G., Sibkidis D.I. *Aleksandr Makedonskiy i Vostok*. –M., 1980. –S.16-21.
11. Gafurov B.G. *Tadjiki, Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya*. –M., 1989.
12. Gumilyov.L.N. *Drevnie turki*. –M., 1950.
13. Gumilyov.L.N. *Eftaliti i sasanidi v IV vek*. –M., 1959.

14. Dandamaev A. *Iran pri pervix Axemenidax.* –M., 1963.
15. Djurakulov M.D. *Istoriya izucheniya kamennogo veka Sredney Azii.* –Samarkand, 1966.
16. Zadneprovskiy Yu.A. *Rannejelezniiy vek Fergani i problema vozniknoveniya Davanskogo gosudarstva.* –M., 1982.
17. Zadneprovskiy Yu.A. *Drevnyaya Fergana.* –T., 1984.
18. Islomov U. *O'zbekiston hududida paleolit.* –T., 1986.
19. Isxakov M.M. *Sentralnaya Aziya v sisteme mirovoy pismennoy kulturi.* –T.:Universitet mirovoy ekonomika i diplomatiya, 2008. – 340 b.
20. Kan V. *Istoriya Kazakstana.* –Almata, 2005.
21. Kradin P.I. *Imperiya Xunnu.* –M., 2002.
22. Klyashtorniy S.G., Sultanov T.I. *Gosudarstvo i narodi Yevraziyskix stepey.* –Sant-Peterburg, 2000.
23. Latipsev V.V. *Izvestiya drevnix grecheskix i rimskix pisateley o Skifax i Kavkazax.* –M.,1893.
24. Litvinskiy B.A. *Vostochniy Turkistan v drevnosti i rannem srednevekove.* –M.,1988.
25. Masson V.M. *Ekonomika i sosialniy stroy drevnix obuyestv.* –L., 1976.
26. Masson V.M. *Srednaya Aziya i drevniy Vostok.* –M., 1964.
27. Novgorodova E.A. *Drevnyaya Mongoliya.* –M.,1989.
28. Okladnikov A.P. *Teshiktash - Paleoliticheskiy chelovek.* –M., 1949.
29. Okladnikov A.P. *Kamenniy vek Tadjikistana.* // MIA. –№ 12. 1964.
30. Okladnikov A.P. *Arxeologicheskie issledovaniya na Altae.* –B., 1987.
31. Pidaev Sh.R. *Sirli kushonlar saltanati.* –T., 1990.
32. Pugachenkova G.A. *Iskusstvo Baktrii epoxa Kushon.* –M., 1979.
33. Retveladze E.V. *Markaziy Osiyoning qadimgi tangalari.* –T., 1987.
34. Retveladze E. *Velikiy shelkoviy put.* –T., 1999.
35. Rtveladze E. *Severniy Taxaristan.* –T., 1999.
36. Rtveladze E.V., Sagdullaev A.S. *Sovremennie mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii.* –T.Uzbekistan, 2006. –50.
37. Savinov Z.G. *Osinskiy mogilnik epoxi bronze na Severnom Altae.* –L.,1975.
38. Smirnova A.P. *Skifi.* –M., 1966.
39. Tolstov S.P. *Po sledam drevnoy Xorezmiyskoy sivilizatsii.* –M., 1948.

40. Tolstov S.P. *Drevney Xarezm*. –M., 1948.
41. Tolstov S.P. *Qadimgi Xorazm*. –T., 1960.
42. Fray R. *Nasledie Irana*. –M.,1972.
43. Xlopin I.N. *Istoricheskaya geografiya yujnix oblastey Sredniy Azii*. –Ashxabad, 1983.
44. Shagalov V.D., Kuznesov A.V. *Katalog monet Chacha III-VIII vv*. –M., 2006.
45. Shaxermaer F. *Aleksandr Makedonskiy*. –M.,1984.
46. Shoniyozov K.Sh. *Qang' davlati va kang'lilar*. –T., 1990.
47. Shoniyozov K.Sh. *Qang'*. –T.,1998.
48. Qoshg'ariy M. *Devoni lug'otit turk*. 1-2 jildlar. –T., 1960-1963.
49. Qudratov S., Omonqulov T. *Markaziy Osiyo xalqlari tarixi*. – Guliston, 1995.
50. G'ulomov Ya.G'. *Xorazmning sug'orish tarixidan*. –T., 1959.
51. G'ulomov Ya.G'. *Qadimgi madaniyatimiz tarixidan*. –T., 1960.

III. QO'SHIMChA ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A. *O'zbekiston xalqlari tarixi*. 1-jild. –T., 1993.
2. Asqarov A. *O'zbekiston tarixi*. –T., 1994.
3. Sagdullaev A. *O'zbekiston tarixi*. –T., 1997.
4. Sulaymonova F. *Sharq va G'arb*. –T., 1998.
5. Umarzoda M. *Avesto" sirlari*. // *Jahon adabiyoti*, –№4. –T., 1997.
6. Xodjaniyazov G'. *Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari*. – T.:O'zbekiston, 2007. –216 b.
7. Shaniyazov K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. –T., 2001.
8. Yaxshiev L. *Shimoliy Tohariston*. // *Avtoreferat*. –T., 2003.
9. G'ulomov Ya. *Qadimgi madaniyatimizning izlaridan*. –T., 1960.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bo'lim: Markaziy Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi davrida	
1.1. Markaziy Osiyoda tosh asri: paleolit. Markaziy Osiyo, Sharqiy va Janubiy Turkistonda paleolit davri yodgorliklari	5
1.2. Markaziy Osiyoda mezolit davri	9
1.3. Markaziy Osiyoda neolit davri	13
1.4. Markaziy Osiyoda eneolit davri	18
1.5. Markaziy Osiyoda bronza davri va ilk shaharsozlik	23
1.6. Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududlarida bronza davri	27
II bo'lim: Markaziy Osiyo qadimgi davrda (eramizdan avvalgi 1-mingyillik, milodiy IV asrlar)	
2.1. Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari: Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya.....	31
2.2. Zardushtiylik : “Avesto”	36
2.3. Qadimgi Eron Ahamoniylar davlatining tashkil topishi va uning jahonga hukmronlik g'oyasi	40
2.4. Ahamoniylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo	44
2.5. Iskandar saltanatining tashkil topishi, boshqaruvi va parchalanishi	49
2.6. Iskandarning Markaziy Osiyoga yurishlari	55
2.7. Ellinizm va uning Markaziy Osiyo madaniyatiga ta'siri	59
2.8. Markaziy Osiyoda ko'chmanchi aholi tarkibi	67
2.9. Xunlar imperiyasi	71
2.10 Yuejchilar va Xunlar, Kushonlar saltanatining shakllanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar	76
2.11. Qang' davlatining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniy hayoti, diniy munosabatlar	81
2.12. Qadimgi Choch va Farg'ona davlatlari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayoti	85

III bo'lim: Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo

3.1. Markaziy Osiyoda ilk feodal davlatlar. Kidariylar, xioniylar va sosoniylar	92
3.2. Eftallar davlati	96
3.3. VI-VIII asrda Turk xoqonligi	102
3.4. Ilk o'rta asrlarda Tohariston	105
3.5. V-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda iqtisodiy-ijtimoiy hayot va shaharsozlik	110
XULOSA	113
Mustaqil ta'lim uchun mavzular.....	115
Tarixiy atamalar va joy nomlarining izohli lug'ati	116
Markaziy Osiyo tarixidan test savollari.....	118
Ilova	134
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	135

Texnik muharrir: ***Mirolim Zarifov***
Kompyuter verstkasi: ***Dilfuza Arifjanova***

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnoma №2, 02.04.2010)

*Mazkur o'quv qo'llanmani nashr qilishga amaliy yordam bergani uchun,
Ilm-fan jonkuyarlaridan bo'lgan ajoyib inson **Shakarov Nusratga** o'z
minnatdorchiligimizni bildiramiz*

Bosishga ruxsat etildi 26.04.10.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Shartli 8,75 b.t. 300 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 25

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010